

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
FARMONI**

**2017 — 2021-YILLARDA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINI RIVOJLANTIRISHNING
BESHTA USTUVOR YO‘NALISHI BO‘YICHA HARAKATLAR STRATEGIYASINI
“FAOL INVESTITSİYALAR VA IJTIMOİY RIVOJLANISH YILI”DA AMALGA
OSHIRISHGA OID DAVLAT DASTURI TO‘G‘RISIDA**

“Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili” deb e‘lon qilingan 2018-yilda mamlakatimizda iqtisodiyot, ijtimoiy soha va davlat boshqaruviga zamonaviy ilm-fan yutuqlari, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Qabul qilingan 2018-yilgi Davlat dasturini ro‘yobga chiqarish doirasida 21 trillion so‘m va 1 milliard AQSh dollariga teng 76 mingta loyiha amalga oshirildi.

“Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlariga muvofiq 400 dan ortiq qishloq va mahallalarda munosib turmush sharoitlarini yaratishga qaratilgan qurilish va obodonlashtirish ishlariga 3 trillion so‘m mablag‘ yo‘naltirildi.

“Har bir oila — tadbirkor” va “Yoshlar — kelajagimiz” dasturlari doirasida 2 trillion so‘mga yaqin mablag‘ ajratilib, joylarda 2 600 dan ortiq biznes loyihalar amalga oshirildi.

Ijtimoiy sohani rivojlantirish, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va mehnatga haq to‘lash tizimini yanada takomillashtirishga alohida e‘tibor qaratildi hamda bu aholining real daromadlarini 2017-yilga nisbatan 12 foizga oshirish imkonini berdi.

Yangi o‘quv yo‘nalishlarni ochish va qabul kvotalarini oshirish hisobiga oliy ta‘lim olish imkoniyatlari salmoqli darajada kengaytirildi.

Soliq ma‘muriyatchiligining mohiyatan yangi tartibi joriy etilgani sababli soliqlarning prognozdan oshirib bajarilgan qismi hisobidan mahalliy budjetlar ixtiyorida 5,5 trillion so‘m mablag‘ qoldirildi. Bu 2017-yilgi ko‘rsatkichlarga nisbatan 6 barobar, 2016-yilga nisbatan 32 barobar ko‘pdir.

Bundan tashqari, iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirish, ishbilarmonlik muhiti va investitsiyaviy jozibadorlikni yaxshilash, aholi daromadlarini oshirish va biznes uchun soliq yukini kamaytirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi qabul qilindi.

Xususan, yagona ijtimoiy to‘lov stavkasining 12 foizgacha pasaytirilishi hamda yuridik shaxslarning aylanmasi (tushumi)dan davlat maqsadli jamg‘armalariga undiriladigan majburiy ajratmalarning bekor qilinishi korxonalar ixtiyorida qo‘shimcha mablag‘lar qolishi uchun shart-sharoit yaratdi.

2018-yilda 18 ta davlatlararo tashriflar amalga oshirildi va 50 milliard AQSh dollariga teng investitsiyaviy kelishuvlarga erishildi. Bugungi kunda yurtimizda chet el investitsiyalari hisobidan qiymati 23 milliard AQSh dollari miqdoridagi 456 ta loyiha amalga oshirilmoqda.

2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha [Harakatlar strategiyasi](#) ijrosini ta‘minlash, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida:

1. Umumiy qiymati 16,9 trillion so‘m va 8,1 milliard AQSh dollariga teng loyihalarni amalga oshirishni nazarda tutuvchi hamda quyidagilarga qaratilgan 2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi (keyingi o‘rinlarda — Davlat dasturi) [1-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin:

davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish sohasida — parlamentning muhim qarorlar qabul qilish va qonunlar ijrosini nazorat etish faoliyatini kuchaytirish, ijro etuvchi hokimiyat tizimini optimallashtirish, ma‘muriy islohotlarni davom ettirish, davlat boshqaruvida zamonaviy menejment uslublarini keng qo‘llash, davlat xizmatlarini rivojlantirish, davlat xizmatiga

malakali mutaxassislarni jalb etishga qaratilgan yagona kadrlar siyosatini shakllantirish, mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolat va mas'uliyatini qayta ko'rib chiqish, ularning mustaqilligini oshirish;

qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish sohasida — sud hokimiyatining haqiqiy mustaqilligiga erishish, aholi tinchligi, xavfsizligini va qonuniylikni ta'minlash, jinoyatchilikning barvaqt oldini olish bo'yicha zarur choralar ko'rish, jinoyat qonunchiligini takomillashtirish va liberallashtirish;

iqtisodiyotni rivojlantirish va investitsiyalarni faol jalb etish sohasida — makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, sog'lom raqobat uchun zarur sharoitlarni yaratish, ishbilarmonlik va investitsiya muhitini tubdan yaxshilash, iqtisodiyotda davlat ishtirokini jiddiy ravishda kamaytirish, yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, "xufyona" iqtisodiyotga qarshi kurashish va uning ulushini keskin qisqartirish, valyuta siyosatini erkinlashtirishni davom ettirish;

ijtimoiy rivojlanish sohasida — aholi o'rtasida ishsizlikni kamaytirish, odamlarning daromadlarini oshirish, fan va uzluksiz ta'limni rivojlantirish, tibbiy xizmatlar sifatini yaxshilash va ular bilan aholini qamrab olishni kengaytirish, xotin-qizlar va yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, odamlarning turmush sharoitlarini yaxshilash, ularni munosib turar joy bilan ta'minlash va farovonligini oshirish, jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish, turizmni rivojlantirish;

xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, shuningdek tashqi siyosat sohasida — mamlakatimiz mudofaa qudratini oshirish, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining salohiyatini mustahkamlash, milliy mudofaa sanoati kompleksini shakllantirish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash, suv va boshqa tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ochiqlik, o'zaro teng va manfaatli hamkorlik tamoyillariga asoslangan tashqi siyosiy faoliyat samaradorligini yanada oshirish.

2. Davlat dasturida nazarda tutilgan tadbirlar, ayniqsa, xorijiy investitsiyalarni jalb etish, qulay investitsiya muhitini yaratish, shuningdek mamlakatimiz hududlarining ijtimoiy rivojlanish darajasini oshirish sohasidagi tadbirlarning samarali va o'z vaqtida ijro etilishini ta'minlash uchun shaxsan mas'ul hisoblangan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi mansabdor shaxslari, vazirlik va idoralar rahbarlari, O'zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalari [2-ilovaga](#) muvofiq mamlakat hududlariga biriktirilsin.

Belgilansinki, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari tomonidan har chorakda Davlat dasturi ijrosining borishi to'g'risida hisobotlar eshutiladi, mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha takliflar kiritiladi, Davlat dasturidagi tadbirlar sifatli va o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash uchun zarur choralar ko'riladi.

3. Har oyda O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining vazirlik va idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlari, O'zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalari rahbarlari bilan birgalikda investitsiya loyihalari amalga oshirilishining borishini muhokama qilish, investorlar faoliyatiga to'sqinlik qilayotgan muammolarni tezkor va samarali hal etishni ta'minlash maqsadida investorlar bilan shaxsan uchrashuvlarni, shu jumladan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'tkazish amaliyoti joriy etilsin.

4. Mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarni maslahat va ekspertlik jihatidan ta'minlashni amalga oshirish, shuningdek jamiyat va davlat hayotini isloh qilish, iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirishning dolzarb masalalari, jumladan mamlakatda investitsiya muhitini yaxshilash yuzasidan takliflar ishlab chiqishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ekspert kengashi tashkil etilsin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi ikki oy muddatda quyidagilarni tasdiqlashni nazarda tutuvchi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasini kiritсин:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ekspert kengashi tarkibi, bunda uning tarkibiga muvaffaqiyatga erishgan tadbirkorlar, atoqli davlat va jamoat arboblari, olimlar, jumladan xorijiy davlatlar fuqarolari va xorijdagi vatandoshlarni kiritish nazarda tutilsin;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ekspert kengashi to'g'risidagi nizom.

5. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda 2019-yil 1-iyunga qadar har bir hududning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, birinchi navbatda investitsiya jalb etish uchun ustuvor yo'nalishlarni nazarda tutuvchi O'zbekiston Respublikasining o'rta muddatli istiqboldagi investitsiya siyosati strategiyasi (keyingi o'rinlarda — Strategiya) ishlab chiqilishini ta'minlasin.

6. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, Tashqi savdo vazirligi, Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda bir hafta muddatda 2019-yilda O'zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlar — ustuvor hamkorlar bilan savdo-iqtisodiy, investitsiya, madaniy-gumanitar va siyosiy, shuningdek xavfsizlik sohasidagi hamkorligini yanada faollashtirish va rivojlantirishga qaratilgan aniq tadbirlar bo'yicha takliflarni kiritсин.

Belgilansinki, O'zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlar — ustuvor hamkorlar bilan hamkorligini yanada faollashtirish bo'yicha taklif etiladigan tadbirlar va yo'nalishlar Davlat dasturi va O'zbekiston Respublikasining 2019-yilga mo'ljallangan Investitsiya dasturi bilan o'zaro uzviy bog'liq bo'lishi lozim.

7. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining quyidagilarni tashkil etish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin:

a) e'lon qilingan kapitali 1 milliard AQSh dollari miqdorida bo'lgan O'zbekiston Respublikasining to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar jamg'armasi (keyingi o'rinlarda — Jamg'arma). Quyidagilar uning asosiy vazifalari etib belgilansin:

respublika iqtisodiyotining ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirishga, shuningdek uning raqobatbardoshligini yanada oshirishga to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar va innovatsion texnologiyalarni jalb etish;

xususiy mahalliy va xorijiy investorlar bilan uzoq muddatli o'zaro manfaatli sheriklik munosabatlarini yo'lga qo'yish orqali investitsiya faoliyatini rag'batlantirish va rivojlantirish;

investitsiya takliflarini baholash, investitsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

investitsiya muhitini yaxshilashga, shuningdek respublikamizning investitsiya salohiyati va imkoniyatlarini xorijda keng targ'ib qilishga ko'maklashish;

b) O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari hisobidan shakllantiriladigan 5 million AQSh dollari miqdoridagi ustav kapitaliga ega, aksiyadorlik jamiyati shaklidagi, davlat ulushi 100 foiz bo'lgan O'zbekiston Respublikasi to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar jamg'armasining boshqaruv kompaniyasi (keyingi o'rinlarda — boshqaruv kompaniyasi).

8. Belgilab qo'yilsinki:

O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi Jamg'armaning yagona ta'sischisi hisoblanadi hamda uning kapitalini Jamg'arma bilan birgalikda loyihalarga investitsiya kiritish to'g'risida investorlar tomonidan qaror qabul qilinishiga qarab shakllantiradi;

investitsiya loyihalari boshqaruv kompaniyasi tomonidan investitsiya uchun ustuvor sohalar, iqtisodiy maqsadga muvofiqlik va samaradorlik hisobga olingan holda mustaqil ravishda tanlab olinadi;

bir loyiha bo'yicha Jamg'arma investitsiyalarining eng ko'p miqdori ushbu loyihaga kiritilishi rejalashtirilayotgan investitsiyalar umumiy hajmining 30 foizidan oshmasligi lozim, qolgan qismi investorlarning o'z mablag'i va jalb qilingan mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi;

Jamg'arma va boshqaruv kompaniyasi faoliyatini muvofiqlashtirish O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi.

9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bir oy muddatda quyidagilarni nazarda tutuvchi hukumat qarorini qabul qilsin:

O'zbekiston Respublikasi to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar jamg'armasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash;

to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni birgalikda moliyalashtirish tamoyillari asosida jalb qilish bo'yicha samarali va shaffof tijorat maydonini yaratgan holda Jamg'arma va boshqaruv kompaniyasi o'rtasida hamkorlik qilish tartibini belgilash;

tomonlarning huquq va majburiyatlari, investitsiya siyosatining tamoyillari, shuningdek uni amalga oshirish mexanizmlarini belgilagan holda Jamg'arma va boshqaruv kompaniyasi o'rtasida investitsiya aktivlarini ishonchli boshqarish to'g'risida shartnomalar tuzish tartibi.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi (Z.Sh. Nizomiddinov) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi (A.N. Aripov) hamda manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2019-yil 1-martga qadar investitsiya loyihalarini, birinchi navbatda, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida amalga oshirishni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashning zamonaviy shakl va uslublarini joriy etishni hisobga olgan holda, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirishni nazarda tutuvchi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasini ishlab chiqsin.

11. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq 2019-yil 1-martdan boshlab:

xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning ta'sischilari (ishtirokchilari) va ularning oila a'zolari uchun muddatini mamlakatdan chiqmasdan uzaytirish imkoniyati bo'lgan, amal qilish muddati uch yilni tashkil qiladigan "investitsiya vizasi" joriy etiladi;

O'zbekiston Respublikasi hududida tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish bo'yicha korxonalar tashkil qilish uchun 3 million AQSh dollaridan ortiq miqdorda investitsiya kiritgan xorijiy davlatlar fuqarolariga, shu jumladan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning ta'sischilari (ishtirokchilari)ga O'zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi 10 yil muddatga soddalashtirilgan tartibda beriladi;

O'zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi yoki "investitsiya vizasi"ga ega xorijiy investorlar hamda ularning oila a'zolari O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun nazarda tutilgan shartlarda tibbiy va ta'lim xizmatlaridan foydalanish huquqiga ega bo'ladi;

xorijiy investorlar, ular tomonidan xorijiy davlatlar fuqarolari orasidan jalb etiladigan mutaxassislar va ularning oila a'zolarini vaqtincha ro'yxatga olish investitsiya loyihasi ro'yobga chiqarilayotgan hududdagi aholi yashash punktida, mamlakatning boshqa hududlarida bo'lganda qayta ro'yxatdan o'tish majburiyatisiz, vizaning amal qilish muddatiga (viza mavjud bo'lmaganda esa 1 yil muddatga) amalga oshiriladi.

12. O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi, Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligining O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi tomonidan Abu Dabi rivojlanish jamg'armasi (BAA) bilan birgalikda O'zbekiston-Amirliklar investitsiya kompaniyasini (keyingi o'rinlarda — investitsiya kompaniyasi) tashkil etish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari — O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi raisi S.R. Xolmurodov hamda O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi ijrochi direktori Sh.A. Vafoyevga O'zbekiston-Amirliklar investitsiya kompaniyasini tashkil etish to'g'risidagi ta'sis shartnomasini imzolash vakolati berilsin.

13. Belgilansinki, investitsiya kompaniyasi:

Oldingi tahrirga qarag.

Abu Dabi rivojlanish jamg'armasi (BAA) kompaniyasining 75 foiz miqdordagi hamda O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining 25 foiz miqdordagi ulushlari hisobiga 10 million AQSh dollari miqdoridagi ustav fondiga va 1 milliard AQSh dollari miqdoridagi e'lon qilingan kapitaliga ega bo'lib, mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklida tashkil etiladi, bunda qo'shimcha ishtirokchilarni o'rnatilgan tartibda jalb etish mumkin bo'ladi;

(13-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-maydagi PF-5722-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 21.05.2019-y., 06/19/5722/3154-son)

faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil qilinayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning ustav kapitallarida ulushlar sotib olish, qarzlar berish, qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish, xo'jalik yurituvchi subyektlar ustav kapitalidagi ulushlarni mahalliy va xorijiy investorlarga

realizatsiya qilish va qonun bilan taqiqlanmagan boshqa shakllarda investitsiya faoliyatini olib borish huquqiga ega;

Birlashgan Arab Amirliklarining investitsiyaviy, moliya institutlari va kompaniyalari bilan investitsiyaviy hamkorlikni rivojlantirish vazifalarini bajaradi, ular bilan investitsiyaviy munosabatlarni muvofiqlashtiradi, shuningdek qo'shma investitsiyaviy loyihalarni qo'llab-quvvatlaydi va ro'yobga chiqarishga ko'maklashadi.

14. Belgilab qo'yilsinki:

Oldingi tahrirga qarang.

(14-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-maydagi PF-5722-sonli Farmoniga asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 21.05.2019-y., 06/19/5722/3154-son)

ustav fondi (kapitali)ning kamida 30 foizi investitsiya kompaniyasi mablag'lari hisobidan shakllantirilgan yangi tashkil etilgan korxonalarga xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar uchun qonunchilikda nazarda tutilgan imtiyoz va preferensiyalar tatbiq etiladi.

15. Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi boshqaruv xodimlarining vakant lavozimlarini qisqartirish hisobidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining islohotlarni huquqiy ta'minlash va huquqni muhofaza qilish faoliyatini muvofiqlashtirish masalalari bo'yicha maslahatchisi bo'linmalari tuzilmasida 5 ta shtat birligidan iborat Xalqaro reytinglar bilan ishlash va "Elektron hukumat" tizimini joriy etish ishlarini muvofiqlashtirish sho'bas;

vazirlik va idoralarda — belgilangan shtatlar soni doirasida xalqaro reytinglar bo'yicha faoliyatni amalga oshirish va "Elektron hukumat" tizimini joriy etish uchun mas'ul bo'lgan ixtisoslashgan tarkibiy bo'linmalar tashkil etilsin.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglardagi va alohida tarkibiy indikatorlardagi o'rnini yaxshilash uchun mas'ul vazirlik va idoralar ro'yxati [3-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

Oldingi tahrirga qarang.

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligiga, eng avvalo, xorijiy ishbilarmonlik doiralar, tadbirkorlar, salohiyatli investorlar, davlat va jamoat arboblari o'rtasida mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, jumladan Davlat dasturining borishi, biznes uchun yaratilgan qulay sharoitlar to'g'risida keng ma'lumot berish va targ'ib qilishni tashkil etish uchun mas'ul bo'lgan PR-markaz funksiyasi yuklansin.

(16-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-dekabrda PF-5892-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.12.2019-y., 06/19/5892/4134-son)

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi (Z.Sh. Nizomiddinov) ikki hafta muddatda O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risidagi, jumladan PR-markaz funksiyasini bajarish doirasida amalga oshiriladigan tadbirlarni moliyalashtirishning aniq manbalarini nazarda tutuvchi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni loyihasini ishlab chiqsin.

17. O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan birgalikda yetakchi xalqaro moliyaviy va konsalting tashkilotlarini jalb etgan holda 2019-yil 1-iyulga qadar ustav kapitalidagi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining aksiyalar (ulushlar) paketlarini sotish nazarda tutilayotgan strategik ahamiyatga ega bo'lmagan xo'jalik jamiyatlari yagona ro'yxati shakllantirilishi va yuritilishini ta'minlasin.

18. O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi, Tashqi ishlar vazirligi, O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, shuningdek O'zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalari bilan birgalikda 2019-yil 10-iyulga qadar xalqaro ishbilarmonlik doiralarda istiqbolli investitsiya loyihalari, shu jumladan ustav kapitalidagi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining aksiyalar (ulushlar)

paketlarini sotish nazarda tutilayotgan xo'jalik jamiyatlari, davlat-xususiy sheriklik loyihalarining taqdimotlarini ("Road Show") o'tkazish grafigini tasdiqlasin va yil davomida amalga oshirsin.

19. Belgilansinki, 2019-yil 1-martdan boshlab bolalikdan nogironligi bo'lgan farzandi bor onalarga, ular pensiya yoshiga to'lgandan so'ng, agar ularda pensiya tayinlash uchun zarur staj mavjud bo'lmasa, ijtimoiy nafaqa to'lanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bir oy muddatda ushbu bandeda belgilangan ijtimoiy nafaqa miqdorini va uni to'lash tartibini nazarda tutuvchi hukumat qarorini qabul qilsin.

20. Band bo'lmagan aholini, ayniqsa, yoshlarni mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblarga o'qitish, shuningdek kasbiy malakalar berish va tasdiqlashning umummilliy tizimini joriy etish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining 2019-yildagi ustuvor vazifasi hisoblansin.

Belgilansinki, fuqarolar, ayniqsa, yoshlar tomonidan o'z malakasini oshirish uchun ta'sirchan rag'batlantiruvchi omillar yaratish, shu jumladan Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tuzilmasiga kiruvchi kasb-hunar kollejlari negizida davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida band bo'lmagan aholi va ishsiz fuqarolar uchun o'qitish markazlarini tashkil etish hisobiga zamonaviy o'quv va ishlab chiqarish texnologiyalariga tayangan kasbga o'qitishni yo'lga qo'yish va kasbiy malakani baholashni nazarda tutuvchi kasbiy malakalar umummilliy tizimini joriy etishga asosiy e'tibor qaratilishi lozim.

21. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi mamlakatda kasbiy ta'lim berishning zamonaviy tizimini joriy qilish va rivojlantirish bo'yicha Davlat dasturida nazarda tutilgan vazifalarni ro'yobga chiqarish maqsadida bir oy muddatda ishchi kasblar nufuzini yuksaltirish va kasbiy ta'limni rivojlantirish bo'yicha xalqaro harakatga qo'shilishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishini ta'minlasin.

22. Belgilansinki, 2019/2020 o'quv yilidan boshlab:

oliy ta'lim muassasalariga hujjatlarni davlat xizmatlari markazlari orqali qabul qilish tartibi bosqichma-bosqich joriy etiladi;

muddatli harbiy xizmatni o'tagan va harbiy qismlar qo'mondonligining tavsiyanomasiga ega shaxslardan iborat abituriyentlar uchun oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun ushbu shaxslar o'rtasida o'tkaziladigan tanlov asosida alohida kvotalar ajratish tartibi kiritiladi.

23. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi 2019-yil 1-martga qadar:

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hamda Iqtisodiyot va sanoat vazirligi bilan birgalikda oliy ta'lim muassasalari tomonidan talabalarni qabul qilish kvotalarini iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning istiqboldagi ehtiyojlarini, shuningdek muassasalarning kadrlarni sifatli tayyorlashni tashkil etish imkoniyatlarini hisobga olgan holda mustaqil ravishda belgilash tartibini tasdiqlasin va ushbu tartib 2019/2020-yildan tatbiq etilishini nazarda tutsin;

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan birgalikda xorijiy diplomlarning ekvivalentligini tasdiqlashdagi sun'iy to'siqlarni bartaraf etish va ularni tan olish jarayonini optimallashtirish bo'yicha takliflar kiritilsin.

24. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Bosh prokuratura, Davlat xavfsizlik xizmati, Adliya vazirligi va boshqa manfaatdor idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda quyidagilarni nazarda tutuvchi qonun loyihasini Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga kiritilsin:

O'zbekiston Respublikasida bo'lish qoidalarini buzish bilan bog'liq jinoyatlarni liberallashtirish;

O'zbekiston Respublikasida bo'lish qoidalarini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik choralarini differentsiatsiya qilish, ushbu toifadagi ishlarning vakolatli davlat organlari tomonidan tezkor ko'rib chiqilishini ta'minlash.

25. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari, O'zbekiston yoshlar ittifoqi, "Taraqqiyot strategiyasi" markazi, Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti, O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi, Elektron ommaviy

axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi va keng jamoatchilikning quyidagi takliflariga rozilik berilsin:

a) “Yuksalish” umummilliy harakati — nodavlat notijorat tashkiloti hamda uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida hududiy bo‘linmalarini tashkil etish;

b) rejalashtirilgan islohotlarni, shu jumladan Davlat dasturida nazarda tutilgan islohotlarni amalga oshirishga ko‘maklashish maqsadida fuqarolar, xorijda yashayotgan vatandoshlar va nodavlat notijorat tashkilotlarni ixtiyoriylik asosida birlashtirishni “Yuksalish” umummilliy harakatining asosiy vazifasi etib belgilash, shu jumladan quyidagilar orqali birlashtirish:

 xalq va biznes hamjamiyati bilan ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yish;

 jamoatchilik nazoratining samarali tizimini shakllantirish;

 davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari, shuningdek fuqarolar, ayniqsa, yoshlarning sa’y-harakatlari va kuchlarini safarbar etish;

 rejalashtirilgan, shu jumladan Davlat dasturida nazarda tutilgan islohotlarning amalga oshirilishi jarayonini O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari va xalq deputatlari mahalliy kengashlarida muhokama qilishda faol ishtirok etish;

 O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga tahliliy axborot va takliflarni muntazam kiritish;

v) Umummilliy harakat rahbarini O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari orasidan, hududiy bo‘linmalar rahbarlarini xalq deputatlari mahalliy kengashlari deputatlari orasidan saylash, ular bir vaqtning o‘zida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimining maslahatchisi hisoblanadi.

 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ikki hafta muddatda “Yuksalish” umummilliy harakati faoliyatini tashkil etish bo‘yicha hukumat qarorini qabul qilsin.

26. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi “Yuksalish” umummilliy harakati va “Taraqqiyot strategiyasi” markazi bilan birgalikda:

 Davlat dasturi amalga oshirilishining borishini tizimli monitoring qilish, uni sifatli va o‘z vaqtida bajarish uchun qo‘shimcha choralar ko‘rish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

 Davlat dasturi amalga oshirilishining borishi to‘g‘risidagi axborotni har oyda umumlashtirish hamda yakunlarini aniq ko‘rsatkichlar va erishilgan ijobiy o‘zgarishlarni aks ettirgan holda o‘z veb-saytlarida joylashtirish;

 monitoring natijalari to‘g‘risidagi axborotni har chorakda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritish;

 Davlat dasturini amalga oshirish yakunlariga bag‘ishlangan axborot-tahliliy sharhlarni tayyorlash, ularni xorijiy tillarda e‘lon qilish va keng tarqatishni ta‘minlasin.

Oldingi tahrirga qarang.

27. O‘zbekiston Milliy axborot agentligi, O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi Xalqaro press-klub, O‘zbekiston mustaqil bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklarini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi, Elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi, O‘zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi bilan yaqin hamkorlikda:

(27-bandning birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-dekabrda PF-5892-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 11.12.2019-y., 06/19/5892/4134-son)

 ushbu Farmonning maqsad va vazifalari ommaviy axborot vositalari va Internet tarmog‘ida keng tushuntirilishini;

 Davlat dasturi amalga oshirilishining borishi to‘g‘risidagi xolis va to‘liq ma‘lumotning keng jamoatchilikka tezkorlik bilan yetkazilishini ta‘minlasin.

28. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi boshqa manfaatdor idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o‘zgartish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

29. Ushbu Farmonning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Z.Sh. Nizomiddinov va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchilari zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2019-yil 17-yanvar,
PF-5635-son

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi PF-5635-son Farmoniga
1-ILOVA

2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”da amalga oshirishga oid

DAVLAT DASTURI

T/ r	Amalga oshiriladigan tadbir	Bajarish muddati	Ijro uchun mas'ullar	Sarf-xarajalar	Moliyalashtirish manbalari	Taqdim etiladigan hujjat shakli, amalga oshirish mexanizmi, kutilayotgan natija
I. DAVLAT VA JAMIYAT QURILISHI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI						
1.1. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish						

1.	Oliy Majlis palatalarining norma ijodkorligi va parlament nazorati yoʻnalishidagi faoliyatini kuchaytirish va samaradorligini oshirish.	2019-yil 1-mart	Oliy Majlis palatalari (kelishuv asosida), Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari instituti	—	—	Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari. Loyihalarda: qonunlarning mukammalligini taʼminlash maqsadida Oliy Majlis palatalari yuridik xizmatlari negizida Yuridik boshqarmalar tashkil etish, ularning shtat birligini koʻpaytirish; toʻgʻridan toʻgʻri amal qiluvchi qonun qabul qilish jarayonini faollashtirish maqsadida Oliy Majlis Senati yalpi majlislarini zaruratga qarab, lekin yiliga kamida olti marta oʻtkazish; davlat va xoʻjalik boshqaruvi organlari rahbarlari axborotini eshitish boʻyicha yillik reja-grafik tasdiqlash; Bosh vazir va hukumat aʼzolarining davlat dasturi ijrosi boʻyicha Oliy Majlis palatalari oldida har chorakda hisobot berish amaliyotini joriy etish; parlament aʼzolarining har oy oxirgi haftasida oʻz saylov okrugiga chiqib, aholi va saylovchilarni
----	--	--------------------	---	---	---	--

2.	Vazirlar Mahkamasi a'zolarini Oliy Majlis, viloyat, tuman va shahar davlat organlari rahbarlarini tegishli xalq deputatlari Kengashlari tomonidan tasdiqlash amaliyotini joriy etish.	2019-yil 1-mart	Oliy Majlis palatalari (kelishuv asosida), Vazirlar Mahkamasi, vazirlik va idoralar	—	—	O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi. Loyihada: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlariga Bosh vazir o'rinbosarlari, vazirlar va davlat qo'mitalari raislari nomzodini Bosh vazir taqdimiga binoan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan ma'qullash va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlash tartibini belgilash bilan bog'liq o'zgartish va qo'shimchalarni kiritish; hukumat a'zoriga nomzodning sohani rivojlantirish bo'yicha yaqin muddatga va istiqbolga mo'ljallangan harakat dasturi bilan deputatlar oldida chiqish qilish tartibini joriy etish; hukumat a'zosining o'z harakat dasturi ijrosini amalga oshirishiga doir masalalar yuzasidan axborotini Oliy Majlis palatalari, ularning qo'mitalarida
----	--	--------------------	---	---	---	--

3.	Oliy Majlisning Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari ustidan parlament nazoratini amalga oshirishdagi axborot-tahliliy faoliyatini takomillashtirish.	2019-yil 1-aprel	Oliy Majlis palatalari (kelishuv asosida), Vazirlar Mahkamasi, Moliya vazirligi	Hisob-kitoblar ga asosan	Davlat budjeti mablag'lari	Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari. Loyihalarda: Oliy Majlis Qonunchilik palatasida davlat budjeti, iqtisodiyot, pul-kredit siyosati masalalarida, shuningdek davlat budjeti ijrosi ustidan samarali parlament nazoratini ta'minlashda deputat va senatorlarga professional, mustaqil va xolis axborot-tahliliy, ekspertlik xizmati ko'rsatuvchi Davlat budjeti boshqarmasini tashkil etish; Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Davlat budjeti boshqarmasiga yuqori malakali kadrlarni jalb qilish, 2019-yilda boshqarmaning joriy ta'minoti, xodimlar mehnatiga haq to'lashga mablag'lar ajratish nazarda tutiladi.
----	---	------------------	--	--------------------------	----------------------------	--

4.	Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini yaratish.	2019-yil 1-aprel	Oliy Majlis palatalari (kelishuv asosida), Vazirlar Mahkamasi, Bosh prokuratura, IIV, DXX, Adliya vazirligi, vazirlik va idoralar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	—	—	Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari. Loyihalarda: Oliy Majlis palatalarida korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mtalarini tashkil qilish; har bir davlat tashkilotida jamoatchilik tomonidan nazorat qilinadigan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki dasturlarni ishlab chiqish; korrupsiyaga olib kelishi mumkin bo‘lgan har qanday xizmatlarni raqamlashtirish, ularni “yagona darcha” tamoyili asosida berish va davlat xizmatlari markazlariga o‘tkazish; fuqarolarning murojaatlaridan kelib chiqib va korrupsiyaga sharoit yaratuvchi holatlarni o‘rgangan holda, ularni bartaraf etishga qaratilgan takliflar ishlab chiqish mexanizmlari; korrupsiya holatlarini aniqlashga yordam ko‘rsatuvchi “xolis fuqaro” tizimini joriy etish, bunda jamoatchilik nazorati va
----	---	------------------	--	---	---	---

5.	Qonunchilik bazasini tizimlashtirish, to‘g‘ridan to‘g‘ri ishlaydigan qonunlarni qabul qilish amaliyotini joriy etish.	2019-yil 1-mart	Oliy Majlis palatalari (kelishuv asosida), Adliya vazirligi, Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari instituti	—	—	Oliy Majlis palatalarining qo‘shma qarori loyihasi. Loyihada: amaliyotdagi muammolarni tanqidiy o‘rganish va eng ilg‘or xorijiy tajribalar asosida to‘g‘ridan to‘g‘ri ishlaydigan qonunlar tayyorlashni ta’minlovchi qonun hujjatlarini yuridik-texnik jihatdan rasmiylashtirishning yagona uslubiyotini; qonunosti hujjatlarni qisqartirib, ularning o‘rniga to‘g‘ridan to‘g‘ri ishlaydigan qonunlarni qabul qilish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni tasdiqlash nazarda tutiladi.
----	--	--------------------	--	---	---	---

6.	Qonun hujjatlarini tayyorlash va qabul qilish ning huquqiy asoslarini takomillashtirish.	2019-yil 1-mart	Adliya vazirligi, Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari instituti	—	—	“Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonunning yangi tahrirdagi loyihasi. Loyihada: qonun hujjatlarini qabul qilish asosi va tartibga solish predmetini aniq belgilash, bunda fuqarolarning huquq va manfaatlariga daxldor masalalar yuzasidan idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilishni cheklash; vazirlik va idoralar tomonidan tayyorlangan qonun loyihalarining to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qiluvchi qonun talablariga mosligi, normalarni amalga oshirish mexanizmlariga ega ekanligi nuqtai-nazaridan baholash majburiyatini Adliya vazirligiga yuklash; qonun hujjatlari loyihalarini kelishish tartibini takomillashtirish; to‘g‘ridan to‘g‘ri amalga oshirish mexanizmiga ega bo‘lmagan qonun loyihalarini kiritishni taqiqlash;
----	---	--------------------	--	---	---	---

7.	Oliy Majlis faoliyatini moliyaviy, moddiy-texnik, tashkiliy ta'minlashni takomillashtirish.	2019-yil 1-mart	Oliy Majlis palatalari (kelishuv asosida), Prezident Administratsiyasi , Vazirlar Mahkamasi	Hisob-kitoblar ga asosan	Davlat budjeti mablag'lari	Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari. Loyihalarda: Oliy Majlis palatalari qo'mitalari huzurida ular faoliyatiga bevosita yordam beradigan tegishli tuzilmalar tashkil etish; parlament a'zolari va parlament palatalari devoni xodimlari mehnatiga haq to'lash tizimini qayta ko'rib chiqish; Oliy Majlis budjetini shakllantirish va ijro etishning yangi mexanizmlarini joriy qilish; parlament delegatsiyalarini ng xorijiy mamlakatlarga tashriflarini va chet el delegatsiyalarini qabul qilishni tashkil etish hamda shu maqsadlar uchun davlat budjetidan ajratiladigan mablag'larni sarflash masalasini Oliy Majlis palatalarining tegishli qarori bilan belgilash tartibini joriy qilish nazarda tutiladi.
----	--	--------------------	--	--------------------------------	-------------------------------	---

8.	Hokimiyat vakillik organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlashga qaratilgan "Elektron parlament" tizimi loyihalarini amalga oshirish.	2019-yil 1-fevral	Oliy Majlis palatalari (kelishuv asosida), Prezident Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi	Hisob-kitoblar ga asosan	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasi	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: vakillik organlarining rasmiy veb-saytining namunaviy shaklini, faoliyat to'g'risidagi ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan holda to'plash va qayta ishlash imkonini ta'minlab beruvchi axborot resursini shakllantirish; Oliy Majlis palatalarida elektron hujjatlar aylanishi tizimini, qonun ijodkorligi faoliyatini avtomatlashtirish jarayonlarini ishlab chiqish va joriy etish; Oliy Majlis Qonunchilik palatasida parlamentga axborot-tahliliy xizmat ko'rsatadigan Axborot-multimedia markazini tashkil etish nazarda tutiladi.
----	---	-------------------	--	--------------------------	---	--

9.	Fuqarolarning saylovga oid huquqlarini ta'minlashni takomillashtirish.	2019-yil 1-fevral	Markaziy saylov komissiyasi, Oliy Majlis palatalari (kelishuv asosida), ??? dliya vazirligi, Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari instituti, IIV	—	—	Chora-tadbirlar rejasi. Rejada: ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslarga saylash huquqini berish bo'yicha xalqaro va xorijiy tajribani o'rganish; istiqbolda ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslarga sodir etgan jinoyatiga qarab saylash huquqini berish, qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha aniq takliflarni ishlab chiqish; ushbu masala bo'yicha keng targ'ibot va tushuntirish ishlarini olib borish nazarda tutiladi.
1.2. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish						

10	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va uning tarkibiga kiruvchi idoralar faoliyatini tubdan takomillashtirish.	2019-yil 1-aprel	Prezident Administratsiyasi , Vazirlar Mahkamasi	—	—	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari loyihalari. Loyihalarda: Vazirlar Mahkamasi faoliyatining samaradorligini oshirish bo'yicha asosiy yo'nalishlarni belgilash; Bosh vazir o'rinbosarlarining bir vaqtning o'zida aksiyadorlik jamiyati va kompaniyalari hamda davlat ulushi mavjud boshqa tashkilotlarga rahbarlik qilish amaliyotini bekor qilish hamda ularning sonini optimallashtirish; Bosh vazir maslahatchisi lavozimini joriy qilish; Vazirlar Mahkamasining axborot-tahlil departamentlari, shu jumladan Yig'ma axborot-tahlil departamenti faoliyatini tugatish; Bosh vazir o'rinbosarlari va Bosh vazir maslahatchilari kotibiyatlarini tashkil qilish; O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasi doirasida amalga
----	---	------------------	--	---	---	---

11	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari faoliyatini takomillashtirish.	Yil davomida	Prezident Administratsiyasi, Adliya vazirligi, Moliya vazirligi, Bosh prokuratura	Hisob-kitoblariga asosan	Davlat budjeti mablag'lari	Amaliy chora-tadbirlar. Bunda: jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini ko'rib chiqish tizimini yanada takomillashtirish; murojaatlarni ko'rib chiqish natijasiga ko'ra, tizimli muammolarni bartaraf etishga qaratilgan takliflarni ishlab chiqish; Xalq qabulxonalari vazifa va funksiyalarining to'liq bajarilishini ta'minlash ishlari amalga oshiriladi.
----	--	--------------	---	--------------------------	----------------------------	--

12	Davlat boshqaruvida ilg'or davlat menejmenti va “aqlli” boshqaruv prinsiplariga bosqichma-bosqich o'tish.	2019-yil 1-avgust	Davlat boshqaruvi akademiyasi, Adliya vazirligi, Loyiha boshqaruvi milliy agentligi, Mehnat vazirligi	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda, davlat organlarida professional boshqaruvchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini joriy qilish; davlat muassasalari faoliyatini bevosita fuqarolar bilan ishlashga ixtisoslashtirish; davlat organlarining “Xalqqa — ko'makchi, tadbirkorlarga — biznes hamkor” sifatida faoliyat ko'rsatishini yo'lga qo'yish; davlat va xo'jalik boshqaruvida strategik menejment hamda risk menejmentining ilg'or instrumentlari (usullari)ni o'rgatish; rahbar faoliyati natijalariga doimiy ravishda baho berish tizimini yaratish nazarda tutiladi.
----	---	-------------------------------	--	---	---	---

13	Davlat boshqaruvining zamonaviy usullarini kengaytiri❖.	2019-yil 1-sentabr	Adliya vazirligi, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Mehnat vazirligi, Madaniyat vazirligi, vazirlik va idoralar	—	—	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi. Loyihada: autsorsing, kraudsorsing va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini qo'llash orqali xususiy sektorga o'tkaziladigan davlat organlarining vazifa va funksiyalari ro'yxati; autsorsing, kraudsorsing va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini qo'llash orqali vazirlik va idoralarning shtatlar sonini qayta ko'rib chiqish va samarasiz shtat birliklarini qisqartirish nazarda tutiladi.
----	---	--------------------	--	---	---	--

14	Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga malakali mutaxassislarni jalb etishga qaratilgan yagona kadrlar siyosatini shakllantirish.	2019-yil 1-oktabr	Prezident Administratsiyasi, Mehnat vazirligi, Adliya vazirligi, Moliya vazirligi, vazirlik va idoralar	—	—	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni va qarori loyihalari. Loyihalarda: davlat va xo'jalik boshqaruvi hamda mahalliy hokimiyat organlarini yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish; davlat organlari va tashkilotlarining kadrlar bilan ishlash bo'linmalari faoliyatini isloh qilish; kadrlarni tanlashning samarali shakllari va uslublarini joriy qilish; davlat xizmatida kadrlarni markazlashtirilgan holda saralash, ularni tayyorlash, qayta tayyorlash va faoliyatini monitoring qilish tartibi; yangi tayinlangan rahbar kadrlarni, vazir va hokimlarni o'qitish, malakasini oshirish tizimini takomillashtirish; davlat xizmatchilarining faoliyatiga oid huquq va majburiyatlarini ishlab chiqish nazarda tutiladi.
----	---	-------------------	---	---	---	--

15	Zamonaviy davlat boshqaruvini bosqichma-bosqich joriy qilish.	2019-yil 1-oktabr	Adliya vazirligi, Mehnat vazirligi, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, vazirlik va idoralar	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: davlat xizmatchilari faoliyati samaradorligini baholashning mezonlari va uslublari hamda samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlarini (KPI) joriy qilish; mehnatga haq to‘lashning zamonaviy tizimini yaratish. Bunda oylik ish haqini davlat xizmatchisi tomonidan qilinayotgan ishlar, ularning natijadorligi, sifati, murakkabligi, amaliyotda to‘g‘ri ishlayotganligi va boshqa mezonlardan kelib chiqib belgilash; mehnatga haq to‘lashning zamonaviy tizimini yaratish evaziga ijtimoiy himoya va qayta tayyorlash choralari ko‘rgan holda davlat xizmatchilarining sonini qisqartirish; vazirlik va idoralarning, ayniqsa, iqtisodiyot kompleksiga kirgan tashkilotlarning takrorlanayotgan
----	--	-------------------	---	---	---	---

16	Davlat idoralari xodimlarini qisqa va o'rta muddatli o'quv kurslarida o'qitish tizimini joriy etish.	2019-yil 1-sentabr	Davlat boshqaruvi akademiyasi, Vazirlar Mahkamasi, "El-yurt umidi" jamg'armasi	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlaridagi rahbarlik lavozimlariga kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish; Davlat boshqaruvi akademiyasidagi o'quv dasturlari miqdorini vazirlik va idoralar xususiyatidan kelib chiqib kamida 30 tagacha yetkazish; rahbarlik lavozimlariga zaxiraga olingan, izlanuvchan, iste'dodli xodimlarning rivojlangan xorijiy davlatlarda malaka oshirish va ilg'or tajribani o'zlashtirish tizimini takomillashtirish; "El-yurt umidi" jamg'armasida respublika bo'yicha davlat organlari ehtiyoji uchun xorijda ta'lim olishi lozim bo'lgan istiqbolli kadrlar haqidagi ma'lumotlar bazasini
----	--	--------------------	--	---	---	--

17	Tarmoqlar faoliyatini samarali boshqarishda strategik tahlil, rejalashtirish va prognoz tamoyillariga asoslangan uzoq muddatli davlat siyosati konsepsiyasini ishlab chiqish.	2019-yil 1-noyabr	Prezident Administratsiyasi , Vazirlar Mahkamasi, Adliya vazirligi, Mehnat vazirligi, vazirlik va idoralar	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: strategik rejalashtirish mexanizmlari; belgilangan shtatlar doirasida vazirlik va idoralarda strategik tahlil va prognozlashtirish tuzilmalarini tashkil etish nazarda tutiladi.
18	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Ekspert kengashi faoliyatini tashkil etish.	2019-yil 1-aprel	Vazirlar Mahkamasi, Loyiha boshqaruvi milliy agentligi	—	—	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi. Loyihada: Ekspert kengashiga muvaffaqiyatga erishgan tadbirkorlarni, taniqli davlat va jamiyat arboblarni, olimlarni, shu jumladan xorijiy davlatlarning fuqarolarini hamda chet elda yashayotgan vatandoshlarimizni kiritgan holda uning tarkibini; O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ekspert kengashi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash nazarda tutiladi.

19	Davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari faoliyatini aniq chegaralash, xo'jalik boshqaruvi organlarining davlat-huquqiy vakolatlarini cheklash.	2019-yil 1-oktabr	Adliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Mehnat vazirligi, vazirlik va idoralar	—	—	Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari. Loyihalarda: davlat va xo'jalik faoliyati, davlat-huquqiy vakolatlar kabi huquqiy tushunchalarni aniq belgilash; xo'jalik boshqaruvi organlaridan bosqichma-bosqich voz kechish, boshqaruv va tijorat funksiyalarini ajratish; xo'jalik boshqaruvi organlarining, davlat organlari huzuridagi xo'jalik boshqaruvi vazifasi mavjud tuzilmalarning nazorat va tartibga solish vazifalarini tegishli vazirlik va idoralarga o'tkazish hamda xo'jalik faoliyatini boqor mexanizmi asosida amalga oshirish; o'z vazifalarini xo'jalik faoliyati bilan qo'shib bajarib kelayotgan davlat boshqaruvi organlari va davlat-hokimiyat vakolatlari berilgan xo'jalik boshqaruvi organlarini xatlov o'tkazish
----	--	-------------------	--	---	---	---

20	Energetika sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish.	2019-yil 1-fevral	Vazirlar Mahkamasi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Moliya vazirligi, Adliya vazirligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Mehnat vazirligi, “O‘zdavenergona zorat”, “O‘zdavneftgaz-inspeksiya” davlat inspeksiyalari, “O‘zbekneftgaz” AJ, “O‘zbekenergo” AJ	—	—	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni loyihasi. Loyihada: energetika, jumladan elektr energiya, neft va gaz sohasini davlat tomonidan boshqarish bo‘yicha yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi organi tashkil etish; energetika sohasida “O‘zbekenergo” AJ, “O‘zbekneftgaz” AJ, “O‘zbekgidroenergo” AJdan davlat-hokimiyat vakolatlarini energetika sohasida yangi tashkil etiladigan davlat boshqaruvi organiga o‘tkazish nazarda tutiladi.
----	--	-------------------	---	---	---	--

21	Transport sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish.	2019-yil 20-fevral	Vazirlar Mahkamasi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Moliya vazirligi, Adliya vazirligi, Mehnat vazirligi, Avtomobil transporti agentligi, “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ, “O‘zbekiston havo yo‘llari” MAK	—	—	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni loyihasi. Loyihada: transport, jumladan havo, temir yo‘l, avtomobil transporti va metropoliten sohasini davlat tomonidan boshqarish bo‘yicha yagona davlat tarif siyosatini amalga oshiruvchi davlat organini tashkil etish; transport sohasida “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ va “O‘zbekiston havo yo‘llari” MAKdan davlat-hokimiyat vakolatlarini transport sohasidagi yangi davlat boshqaruv organiga berish; transport sohasida davlat-xususiy sheriklikni joriy etish nazarda tutiladi.
----	---	--------------------	---	---	---	---

22	Hududlarni obodonlashtirish tizimini yanada takomillashtirish.	2019-yil 1-mart	Vazirlar Mahkamasi, Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi, Qurilish vazirligi, Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, vazirlik va idoralar	—	—	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi. Loyihada: hududlarni obodonlashtirish sohasida davlat boshqaruvini isloh qilish, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy qilish, sohaga oid qonun hujjatlarini, yangi standartlar va shaharsozlik normalarini ishlab chiqish; obodonlashtirish organlarining ishini optimallashtirish va ularning resurslaridan oqilona foydalanish maqsadida sohaga axb✎rot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish; hududlarni obodonlashtirish ishlari samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish; jismoniy va yuridik shaxslarga ularga biriktirilgan yer uchastkalarini obodonlashtirish majburiyatini belgilash nazarda tutiladi.
----	--	-----------------	--	---	---	---

23	Alkogolli va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish va savdo qilish sohasida davlat nazoratini takomillashtirish.	2019-yil 1-fevral	Vazirlar Mahkamasi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Moliya vazirligi, Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi, Mehnat vazirligi, "O'zsharobsanoat" AJ	—	—	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni va qarori loyihalari. Loyihalarda: alkogolli va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish va savdo qilish sohasini davlat tomonidan samarali monitoring qilish bo'yicha yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi organni tashkil etish; alkogolli va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali "ikkilamchi mahsulot" ishlab chiqarishning oldini olish; alkogolli mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilarga qo'yilayotgan litsenziya talablarini qayta ko'rib chiqish nazarda tutiladi.
----	---	-------------------	--	---	---	---

24	Davlat unitar korxonalari sonini optimallashtirish.	2019-yil 1-may	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Adliya vazirligi, Moliya vazirligi, Mehnat vazirligi, vazirlik va idoralar	—	—	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni loyihasi. Loyihada: davlat unitar korxonalarini xatlovdan o'tkazish asosida raqobat mavjud sohalarda faoliyat yurituvchi va samaradorligi past davlat unitar korxonalarini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish; autsorsing mexanizmlarini qo'llash orqali ularni tugatish nazarda tutiladi.
25	Davlatning iqtisodiy faoliyatdagi ishtirokining aniq chegaralarini belgilash.	2019-yil 1-iyun	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Adliya vazirligi, Moliya vazirligi, vazirlik va idoralar	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada raqobat mavjud iqtisodiyot sohalarida davlat ishtirokining aniq chegaralari nazarda tutiladi.

26	Davlat-hokimiyat vakolatlari berilgan idoralararo kollegial organlar (komissiyalar, kengashlar, ishchi guruhlar va boshqalar)ni yanada qisqartirish.	2019-yil 1-oktabr	Adliya vazirligi, Mehnat vazirligi, vazirlik va idoralar	—	—	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi. Loyihada: idoralararo kollegial organlar (komissiyalar, kengashlar, ishchi guruhlar va boshqalar)ning vazifa, funktsiya va vakolatlarini tahlil qilish hamda samaradorligini baholash; samarasiz faoliyat yuritayotgan 150 dan ortiq idoralararo kollegial organlarning vazifa va funksiyalarini vakolatli organlarga o'tkazish orqali ularning sonini yanada qisqartirish nazarda tutiladi.
----	--	-------------------	--	---	---	--

27	Toshkent shahrida eksperiment tariqasida amalga oshirilayotgan davlat boshqaruvining yangi tartibini respublikaning boshqa hududlariga joriy etish.	2019-yil 1-iyul	Adliya vazirligi, Oliy Majlis palatalari (kelishuv asosida), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Mehnat vazirligi	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: xalq deputatlari Kengashlarining kotibiyatini tuzish; hokimlar boshqaruv apparatlari negizida hokim tomonidan tuziladigan hokimliklar devonlarini tashkil etish; hududiy moliya, iqtisodiyot, qurilish, uy-joy kommunal va investitsiya boshqarmalari rahbarlarini tayinlash vakolatini hokimlarga berish; samarasiz davlat unitar korxonalari, hududiy idoralararo komissiyalar va kengashlarni tugatish; mahalliy budjetga tushumlar ajratmalarini qayta taqsimlash; davlat ulushi mavjud bozor va savdo komplekslarini ishonchli boshqaruvga berish nazarda tutiladi.
----	---	-----------------	--	---	---	--

28	Hokimning xalq deputatlari Kengashi raisi sifatidagi maqomini bekor qilish.	2019-yil 1-mart	Oliy Majlis palatalari (kelishuv asosida), Vazirlar Mahkamasi, Adliya vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	—	—	Chora-tadbirlar dasturi. Dasturda: hokimning xalq deputatlari Kengashi raisi sifatidagi maqomini bekor qilish bilan bog‘liq masalalar; ushbu masala yuzasidan amaldagi qonunlarga tegishli o‘zgartishlar kiritish nazarda tutiladi.
----	---	--------------------	--	---	---	--

30	Davlat va jamiyat boshqaruvida fuqarolarning keng ishtirokini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish.	2019-yil 1-fevral	Oliy Majlis palatalari (kelishuv asosida), Vazirlar Mahkamasi	—	—	Oliy Majlis palatalari qo'shma qarori loyihasi. Loyihada “Mening fikrim” maxsus veb-portali orqali elektron jamoaviy murojaatlarni Oliy Majlis palatalari, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari bilan bir qatorda Vazirlar Mahkamasi tomonidan ham ko'rib chiqish nazarda tutiladi.
31	O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasini isloh qilish.	2019-yil 1-mart	Prezident Administratsiyasi , Vazirlar Mahkamasi	—	—	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi. Loyihada O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining mavqeyini qayta ko'rib chiqish, kompaniya boshqaruviga bozor mexanizmlarini joriy etish va sohada sog'lom raqobat muhitini yaratish nazarda tutiladi.

32	Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining moliyaviy asoslarini takomillashtirish.	2019-yil 1-fevral	Vazirlar Mahkamasi, Adliya vazirligi, Moliya vazirligi	—	—	Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi. Loyihada fuqarolar yig'inlari tomonidan aholi va tashkilotlardan ixtiyoriylik asosida mablag'larni jalb etishning samarali mexanizmlarini joriy etish nazarda tutiladi.
----	--	-------------------	--	---	---	---

33	Jamiyat va davlat oldida turgan ijtimoiy vazifalarni hal etishda ijtimoiy sheriklik institutini keng joriy etish.	2019-yil 1-oktabr	Vazirlar Mahkamasi, Adliya vazirligi, Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti	—	—	Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari. Bunda: ijtimoiy sheriklikning amaldagi “davlat + fuqarolik jamiyati institutlari” mexanizmini “davlat + fuqarolik jamiyati institutlari + tadbirkorlik subyektlari” mexanizmiga o‘zgartirish; ijtimoiy sheriklikni amalga oshirishda ishtirok etadigan tadbirkorlik faoliyati subyektlariga imtiyozlar berish; respublika davlat boshqaruvi organlarining har yili budjetdan tashqari mablag‘lari xarajatlari smetasida davlat ijtimoiy buyurtmasini berish uchun majburiy tartibda mablag‘lar ajratishi; ijtimoiy sheriklik bo‘yicha jamoat komissiyasi a‘zolarini moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish choralari ko‘rish nazarda tutiladi.
----	---	-------------------	--	---	---	--

34	Jamiyat va davlat hayotida reklama faoliyatining rolini yanada oshirish.	2019-yil 1-sentabr	Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi, Adliya vazirligi, vazirlik va idoralar	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: mamlakatimizda reklama faoliyatini yanada takomillashtirish; reklama beruvchi, tayyorlovchi va tarqatuvchilarning ushbu sohadagi mas’uliyati va javobgarligini oshirish; ommaviy axborot vositalariga reklama berishda raqobat muhitini rivojlantirish choralarini ko‘rish; reklamadan foydalanuvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish nazarda tutiladi.
II. QONUN USTUVORLIGINI TA’MINLASH VA SUD-HUQUQ TIZIMINI YANADA ISLOH QILISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI						
2.1. Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta’minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish						

35	“Xalqaro tijorat arbitraji to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini ishlab chiqish.	2019-yil 1-fevral	Vazirlar Mahkamasi, Savdo-sanoat palatasi, Adliya vazirligi, Oliy sud	—	—	O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi. Loyihada arbitr sifatida xorijiy mutaxassislarni jalb qilish va xorijiy mamlakatlar qonunchiligini qo‘llash, nizolarni xalqaro arbitraj orqali ko‘rib chiqishning huquqiy asoslari nazarda tutiladi.
----	---	-------------------	---	---	---	---

36	Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlarda faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarning malakasini oshirish.	2019-yil 1-aprel	Adliya vazirligi, Sudyalar oliy kengashi, Oliy sud, Konstitutsiyaviy sud, Bosh prokuratura, DXX	—	—	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi. Loyihada sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlarda uzoq muddat davomida (5 yil va undan ortiq) benuqson faoliyat ko'rsatayotgan o'rta va o'rta maxsus ma'lumotli yoki boshqa mutaxassislik bo'yicha oliy ma'lumotga ega xodimlarni keyinchalik mazkur organda kamida 5 yil ishlab berish sharti bilan imtiyozli ravishda shartnoma asosida sirtqi bo'limlarda oliy yuridik ta'lim muassasalariga qabul qilish va maqsadli tayyorlash tizimini joriy etish nazarda tutiladi.
----	--	---------------------	---	---	---	---

40	Restoran, kafe va boshqa ko'ngilochar obyektlar da huquq-tartibot va jamoat xavfsizligini ta'minlash talablarini o'rnatgan holda ularning tungi paytda ishlash tartibini belgilash.	2019-yil 10-fevral	IIV, Bosh prokuratura, Davlat soliq qo'mitasi, Milliy gvardiya, Adliya vazirligi	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada restoran, kafe va boshqa ko'ngilochar obyektlarda huquq-tartibot va jamoat xavfsizligini ta'minlash talablari, ushbu ko'ngilochar obyektlarning tungi paytda ishlash tartibi nazarda tutiladi.
----	--	--------------------	--	---	---	--

41	Fuqarolarga pasport xizmati ko'rsatish tizimini soddalashtirish.	2019-yil 10-sentabr	IIV, DXX, Bosh prokuratura, Adliya vazirligi	—	—	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi. Loyihada: tuman, shahar migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish xizmatlaridagi O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini turgan joyi bo'yicha hisobga olish, O'zbekiston Respublikasining boshqa viloyatlaridan kelgan fuqarolarini doimiy propiska qilish, hudud ichida bir manzildan ikkinchi manzilga o'tgan fuqarolarini doimiy propiska qilish xizmatlarini ularning yashab turgan joylariga yaqin bo'lgan tuman, shahar ichki ishlar bo'limlarida amalga oshirishni yo'lga qo'yish; ushbu xizmatlarni Davlat xizmatlari agentligi tomonidan ham amalga oshirilishi nazarda tutiladi.
----	--	---------------------	--	---	---	--

42	Ilgʻor xorijiy tajriba va xalqaro standartlarni inobatga olib, jazoni ijro etish tizimida shaxsni axloqan tuzatish va jamiyatga ijtimoiy moslashuvini taʼminlash .	2019 -yil 20-noyabr	IIV, DXX, Bosh prokuratura, Adliya vazirligi	—	—	Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari. Loyihalarda: probatsiya xizmati faoliyatining mexanizmlari, mahkumlarga ijtimoiy-huquqiy va psixologik yordam koʻrsatish tartibini joriy etish; mahkumlarni ragʻbatlantirishning adolatli mezonlarini ishlab chiqish; voyaga yetmagan mahkumlarning ota-onasi yoki ularning oʻrnini bosuvchi shaxslar bilan uchrashishga boʻlgan huquqiga nisbatan cheklovlarni bekor qilish; mahkuma ayollarning oʻz farzandlari bilan uchrashishining alohida tartibini belgilash; mahkumlarning uchrashuvlari va telefon orqali soʻzlashuvlari sonini koʻpaytirish, uchrashuvlarni almashtirish tizimi nazarda tutiladi.
2.3. Maʼmuriy, jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchilikni takomillashtirish						

43	Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini tubdan qayta ko'rib chiqish.	2019-yil 1-iyul	Bosh prokuratura, IIV, DXX, Oliy sud, Adliya vazirligi	—	—	O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi. Loyihada: jinoyat qonunchiligi normalarini unifikatsiya qilish; jinoiy javobgarlik va jazo tizimini takomillashtirish; fuqarolar huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarining ta'sirchan va ishonchli muhofaza qilinishini ta'minlash; qonunchilikdagi jazoni og'irlashtirish yoki yengillashtirishga oid normalarni qo'llash jarayonidagi inson omilini bartaraf etish; jinoyat-protsessual qonunchiligi normalarini tizimlashtirish va uyg'unlashtirish; jinoyat-protsessual qonunchilikda yarashuv instituti doirasini kengaytirish nazarda tutiladi.
----	--	-----------------	--	---	---	--

44	O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi kodeksi loyihasini ishlab chiqish.	2019-yil 1-dekabr	Adliya vazirligi, Oliy sud, Bosh prokuratura, IIV, DXX, vazirlik va idoralar	—	—	O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi. Loyihada: amaldagi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksni o'z kuchini yo'qotgan deb topish; ishni ko'rishning protsessual tartibini takomillashtirish; protsess ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini maqbullashtirish; ma'muriy huquqbuzarlikka oid ish yuritish tizimiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish (elektron bayonnoma, elektron ma'muriy ish va boshqalar); jabrlanuvchi arizasiga asosan yuritiladigan ma'muriy huquqbuzarliklarga oid ishlarni tugatish tartibini joriy qilish; ma'muriy jazo choralari tizimini liberallashtirish; jarima jazosini ixtiyoriy ijro etishni rag'batlantirishning differensial tartibini joriy etish; ma'muriy javobgarlikka
----	---	-------------------	--	---	---	--

2.4. Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish

45	Jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida, jumladan fuqarolarning va tadbirkorlik subyektlarining mulkularini himoya qilishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini keng tatbiq etish maqsadida xususiy qo'riqlash xizmatlarining huquqiy asoslarini yaratish.	2019-yil 1-fevral	IIV, Bosh prokuratura, DXX, Moliya vazirligi, Adliya vazirligi	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: nodavlat tashkilotlarga jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli obyektlarda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha qo'riqlash faoliyati bilan shug'ullanish va xizmatlar ko'rsatishga ruxsat berish; qo'riqlanadigan obyektlarda jamoat tartibini ta'minlashda huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan yaqindan hamkorlik qilish zaruratini inobatga olgan holda, nodavlat tashkilotlarning qo'riqlash faoliyati bilan shug'ullanishini litsenziyalash shartlari va talablarini o'rnatish; nodavlat tashkilotlarning qo'riqlash faoliyati bilan shug'ullanish tartibini belgilash; nodavlat qo'riqlash tashkilotlarini xodimlar bilan to'ldirish, ularning kasbiy tayyorgarligi va malakasini oshirish mexanizmlarini
----	---	-------------------	--	---	---	--

46	Profilaktika inspektorlariga ko‘maklashuvchi professional faoliyatni takomillashtirish	2019-yil 20-fevral	IIV, “Mahalla” xayriya jamoat fondi, Bosh prokuratura,	—	—	Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi. Loyihada: profilaktika inspektorlarining jamoat tartibini saqlash bo‘yicha yordamchilari faoliyatini tashkil etish; profilaktika inspektorlarining jamoat tartibini saqlash bo‘yicha yordamchilarining mehnatiga haq to‘lash mexanizmi hamda ularning vazifa va vakolatlarini belgilash; profilaktika inspektorlarining jamoat tartibini saqlash bo‘yicha yordamchilarini tayinlash va ichki ishlar organlari xizmatiga hamda oliy o‘quv yurtlariga o‘qishga qabul qilishda belgilanadigan imtiyozlarning mezonlari nazarda tutiladi.
2.5. Sud-huquq tizimida qonuniylilikni yanada mustahkamlash, huquqiy yordam va yuridik xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish						

47	Toshkent shahrida “Tashkent Law Spring” birinchi xalqaro yuridik forumini o‘tkazish.	2019- yil 20- aprel	Adliya vazirligi, Oliy sud, Bosh prokuratura, vazirlik va idoralar	—	—	Chora- tadbirlar dasturi. Dasturda: O‘zbekistonda qonun hujjatlarini takomillashtirish masalalarini muhokama qilish; mamlakatning investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitiga ijobiy ta’sir qiladigan islohotlarni keng jamoatchilikka namoyish etish; “Yilning eng yaxshi advokati”, “Yilning eng yaxshi advokatlik tuzilmasi” va “Eng yaxshi korporativ yurist” nominatsiyalari bo‘yicha mukofotlarni tashkil etish nazarda tutiladi.
48	Ayrim harakatlar uchun notarial tasdiqlanishi shart bo‘lgan talablarni bekor qilish.	2019- yil 10- noyabr	Adliya vazirligi, Bosh prokuratura, Moliya vazirligi, “Davyergeodezk adastr” qo‘mitasi, Oliy sud, IIV	—	—	Normativ- huquqiy hujjatlar loyihalari. Loyihalarda yaqin qarindoshlar o‘rtasida mol- mulkdan foydalanish uchun ishonchnoma rasmiylashtirishd a notarial rasmiylashtirish haqidagi talabni bekor qilish nazarda tutiladi.

49	O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va chet el fuqarolariga bepul huquqiy maslahat berishga mo'ljallangan "Advice.uz" interaktiv axborot portalini tashkil etish.	2019-yil 30-may	Adliya vazirligi, Bosh prokuratura, Oliy sud, IIV	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada "Advice.uz" interaktiv axborot portalini tashkil etish va uning faoliyat yuritish tartibi nazarda tutiladi.
III. IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH VA FAOL INVESTITSIYA JALB ETISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI						
3.1. Makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish						
50	Iqtisodiyot rivojiga jiddiy turtki beradigan sohalarni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish. To'qimachilik, neft-gaz, elektr energetika, qimmatbaho va rangli metall, avtomobilsozlik va kimyo sohalarida bosqichma-bosqich islohotlarni amalga oshirish.	2019-yil 1-iyul	Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Moliya vazirligi, Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi, Loyiha boshqaruvi milliy agentligi, Mehnat vazirligi, vazirlik va idoralar	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: tabiiy va mehnat resurslari samarali joylashuvidan kelib chiqib, milliy iqtisodiyotning rivojiga jiddiy turtki beradigan sohalarni, jumladan to'qimachilik, neft-gaz, elektr energetika, qimmatbaho va rangli metall, avtomobilsozlik va kimyo sohalarini o'rta muddatda rivojlantirish hamda isloh qilishning asosiy yo'nalish va indikatorlari; mazkur sohalardagi islohotlarni amalga oshirish bo'yicha to'g'ridan to'g'ri choralar nazarda tutiladi.

51	“Xufyona iqtisodiyot” salmog‘ini iqtisodiy usullarni ishlatgan holda qisqartirish.	2019-yil 1-iyun	Davlat soliq qo‘mitasi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Bosh prokuratura, Davlat bojxona qo‘mitasi, Moliya vazirligi, Adliya vazirligi, Markaziy bank, Mehnat vazirligi, “O‘zstandart” agentligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyiha bilan “xufyona iqtisodiyot” omillarini sohalar va tarmoqlar kesimida tahlil qilib, uni kamaytirish yuzasidan chora-tadbirlar dasturi tasdiqlanadi. Dasturda: iqtisodiy faoliyatni legallashtirish yuzasidan normativ-huquqiy asoslarni takomillashtirish; import qilingan tovarlar hisobotlarining elektron tarzda shakllanishini ta’minlash; ayrim tovarlar uchun identifikatsiya markirovka qilishning yagona tizimini joriy etish va soliq organlari tomonidan mahsulotni hisobga olishning elektron bazasini yaratish; elektron tijorat faoliyatini qonuniylashtirish va nazorat qilish mexanizmini joriy etish; naqd pulsiz hisob-kitobni rag‘batlantirish mexanizmini ishlab chiqish, shu jumladan jismoniy shaxslar
----	--	--------------------	--	---	---	--

52	Qo'shimcha imkoniyat va manbalar hisobidan budjet defitsitini kamaytirish.	Yil davomi da	Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi, Hisob palatasi, Bosh prokuratura, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	—	—	Amaliy chora-tadbirlar. Bunda kutilayotgan defitsitni kamaytirish, shu jumladan soliq bazasini kengaytirish va samarasiz xarajatlarni maqbullashtirish yuzasidan aniq choralar amalga oshiriladi.
53	Yil boshidan joriy etilayotgan bojxona tarif siyosatini tatbiq etish orqali tashqi bozordagi o'zgarishlarning iqtisodiyotga salbiy ta'sirini kamaytirish.	2019-yil 1-may	Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Tashqi savdo vazirligi, Hisob palatasi, Moliya vazirligi, vazirlik va idoralar	—	—	Chora-tadbirlar rejasi. Bunda tashqi bozordagi o'zgarishlarning iqtisodiyotimizga salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha "yo'l xaritasi" ishlab chiqiladi.
54	Mamlakatni 2030-yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan kompleks rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish.	2019-yil 1-aprel	Vazirlar Mahkamasi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi, Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyiha bilan mamlakatni 2030-yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan kompleks rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlanadi.

55	Budjet mablag‘laridan samarali foydalanish tizimini yanada takomillashtirish.	2019- yil 1- noyabr	Moliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Hisob palatasi	—	—	Normativ- huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: xalqaro moliya tashkilotlari bilan birgalikda bu sohadagi jahon tajribasini chuqur o‘rgangan holda O‘zbekistonda maqsadga yo‘naltirilgan budjetlashtirish tizimini joriy etish bosqichlari va yo‘nalishlari; budjetdan moliyalashtiriladi gan dastur va loyihalar bo‘yicha sifat va miqdor ko‘rsatkichlari va baholash indikatorlarini ishlab chiqish tartibi; budjet mablag‘lari samaradorligini auditdan o‘tkazish standartlarini ishlab chiqish nazarda tutiladi.
----	--	------------------------------	--	---	---	---

56	Byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish va mahalliy budjetlarning yuqori turuvchi budjetlarga bog'liqligi darajasini qisqartirish.	2019-yil 1-oktabr	Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: 2020-yil yakuniga qadar maqsadli yuqori budjetdan quyi budjetga ajratmalar (transfertlar) berish qoidalari va tartibini takomillashtirish, ya'ni yagona yondashuvni belgilovchi tartib o'rnatish; 2021-yildan mahalliy budjetga qoldiriladigan soliqlar bo'yicha ajratmalar me'yorini unifikatsiyalash va 3 yilda bir marta qayta ko'rib chiqish amaliyotini joriy etish; mahalliy xarajatlarni moliyalashtirish vakolatini bosqichma-bosqich yuqori budjetdan quyi budjetga o'tkazish nazarda tutiladi.
----	--	-------------------	---	---	---	--

57	Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Xalqaro valyuta jamg'armasining Milliy hisoblar zamonaviy tizimini joriy etish.	2019-yil 1-iyul	Davlat statistika qo'mitasi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Moliya vazirligi, Markaziy bank	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Xalqaro valyuta jamg'armasining Milliy hisoblar zamonaviy tizimini 2020-yil 1-yanvardan boshlab to'liq joriy etishga qaratilgan tadbirlar; yalpi ichki mahsulotni hisoblashda iqtisodiyotdagi jarayonlar to'liq aks ettirilishini ta'minlash; yalpi ichki mahsulot miqdorini aniqlashni xarajat uslubida amalga oshirish nazarda tutiladi.
58	Monetar siyosatni takomillashtirish, Hukumat va Markaziy bankning narx-navo barqarorligini ta'minlash bo'yicha konsepsiyasini ishlab chiqish.	2019-yil 1-oktabr	Markaziy bank, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyiha bilan monetar siyosatni takomillashtirish choralari, Hukumat va Markaziy bankning narx-navo barqarorligini ta'minlash bo'yicha konsepsiyasini ishlab chiqish nazarda tutiladi.

59	Samarali soliq ma'muriyatchiligini yo'lga qo'yish.	Yil davomi da	Davlat soliq qo'mitasi, Moliya vazirligi	—	—	Chora-tadbirlar dasturi. Bunda soliq stavkalari pasaytirilishi yoki ayrim soliqlar bekor qilinishini inobatga olgan holda budget barqarorligini ta'minlash choralari nazarda tutiladi.
60	Soliq kodeksining yangi tahririni ishlab chiqish.	2019-yil 1-iyun	Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi, vazirlik va idoralar	—	—	O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi. Loyihada: ilg'or xorijiy tajribadan kelib chiqqan holda, xalqaro moliya tashkilotlari mutaxassislari bilan birgalikda Soliq kodeksining yangi tahririni ishlab chiqish; halol soliq to'lovchilarni rag'batlantirish va yashirin faoliyat yuritadigan subyektlarni jazolash mexanizmlari nazarda tutiladi.

61	Soliq islohotlarini amalga oshirish davrida iste'mol mahsulotlari narxining barqarorligini va inflatsiya darajasi prognoz ko'rsatkichlaridan oshmoqligini ta'minlash.	Yil davomida	Vazirlar Mahkamasi, Markaziy bank, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi, Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi, Bosh prokuratura, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	—	—	Chora-tadbirlar dasturi. Dasturda iste'mol mahsulotlari narxining barqarorligini ta'minlash, xususan qo'shilgan qiymat solig'i keng joriy qilinishi bilan iste'mol tovarlarining narxi o'sishining oldini olish choralari nazarda tutiladi.
----	--	--------------	--	---	---	---

3.2. Bank va moliya tizimini isloh qilish hamda sohaga zamonaviy bozor mexanizmlarini joriy etish

62	Bank-moliya tizimini rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatli strategiyani ishlab chiqish.	2019-yil 1-aprel	Vazirlar Mahkamasi, Markaziy bank, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyiha bilan Jahon banki ko'magida ishlab chiqiladigan bank-moliya tizimini rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatli strategiya tasdiqlanadi. Strategiyada: davlat mablag'lari hisobidan imtiyozli bank krediti ajratish amaliyotini tubdan takomillashtirish, bunda kredit foizini qisman kompensatsiya qilish amaliyotini kengaytirish; banklardagi davlat ulushini bosqichma-bosqich kamaytirish; moliya bozorlari, shu jumladan fond bozori, davlat qimmatli qog'ozlari ikkilamchi bozori va hosilaviy moliyaviy instrumentlar bozorini rivojlantirish; aholiga kredit ajratishda, kredit buyurtmanomasi, hujjatlarini taqdim qilish va ularni ko'rib chiqishning avtomatlashtirilgan mexanizmini (kredit konveyerini)
----	--	---------------------	---	---	---	---

63	Sug'urta bozorini isloh qilish va jadal rivojlantirish.	2019-yil 1-iyul	Moliya vazirligi, Markaziy bank, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyiha bilan Sug'urta bozorini isloh qilish va jadal rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlanadi. Konsepsiyada : “Sug'urta faoliyati to'g'risida”gi Qonunni yangi tahrirda ishlab chiqish; barcha majburiy sug'urta turlarini yagona hujjatga mujassamlashtirish va majburiy sug'urtalanadigan faoliyat turlarini kengaytirish; sug'urta polisining kredit olish uchun mavqeyini oshirish va sug'urta puli to'lash tartibini takomillashtirish; banklarga sug'urta agenti maqomini berish; interaktiv, jumladan onlayn sug'urta xizmatini kengaytirish nazarda tutiladi.
----	--	--------------------	--	---	---	---

64	Qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish va uning iqtisodiyotdagi ❖❖shini oshirish.	2019- yil 1-aprel	Kapital bozorini rivojlantirish agentligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Markaziy bank	—	—	Normativ- huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: kapital (fond) bozorining milliy iqtisodiyotdagi mavqeyini hamda investitsiyalarni jalb etishdagi rolini oshirish, birja savdolariga keng jamoatchilikni jalb qilish; sohani tartibga soluvchi vakolatli davlat organi faoliyatini xalqaro tashkilotlar, xususan IOSCO tamoyillariga moslashtirish; mahalliy emitentlarning qimmatli qog‘ozlarga jahonda tan olingan identifikatsiya kodlarining (ISIN, CFI) bevosita Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi tomonidan berilishi nazarda tutiladi.
----	--	-------------------------	---	---	---	---

65	Davlat aksiya paketlarini “Bitta aksiya — bitta lot” tamoyili asosida sotish tartibini joriy etish.	2019-yil 1-aprel	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Kapital bozorini rivojlantirish agentligi, Moliya vazirligi	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada davlat aksiyalari savdosiga aholi va investorlarni jalb etishni cheklovchi aksiyalarni yirik miqdorda savdoga chiqarish amaliyotini takomillashtirish nazarda tutiladi.
66	Yirik markaziy xalqaro depozitar-kliring tizimlari (EuroClear, ClearStream) hamda Milliy raqamlovchi agentliklar assotsiatsiyasi bilan Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi hamkorligini yo‘lga qo‘yish.	2019-yil 1-may	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Kapital bozorini rivojlantirish agentligi, Markaziy bank	—	—	Chora-tadbirlar rejasi. Rejada chet el investorlari mablag‘ini to‘g‘ridan to‘g‘ri iqtisodiyotga jalb qilishni rag‘batlantirish uchun yirik markaziy xalqaro depozitar-kliring tizimlari (EuroClear, ClearStream), Milliy raqamlovchi agentliklar assotsiatsiyasi va Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi hamkorligini yo‘lga qo‘yish nazarda tutiladi.

67	Valyuta bozorini yanada erkinlashtirish.	2019-yil 1-mart	Markaziy bank, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi	—	—	“Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi Qonunning yangi tahrirdagi loyihasi. Loyihada: sohaga oid qonunosti hujjatlarni inventarizatsiyadan o‘tkazish, havolaki normalarni maksimal darajada qisqartirgan holda valyuta operatsiyalarini amalga oshirishga oid barcha jihatlarini tartibga solish; xalqaro tajribani chuqur o‘rganish asosida va tadbirkorlar ehtiyojlarini inobatga olgan holda, valyuta operatsiyalarini tartibga solishni soddalashtirish; jismoniy va yuridik shaxslarning o‘z valyuta mablag‘idan erkin foydalanish huquqining kafolatini mustahkamlash; mamlakatning iqtisodiy manfaatlarini hisobga olgan holda, kapital harakati bilan bog‘liq operatsiyalarni tartibga solish; valyuta bozori faoliyatini yanada takomillashtirish va erkinlashtirish;
----	---	--------------------	--	---	---	---

3.3. Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va yanada rivojlantirish						
68	“Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini ishlab chiqish.	2019-yil 1-aprel	Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Adliya vazirligi, “Davyergeodezka dastr” qo‘mitasi, Moliya vazirligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi	—	—	O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi. Loyihada yuridik shaxslar va fuqarolarning binolari hamda inshootlari bilan band bo‘lgan yer uchastkalarini xususiylashtirish tartibi nazarda tutiladi.

69	Jahon bankining “ Biznesni yuritish ” reytingidagi 2020-yil yakuni bo'yicha barcha yo'nalishlarda O'zbekistonning o'rnini tubdan yaxshilash choralarini ko'rish.	2019- yil 1-may	Loyiha boshqaruvi milliy agentligi, Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi, Qurilish vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Tashqi savdo vazirligi, “Davyergeodezk adastr” qo'mitasi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, “O'zstandart” agentligi, Adliya vazirligi, Savdo-sanoat palatasi	—	—	Chora- tadbirlar dasturi. Dasturda qurilish yo'nalishida 50 talikka, mulkni rasmiylashtirishd a — 30 talikka, minoritar aksiyadorlar himoyasida — 20 talikka, xalqaro savdoda — 50 talikka kirish va boshqa yo'nalishlarda O'zbekistonning o'rnini tubdan yaxshilash choralari nazarda tutiladi. Shuningdek, qurilish sohasida: qurilish ishlariga ruxsat berish, loyihalash va loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini tubdan soddalashtirish; shaharsozlik norma va qoidalarini qayta ko'rib chiqish; qurilish- montaj ishlarini amalga oshirishga ruxsatnoma olishni soddalashtirish; Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotiga a'zo 36 ta mamlakatning qurilish sohasidagi litsenziya va boshqa ruxsatnomalarini tan olish tartibini joriy etish; Shaharsozlik kodeksini
----	--	-----------------------	---	---	---	--

70	Yuridik va jismoniy shaxslarni elektr energiyasi tizimlariga ulanish tartibini tubdan yengillashtirish.	2019-yil 1-iyul	“O‘zbekenergo” AJ, Adliya vazirligi	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: hududiy elektr tarmoqlari tarkibida davlat xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha alohida bo‘linma tashkil qilish; elektr energiyasi sohasidagi davlat xizmatlari uchun unifikatsiya qilingan tariflar tizimi va tarif belgilashda shaffof mexanizmlarni joriy etish; elektr energiyasi tizimlariga ulanish bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatish muddatlarini qisqartirish va narxlarini kamaytirish; tadbirkorlarning ishlab chiqarish maydoniga qadar zaruriy muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini tortib kelish xarajatlarini qoplash manbalarini aniq belgilash; “O‘zbekenergo” AJ rasmiy sayti va davlat xizmatlari portalida energiya tizimida hisobot yilida sodir bo‘lgan uzilishlar, narx va ulanish tartibi to‘g‘risida
----	--	--------------------	---	---	---	--

71	Raqamli iqtisodiyot milliy strategiyasini ishlab chiqish.	2019-yil 1-mart 2019-yil 1-dekabr	Loyiha boshqaruvi milliy agentligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiya vazirligi? rivojlantirish vazirligi, Innovatsiya vazirligi, “O‘zaloqanazorat” inspeksiyasi	—	—	“Raqamli O‘zbekiston-2030” milliy strategiyasini ishlab chiqish bo‘yicha “yo‘l xarita”si. Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: “Raqamli O‘zbekiston-2030” milliy strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni tasdiqlash; davlat xizmatlari ko‘rsatish, davlat boshqaruvi, iqtisodiyotning barcha tarmoqlari, xizmat ko‘rsatish sohalarida raqamli transformatsiya qilish; biznes xarajatlari va ma‘muriy yuklamani kamaytirish maqsadida ma‘muriy tartib-taomillarni raqamlashtirish nazarda tutiladi.
----	--	--	---	---	---	--

72	Ma'muriy tartib-taomillarni tizimlashtirish va soddalashtirish.	2019-yil 1-dekabr	Adliya vazirligi, vazirlik va idoralar	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada mavjud ma'muriy tartib-taomillarni xatlovdan o'tkazib, yagona hujjatda jamlash hamda alohida qabul qilingan reglament va qarorlarni bekor qilish nazarda tutiladi.
----	--	-------------------	--	---	---	---

73	Ko'chmas mulkka oid bitimlarni rasmiylashtirish tizimini soddalashtirish.	2019-yil 1-mart	Adliya vazirligi, "Davyergeodezskadastr" qo'mitasi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: ko'chmas mulk obyekti kadastr yig'ma jildini soddalashtirish, kadastr pasportini elektron tizimga o'tkazish; ko'chmas mulk obyektlariga oid bitimlar notarial idoralar tomonidan rasmiylashtirilgan bitim haqidagi ma'lumotlarni bazaga kiritish va mulk huquqini onlayn ro'yxatdan o'tkazish; ko'chmas mulkni begonalashtirish uchun bitimlarni tuzishda kadastr organlari tomonidan amalga oshiriladigan texnik inventarizatsiya o'tkazish talabini bekor qilish; ko'chmas mulkni ro'yxatga olish va qayta ro'yxatdan o'tkazish uchun Internet tarmog'i orqali buyurtma berish tartibini joriy qilish nazarda tutiladi.
----	--	--------------------	--	---	---	---

74	Yuridik shaxslar haqidagi ma'lumotlarni internet orqali olish tizimini yaratish.	2019-yil 1-aprel	Adliya vazirligi, Davlat statistika qo'mitasi, Davlat soliq qo'mitasi	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: yuridik shaxsga oid konfidensial bo'lmagan barcha ma'lumotlarni ochiq portalga joylashtirish; konfidensiallik darajasini ilg'or xorijiy tajribaga tayangan holda aniqlashtirish; yuridik shaxslarning ro'yxatdan o'tkazilgan majburiyatlari (garov, zakalat) yoki mulkiy cheklovlarini portalga joylashtirish; yuridik shaxslar to'g'risida chop etiladigan ma'lumotlarni ro'yxatga oluvchi organlar saytlari va hukumat portalida e'lon qilishni yagona shaklga keltirish nazarda tutiladi.
----	---	---------------------	---	---	---	---

75	Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatida minoritar aksiyadorlar ishtirokini oshirish hamda ularning huquq va qonuniy manfaatlari himoyasini kuchaytirish.	2019-yil 1-iyul	Kapital bozorini rivojlantirish agentligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Adliya vazirligi	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: aksiyadorlik jamiyatlari to‘g‘risidagi qonunchilikda affillangan shaxslar bilan bitim tuzishga nisbatan talablarni kuchaytirish; qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha hisoblangan daromadlarni (dividend, foiz) Qimmatli qog‘ozlarning markaziy depozitariysi va investitsiya vositachilari orqali to‘lab berish mexanizmini joriy qilish; aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi va kuzatuv kengashi majlislarida zamonaviy axborot texnologiyalarida n foydalangan holda masofadan ishtirok etish; aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatida yuzaga keladigan muhim faktlarni qimmatli qog‘ozlar birja kotirovkalash varag‘iga kirgan va (yoki) aksiyadorlarining umumiy soni 50 nafardan ortiq aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan
----	--	-----------------	---	---	---	---

76	Dehqon bozori va savdo komplekslarini ochish tartibini belgilash.	2019-yil 1-iyul	Vazirlar Mahkamasi, Qurilish vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Bosh prokuratura, Adliya vazirligi, vazirlik va idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: bozorlar va savdo komplekslarini ochish uchun tegishli ixtisoslik bo'yicha ehtiyojlarni aniqlashtiruvchi talablar; bozorlar va savdo komplekslari faoliyatiga va tuzilishiga bo'lgan talablar; bozorlar va savdo komplekslarining hududlar kesimida joylashuvini belgilovchi dislokatsiya xaritalari; mavjud va keyinchalik hududda vujudga keladigan sharoitlarni inobatga olish mexanizmlari (aholi soni o'sishi, yangi uylar qurilishi, yo'llar kengayishi va boshqa holatlar) nazarda tutiladi.
----	--	--------------------	--	---	---	--

77	Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tugatish tartibini takomillashtirish.	2019- yil 1-may	Davlat soliq qo‘mitasi, Moliya vazirligi, Adliya vazirligi	—	—	Normativ- huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tugatishda jarayonlar shaffofligini oshirish, korruptsiya bilan bog‘liq omillar shakllanishining oldini olish, tartib va taomillarni yanada soddalashtirish va takomillashtirish nazarda tutiladi.
----	---	-----------------------	---	---	---	---

78	Avtomobil transportida yo'lovchi va yuk tashish tizimini takomillashtirish.	2019-yil 1-mart	Avtomobil transport agentligi, Bosh prokuratura, Adliya vazirligi	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: yo'lovchi va yuk tashish uchun litsenziya talablarini keskin soddalashtirish; yo'lovchi va yuk tashish bo'yicha talablarga rioya etilishi ustidan nazoratni kuchaytirish va zamonaviy texnologiyalarni qo'llash; shaxsiy avtotransport vositalarini litsenziyaga ega yuridik shaxslarga ijaraga berish orqali taksi haydovchisi sifatida ishlashga majbur qilinayotgan amaliyotga barham berish; qonun hujjatlaridagi litsenziyasiz yo'lovchi va yuk tashishga imkoniyat yaratuvchi barcha bo'shliqlarni qayta ko'rib chiqish; yo'lovchi va yuk tashish uchun litsenziya bo'yicha olinadigan davlat bojini qayta ko'rib chiqish; hududlardagi transport boshqaruvi tizimini davlat-xususiy sheriklik orqali
----	---	-----------------	---	---	---	---

3.4. Iqtisodiyotni boshqarishning bozor mexanizmlarini joriy etish va unga davlat aralashuvini kamaytirish

79	Davlat ulushi mavjud xo‘jalik jamiyatlari va davlat korxonalarini boshqarishni tubdan takomillashtirish.	2019-yil 1-fevral	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Moliya vazirligi	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: barcha davlat boshqaruvi organlariga tegishli aksiyalar va ulushlarni boshqarish funksiyasini yagona vakolatli idoraga yuklash; davlat ulushi bo‘lgan korxonalarning tashkiliy tuzilmasini, Kuzatuv kengashi va ijro organi tarkibini qonun hujjatlari bilan tasdiqlash amaliyotini bekor qilish; davlat ulushi bo‘lgan korxonalarning ijro organi a‘zolarini vazir va uning o‘rinbosarlari maqomiga tenglashtirish amaliyotidan voz kechish; davlatning ishonchli vakili faoliyatini tugatib, uning vazifalarini kuzatuv kengashi tarkibiga kiritilgan davlat vakili zimmasiga yuklash; aksiyadorlik jamiatlari kuzatuv kengashi tarkibiga mustaqil a‘zolari kiritish amaliyotini kengaytirish; vazirlik va idoralarning o‘zi tartibga
----	---	-------------------	--	---	---	--

80	Iqtisodiyotda davlat ishtirokining maqsadini belgilash va davlat aralashuvini yanada kamaytirish.	2019-yil 1-sentabr	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Moliya vazirligi, Markaziy bank	—	—	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi. Loyihada: davlat ulushi mavjud xo‘jalik jamiyatlari va davlat korxonasini tashkil etish va ularning faoliyatini yuritish maqsadlarini belgilash; belgilangan maqsadlarga muvofiq bo‘lmagan davlat ishtirokidagi korxonalarni tashkil etishni taqiqlash; monopoliyaga qarshi kurashish organining ijobiy xulosasiz davlat ishtirokidagi korxonalarni tashkil etish amaliyotiga chek qo‘yish; davlat ishtirokidagi barcha korxonalarning belgilangan maqsadlarga muvofiqligini o‘rganish bo‘yicha ishchi guruhi tuzish; xususiy sektor samarali faoliyat ko‘rsatayotgan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sohasida paxta tozalash, un, yog‘-moy, go‘sht-sut, oziq-ovqat sanoati va boshqa shu kabi raqobat mavjud bo‘lgan sohalarda
----	--	--------------------	--	---	---	--

81	Davlat unitar korxonalari ajratmalarini davlat budjetiga o'tkazish mexanizmlarini takomillashtirish.	2019-yil 1-may	Davlat soliq qo'mitasi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: davlat unitar korxonalari yillik yig'ilishi yil tugaganidan keyin olti oydan kechiktirmay o'tkazilishi va davlat budjetiga ajratmalar sof foydani taqsimlash to'g'risidagi qaror qabul qilingan sanadan 60 kundan kechiktirmay to'lanishi; davlat unitar korxonalarining boshqa jamiyat ustav fondidagi ulushi bo'yicha dividend davlat unitar korxonalarining daromad manbalaridan biri hisoblanishi nazarda tutiladi.
82	Ashyoviy huquqlar va yuridik shaxslarning tashkiliy-huquqiy shakllarini tanqidiy ko'rib chiqish.	2019-yil 1-iyul	Adliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi	—	—	O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi. Loyihada yuridik shaxslarning "unitar korxona" tashkiliy-huquqiy shaklini bekor qilish, xo'jalik yuritish huquqini bekor qilish nazarda tutiladi.

83	Davlat va xo‘jalik birlashmalari ulushi mavjud bo‘lgan ayrim aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalar paketlarini birlamchi va ikkilamchi ommaviy taklif asosida realizatsiya qilish.	2019-yil 1-aprel	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Kapital bozorini rivojlantirish agentligi	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalar paketlarini birlamchi (IPO) va ikkilamchi (SPO) ommaviy taklif asosida realizatsiya qilish nazarda tutiladi.
84	Litsenziya va ruxsatnomalar berish jarayonini soddalashtirish.	2019-yil 1-may	Adliya vazirligi, vazirlik va idoralar	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: litsenziya beruvchi organlar tomonidan litsenziya oluvchilarni majburiy o‘qitish, malakasini oshirish tartibini qayta qo‘rib chiqish; tadbirkorlik subyektlari rahbar va xodimlarini tayinlashni litsenziya va ruxsatnoma beruvchi davlat organlari bilan kelishish tartibini qayta ko‘rib chiqish nazarda tutiladi.

85	Soliq va bojxona imtiyozlarini bosqichma-bosqich bekor qilish.	2019-yil 1-may	Moliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi, Davlat bojxona qo‘mitasi	—	—	Chora-tadbirlar dasturi. Dastur bilan tegishli soliq imtiyozlarini bosqichma-bosqich bekor qilish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” tasdiqlanadi.
3.5. Iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini isloh qilish va rivojlantirish orqali sog‘lom raqobat muhitini yaratish						
86	Yirik davlat korxonalarida moliyaviy hisobot tuzish va audit o‘tkazishda xalqaro standartlarni joriy qilish.	2019-yil 1-may	Vazirlar Mahkamasi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Moliya vazirligi, tegishli davlat korxonalari	—	—	Chora-tadbirlar dasturi. Dasturda: 2020-yildan boshlab yirik davlat korxonalarida moliyaviy hisobot tuzish va audit o‘tkazishda xalqaro standartlarni joriy qilish; davlat ulushi mavjud bo‘lgan yirik korxonalar auditini o‘tkazish uchun yetakchi xalqaro kompaniyalarni jalb etish; o‘nta yetakchi xalqaro audit kompaniyalarini Moliya vazirligidan akkreditatsiyadan o‘tkazish tartibini bekor qilish nazarda tutiladi.

89	Paxta xomashyosi va boshqali don mahsulotlari yetishtirishga kredit ajratish tartibini qayta ko'rib chiqish.	2019-yil 1-noyabr	Moliya vazirligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Markaziy bank, "O'zto'qimachilik-sanoat" uyushmasi, "O'zdonmahsulot" AJ, "O'zpaxtasanoat" AJ, tijorat banklari	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: paxta xomashyosi va boshqali don yetishtirishni moliyalashtirishga imtiyozli kredit ajratish muddatini agroteknik tadbirlar muddatiga moslashtirish; to'qimachilik-paxta ishlab chiqarish korxonalari va klasterlariga ajratilgan imtiyozli kreditlarni qaytarish shartlari va muddatini aniq belgilash nazarda tutiladi.
----	---	-------------------	--	---	---	--

90	Fermyerlarning qishloq xo'jaligi sohasidagi bilimini oshirish.	2019-yil 1-mart	O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Suv xo'jaligi vazirligi, Innovatsiya vazirligi	—	—	Amaliy chora-tadbirlar. Bunda: tegishli vazirlik va idoralar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, fermerlarni o'qitish va qayta tayyorlash dasturlarini ishlab chiqish; ommaviy axborot vositalarida qishloq xo'jaligini yuritish, hududlarning ushbu sohadagi ixtisosligi, yetishtirilayotgan mahsulotlar sifatini yaxshilash va turli kasalliklar bilan kurashish usullari haqida turkum dasturlarni tayyorlash ishlari amalga oshiriladi.
----	---	--------------------	--	---	---	--

91	Paxta, g'alla, meva-sabzavot va boshqa yo'nalishlardagi klasterlar faoliyatini har tomonlama rivojlantirish.	2019-yil 1-iyun	Qishloq xo'jaligi vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Moliya vazirligi, "Davyergeodezskadastr" qo'mitasi, Bosh prokuratura, "O'zto'qimachilik-sanoat" uyushmasi, "O'zdonmahsulot" AJ, "O'zpaxtasanoat" AJ, "O'zbekoziqovqat-xolding" XK, "O'zsharobsanoat" AJ, "Parrandasanoat" uyushmasi, "O'zbaliqsanoat" uyushmasi	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: klaster tizimida mavjud to'siqlarni bartaraf etish choralari; klasterlar faoliyatining tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy asoslari, ularni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari; qishloq xo'jaligining barcha sohalariga klaster usulini keng tatbiq etish choralari; klasterlarni kreditlash tizimini soddalashtirish, yer ajratish bilan bog'liq tartiblarni takomillashtirish; paxtachilik, bog'dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik, chorvachilik, parrandachilik va baliqchilikda yangi klasterlarni tashkil etish nazarda tutiladi.
----	--	--------------------	--	---	---	--

92	Qishloq xo'jaligi ekinlari urug'larini yetishtirish, saqlash va tayyorlashning yagona tizimini yaratish.	2019-yil 1-sentabr	Innovatsiya vazirligi, Fanlar akademiyasi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Bosh prokuratura, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi	—	—	Chora-tadbirlar rejasi. Rejada: "Urug'chilik eksporti — 2030" dasturini ishlab chiqib, 2030-yilga kelib urug'lar eksporti hajmini keskin oshirish; qishloq xo'jaligi ekinlari urug'larini yetishtirish, saqlash va tayyorlash tartib va me'yorlarini belgilash; sabzavotchilik, polizchilik va ozuqa ekinlari urug'chilik tizimini tashkil etish; har yili belgilangan tartibda tayyor urug'larni fermerdan sotib olish va ularni mavsumgacha saqlash hamda fermerlarga berish mexanizmini joriy etish nazarda tutiladi.
----	---	--------------------	---	---	---	--

93	Urugʻchilikda asl navlarni yaratish maqsadida, tajriba-seleksiya ishlarini tubdan jonlantirish.	2019-yil 1-may	Innovatsiya vazirligi, Fanlar akademiyasi, Qishloq xoʻjaligi vazirligi, Bosh prokuratura, Moliya vazirligi	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada urugʻchilik va seleksiya bilan shugʻullanadigan institutlarning moddiy-texnika bazasini yaxshilash, davlat-xususiy sheriklik asosida urugʻchilik klasterlarini tashkil etish nazarda tutiladi.
----	--	-------------------	--	---	---	--

94	Tuproq unumdorligi, suv ta'minoti hamda boshqa omillarni hisobga olgan holda qishloq xo'jaligi yerlarining hosildorligini belgilash bo'yicha normativlar ishlab chiqish.	2019-yil 1-may	Qishloq xo'jaligi vazirligi, Suv xo'jaligi vazirligi, Bosh prokuratura, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Innovatsiya vazirligi, "Davyergeodezkadastr" qo'mitasi, "O'zagrokimyohi moya" AJ	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: qishloq xo'jaligi yerlarining hosildorligini belgilash bo'yicha normativlarni ishlab chiqish; tahlil asosida qishloq xo'jaligi ekinlarining mineral o'g'itlarga bo'lgan ilmiy talabini belgilash hamda ulardan tabaqalashtirilgan holda foydalanish tizimini yo'lga qo'yish; qishloq xo'jaligi yerlarining ball bonitetini, har bir dala konturi bo'yicha tuproq tarkibi, ozuqa elementlari, fosfor va kaliy bilan ta'minlanganligi darajasi bo'yicha kartogrammalar tayyorlash; kimyoviy vositalar hisobiga tuproq va qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi pestitsidlar, nitratlar va og'ir metall tuzlari qoldiqlari me'yorlarini kuzatish tizimini yo'lga qo'yish; tuproq bonitirovkasi sho'ba korxonasi negizida
----	--	-------------------	--	---	---	---

95	Suv iste'molchilari uyushmalari faoliyatini takomillashtirish.	2019-yil 1-iyul	Suv xo'jaligi vazirligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Boqorat, prokuratura, Adliya vazirligi, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hokimliklari	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada suv iste'molchilari uyushmalari sonini maqbullashtirish, respublika, viloyatlar va har bir tuman (shahar)da yagona uyushma tashkil etish yoki ularni irrigatsiya bo'limlari qoshida xo'jalik hisobidagi korxona sifatida qayta tashkil etish masalasini ko'rib chiqish nazarda tutiladi.
96	Suv resurslaridan oqilona foydalanish, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilashni ta'minlash.	Yil davomida	Suv xo'jaligi vazirligi, "Davyergeodezkadastr" qo'mitasi, Moliya vazirligi, Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hokimliklari, loyiha institutlari	1 334 mlrd so'm 132,8 mln AQSh dollari	Davlat budjeti, xalqaro moliya institutlari, O'zbekiston Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari	2019-yilga mo'ljallangan Investitsiya dasturi doirasida amalga oshiriladigan loyihalarning tarmoq jadvallari. Bunda 821,8 km masofadagi magistral, tumanlararo va xo'jaliklararo kollektorlar tizimi, 341,6 km yopiq yotiq drenajlar, 428,8 km kanallar, 127,2 km lotok tarmoqlari, 213 ta gidrotexnik inshootlarni qurish, rekonstruksiya qilish nazarda tutiladi.

97	Davlat ehtiyojlari uchun boshqoli don mahsulotlari xarid qilishning bozor mexanizmlarini joriy qilish.	2019-yil 1-sentabr	Qishloq xo'jaligi vazirligi, "O'zdonmahsulot" AJ Moliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: davlat ehtiyojlari uchun boshqoli don mahsulotlarini kafolatlangan hajmda, xarajatlarni qoplaydigan darajadagi kafolatlangan bozor narxida xarid qilish tizimini joriy etish; "O'zdonmahsulot" AJ tizimidagi tayyorlov korxonalarini bosqichma-bosqich davlat-xususiy sheriklik asosida xususiy sektorga o'tkazish; davlat ehtiyoji uchun xarid qilingan mahsulotlardan narx barqarorligini saqlash (intervensiya) maqsadida foydalanish tartibi nazarda tutiladi.
----	--	---------------------------	---	---	---	---

98	Qishloq xo'jaligi maqsadlarida er berish tizimini tubdan qayta ko'rib chiqish.	2019-yil 1-noyabr	“Davyergeodezk adastr” qo'mitasi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: qishloq xo'jaligi maqsadlarida yer berish tartibini “Yer Elektron” tizimiga muvofiqlashtirish va yer uchastkasiga ijara huquqini shaffof mexanizmlar orqali realizatsiya qilishni joriy etish; fuqaro va tadbirkorlarga maxsus geoportal orqali auksion savdosiga chiqariladigan yer maydonlarini tanlash imkoniyatini yaratish; erdan mo'l hosil olayotgan ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklariga faoliyatini kengaytirish uchun qo'shimcha yer ajratish tartibi; suv tanqisligi va sho'rlanishi yuqoriligi sababli qishloq xo'jaligida foydalanilmayotgan yerlardan samarali foydalanish tizimini yaratish nazarda tutiladi.
----	---	-------------------	--	---	---	--

99	Chorvachilik va parrandachilik ozuqa bazasini mustahkamlash.	2019-yil 1-mart	Qishloq xo'jaligi vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Innovatsiya vazirligi, "O'zdonmahsulot" AJ, "O'zpaxtayog" AJ, Respublika tovar-xomashyo birjasi	—	—	Chora-tadbirlar dasturi. Dasturda: paxta va g'alla maydonlaridan bo'shagan hosildorligi past yerlarda chorvachilik va parrandachilik ozuqa bazasini mustahkamlash maqsadida ozuqa ekinlari, jumladan yuqori proteinli o'simliklarni joylashtirish; ommuxta yem mahsulotlarini cheklanmagan miqdorda birja savdolari orqali bozor narxlarida sotib olishni ta'minlash; "O'zdonmahsulot" AJ tizimidagi yem ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish, yem mahsulotlari sifatini oshirish; chorvachilik ozuqa bazasini yanada mustahkamlash, chorvachilikda intensiv texnologiyalar va innovatsion ishlanmalarni keng joriy qilish nazarda tutiladi.
----	---	--------------------	--	---	---	---

10	2019 — 2024-yillarda mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash milliy dasturini ishlab chiqish.	2019-yil 1-aprel	Qishloq xo'jaligi vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Bosh prokuratura, Sog'liqni saqlash vazirligi, Innovatsiya vazirligi, “O‘zstandart” agentligi, O‘simliklar karantini davlat inspeksiyasi	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: aholini sifatli va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash; Jahon oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha Rim Deklaratsiyasi hamda Bioxavfsizlik bo'yicha Kartaxen protokolini ratifikatsiya qilish masalasini ko'rib chiqish nazarda tutiladi.
----	---	---------------------	--	---	---	--

10	Ichki va tashqi bozorlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talab, hududlarning tuproq-iqlim sharoitlari va boshqa omillarni hisobga olgan holda ekinlarni joylashtirish va hududiy ixtisoslashtirish tizimini takomillashtirish.	2019-yil 1-may	Qishloq xo'jaligi vazirligi, "Davyergeodezsk adastr" qo'mitasi, Innovatsiya vazirligi, O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi, Fanlar akademiyasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hokimliklari	—	—	Chora-tadbirlar dasturi. Dasturda: fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni o'rnatish; tuproq, iqlim, suv sharoitidan kelib chiqib, keyingi yil hosili uchun fermer xo'jaliklari kesimida, konturlar va ekin turlari bo'yicha qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirish; zarar ko'rib ishlayotgan, past rentabelli va istiqbolsiz fermer xo'jaliklarini maqbullashtirish; hududiy ixtisoslashtirishni chuqurlashtirish, jumladan tumanlar hududlarini mos mahsulot turlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashtirish nazarda tutiladi.
3.7. Viloyatlar, tuman va shaharlarni kompleks rivojlantirish, ularning salohiyatidan samarali va optimal foydalanish						

10	O'zbekiston Respublikasida 2030-yilgacha urbanizatsiyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish.	2019-yil 1-iyun	Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi, Qurilish vazirligi, Moliya vazirligi, Mehnat vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	—	—	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi. Loyihada: urbanizatsiya darajasini 2030-yilga qadar kamida 60 foizga yetkazish; kompleks uy-joylar qurilishi hisobidan yangi shaharlar va yo'ldosh-shaharlar tashkil etish; shaharlar infratuzilmasini modernizatsiya qilish va yangilash; xalqaro moliya tashkilotlari va xorijiy konsalting kompaniyalarini jalb qilish; tadbirlarni moliyalashtirishning aniq manbalarini belgilash nazarda tutiladi.
----	--	-----------------	--	---	---	---

10	Respublikaning 27 ta tumanida sanoatni rivojlantirish bo'yicha o'rta va uzoq muddatli dasturlar ishlab chiqish.	2019-yil 1-may	Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi, Moliya vazirligi	—	—	Chora-tadbirlar dasturi. Dasturda: hududdagi tabiiy va yer osti boyliklarini inobatga olgan holda, sanoat mahsulotlari hajmini keskin oshirish; xizmat ko'rsatish va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni xomashyo, materiallar va energiya ta'minoti bilan ta'minlash, ularning ichki va tashqi bozordagi raqobatbardoshligini oshirish nazarda tutiladi.
10	Iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlariga, ayniqsa, yengil sanoat, metallurgiya, qurilish materiallari va oziq-ovqat tarmog'iga, shuningdek hududlarga to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya jalb qilish.	Yil davomida	Loyiha tashabbuskorlari (vazirlik, idora va xo'jalik boshqaruvi organlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari), Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi	4,12 mlrd AQSh dollari	Xorijiy investorlar mablag'lari	2019-yilga mo'ljallangan Investitsiya dasturi doirasida amalga oshiriladigan loyihalarning tarmoq jadvallari. Bunda xorijiy investorlarga yer va bino ajratish, ruxsatnomalarni taqdim etish, loyihalarning texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqish, ekspertizadan o'tkazish va qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish choralari nazarda tutiladi.

10	Foiz stavkalari inflatsiya darajasidan ancha past bo'lgan infratuzilma va ijtimoiy sohani rivojlantirishda iqtisodiy manfaatdorlikni yanada oshirishga qaratilgan xalqaro moliyaviy institutlar va xorijiy hukumatlar moliya tashkilotlarining uzoq muddatli imtiyozli kreditlari hisobidan loyihalarni amalga oshirishni kengaytirish.	Yil davomida	Loyiha tashabbuskorlari (vazirlik, idora va xo'jalik boshqaruvi organlari, Toshkent shahar va Samarqand viloyati hokimliklari), Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi	2,7 mlrd AQSh dollari	Xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumatlar moliya tashkilotlari mablag'lari	2019-yilga mo'ljallangan Investitsiya dasturi doirasida amalga oshiriladigan loyihalarning tarmoq jadvallari. Bunda xorijiy loyihalarning texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqish, ekspertizadan o'tkazish va qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish choralari nazarda tutiladi.
10	Xalqaro va davlat ahamiyatidagi hamda mahalliy yo'llarni qurish, ta'mirlash va rekonstruksiya qilish.	Yil davomida	Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi, Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	1,7 trln so'm 94,5 mln AQSh dollari	Davlat budjeti mablag'lari Xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumatlar moliya tashkilotlari mablag'lari	Amaliy chora-tadbirlar. Bunda 2019-yilda 46,2 km xalqaro, 18,7 km davlat ahamiyatidagi, 60 km namunaviy qishloq aholi punktlari va xizmat uylari, shuningdek 65 km erkin iqtisodiy, kichik sanoat, erki? sanoat iqtisodiy va erkin iqtisodiy farm zonalar hamda 35,6 km mahalliy yo'llarni qurish, ta'mirlash va rekonstruksiya qilish ishlari amalga oshiriladi.

10	Avtomobil yo'llarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlariga oid qurilish qoidolari va me'yorlarini xalqaro standartlarga moslashtirish.	2019-yil 1-iyun	Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi, Qurilish vazirligi, Yo'l-qurilish ishlari sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Adliya vazirligi, Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: avtomobil yo'llarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va saqlashga oid qurilish qoida va me'yorlarini xalqaro standartlarga moslashtirish; tezyurar avtomobil yo'llarini qurishga oid namunaviy texnik talablarning normativ me'yorini yaratish; shahar ko'chalarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va saqlashda muhandislik kommunikatsiyal aridan foydalanuvchi tashkilotlar bilan birgalikda ishlarni kompleks amalga oshirish tartibini joriy qilish; shahar ko'chalarini qurish va rekonstruksiya qilishda suv qochirish tizimini inobatga olgan holda lo ^h iha yechimlari qo'llanilishini ta'minlash; avtomobil yo'llarining holatini ko'rsatuvchi ochiq elektron
----	---	-----------------	--	---	---	---

10	Orolbo‘yi hududida joylashgan obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va ta‘mirlash ishlarini amalga oshirish.	Yil davomida	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Xorazm viloyati hokimligi, Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi, Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasi	320,7 mlrd so‘m	Davlat budjeti mablag‘lari	2019-yilga mo‘ljallangan Investitsiya dasturi doirasida amalga oshiriladigan loyihalarning tarmoq jadvallari. Bunda Investitsiya dasturiga kiritilgan ob‘ektlar bo‘yicha loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish, ekspertizadan o‘tkazish, qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish choralari nazarda tutiladi.
10	Qoraqalpog‘iston Respublikasi shahar va qishloqlarida aholining hayot sharoitini yaxshilash maqsadida yangi qurilishlarni amalga oshirish.	2019-yil 1-iyul	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Bosh prokuratura, Qurilish vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Moliya vazirligi, Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasi, “Qishloqqurilishi nvest” MChJ, “O‘zshaharqurili shinvest” MChJ	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: Qoraqalpog‘iston Respublikasi shahar va qishloqlarida yangi qurilishlarni amalga oshirish manzilli dasturini tasdiqlash; Mo‘ynoq tumanida barcha zarur infratuzilmalarga ega bo‘lgan zamonaviy shaharcha bunyod etish nazarda tutiladi.

11	Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimi obyektlarida texnologik audit o'tkazish tizimini yaratish.	2019-yil 1-may	Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi, Ichimlik suvidan foydalanishni nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Fanlar akademiyasi, Qurilish vazirligi	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada ichimlik suvi ta'minoti va kanalizatsiya tizimi obyektlarini texnologik auditdan o'tkazish chora-tadbirlari nazarda tutiladi.
3.8. Faol investitsiya siyosatini amalga oshirish va investorlar ishonchini oqlash						

11	O'zbekiston Respublikasining o'rta muddatli investitsiya siyosati strategiyasini ishlab chiqish.	2019-yil 1-iyun	Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: har bir hududning ixtisoslashuvi va investitsiya jalb qilinadigan ustuvor yo'nalishlar; yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni talab etadigan, to'g'ridan to'g'ri investitsiya jalb qilinishi lozim bo'lgan sohalarni belgilash va ularni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari; xorijiy investorlar uchun beriladigan imtiyozlarda yagona siyosat yuritish; jalb etiladigan investitsiyalarning manbalari va shakllarini soha va hududlar kesimida belgilash nazarda tutiladi.
----	---	--------------------	--	---	---	---

11	To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish.	2019-yil 1-mart	Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasi, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, vazirlik va idoralar	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlashning zamonaviy shakl hamda usullarini joriy etish nazarda tutiladi.
----	---	--------------------	--	---	---	--

11	Investorlarga taqdim etish uchun hududlar va tarmoqlar kesimidagi dastlabki investitsiya loyihalari portfelini shakllantirish.	2019-yil 1-iyul	Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, vazirlik va idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	Hisob-kitoblar ga asosan	Ijrochilar mablag'lari	Chora-tadbirlar dasturi. Dasturda: mamlakat va yaqin qo'shni davlatlar tomonidan import qilinayotgan ehtiyoj yuqori bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun mavjud energiya, tabiiy va mehnat resurslaridan samarali foydalanish; hududlardagi mavjud imkoniyatlar va investitsiya loyihalari haqidagi ma'lumotlarning ochiqqligini ta'minlash; xususiylashtirish va davlat-xususiy sheriklik tamoyillari asosida amalga oshiriladigan yirik loyihalarni (aeroport, yo'l qurilish, elektr energetika va kimyo sanoat sohalarida) belgilash nazarda tutiladi.
----	---	--------------------	---	--------------------------	------------------------	--

11	To'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalarini jalb qilish sohasida olib borilayotgan chora-tadbirlar samarasini yanada oshirish, yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirishda mas'ul tashkilot va idoralar hamkorligini kuchaytirish maqsadida investitsion konsalting kompaniyasini tashkil qilish va uning huzurida alohida investitsiya portalini yaratish.	2019-yil 1-mart	Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi, Adliya vazirligi, Bosh prokuratura, DXX, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralar	Hisob-kitoblar ga asosan	Ijrochilar mablag'lari	Amal✦y chora-tadbirlar. Bunda: iqtisodiyot tarmoqlari va boshqa sohalarda yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya jalb qilish bo'yicha barcha davlat organlari va tashkilotlarining harakatlarini birlashtirish; ustuvor investitsiya loyihalari bo'yicha investitsiya takliflarini ko'rib chiqish va chet el investorlariga konsultatsiya xizmatlarini ko'rsatish; xorijiy investorlar bilan uchrashuvlar tashkil qilish, yuzaga kelayotgan muammolarni hal qilish uchun mas'ul idoralarni jalb qilish; O'zbekiston Respublikasining investitsiya salohiyatini, investorlar uchun yaratilayotgan imkoniyat va sharoitlarni keng targ'ib qilish; chet el investorlariga investitsiya loyihalarini amalga oshirishda barcha turdagi huquqiy, moliyaviy-iqtisodiy va
----	--	--------------------	--	--------------------------------	---------------------------	---

11	O'zbekistonning investitsiyaviy imkoniyatlarini chet davlatlar, investitsiyaviy bank va kompaniyalarga taqdimot qilish maqsadida “investitsiya xab” larini yaratish.	2019-yil 1-aprel	Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi, TIV, tijorat banklari, Savdo-sanoat palatasi	Hisob-kitoblar ga asosan	Ijrochilar mablag'lari	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyiha: respublika hududlarida “investitsiya xab”larini tashkil etish; taklif etilayotgan aniq investitsiyaviy loyihalar va respublikaning investitsiyaviy jozibadorligini ko'rsatish; investorlar uchun istiqbolli loyihalarni taqdim etish, zarur hollarda mahalliy sheriklarni aniqlash; investorlarga zarur bo'lgan ruxsat olish, loyiha hujjatlarini tayyorlash va loyihani amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal etishga ko'maklashish; loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha qo'shimcha manbalarni aniqlash; yirik moliyaviy nashrlar tomonidan davriy tashkil qilinadigan taqdimotlarda ishtirok etish; xalqaro investitsiyaviy banklar va boshqa tashkilotlarni jalb
----	---	---------------------	---	--------------------------	------------------------	--

11	Foydalanishga cheklovlar mavjud ma'lumotlar ro'yxatini qayta ko'rib chiqish.	2019- yil 1-aprel	Vazirlar Mahkamasi, Adliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi, "Davyergeodezk adastr" qo'mitasi, DXX, Mudofaa vazirligi, FVV, "O'zbekneftgaz" AJ, Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi	—	—	Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi. Loyihada: investitsiya va yuqori texnologiyalarni jalb etishga to'siq bo'layotgan cheklovlarni bekor qilish; neft va gaz tarmog'iga oid yopiq ma'lumotlarni xatlovdan o'tkazib, ulardan ochiq foydalanish imkonini yaratish; qonun hujjatlariga muvofiq sir saqlanadigan ma'lumotlar ro'yxatini, tegishli tarmoqlar ro'yxatlarini qayta ko'rib chiqish; geodeziya va kartografiya sohasida davlat sirlarini saqlash va ochiq foydalaniladigan kartografik materiallarni yaratish tartibini ishlab chiqish nazarda tutiladi.
----	---	-------------------------	---	---	---	--

11	O‘zbekiston Respublikasining xalqaro obligatsiyalarini chiqarishni tashkil etish va suveren kredit reytingini saqlab turish va yaxshilash chora-tadbirlarini ko‘rish.	2019-yil 20-fevral	Moliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Markaziy bank, Adliya vazirligi, Bosh prokuratura, Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasi, O‘zbekiston tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi	—	—	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi. Loyihada: O‘zbekiston Respublikasi suveren kredit reytingini 2021-yilgacha saqlab turish va yaxshilash bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar rejasini tasdiqlash; xalqaro tashkilotlarning indeks va reytinglarida O‘zbekistonning ishtirokini ta’minlash; O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida savdoga qo‘yiladigan, dastlabki joylashtirilishi moliyaviy tashkilotlar guruhi tomonidan ta’minlanadigan emission qimmatli qog‘ozlar — xalqaro obligatsiyalarni chiqarish nazarda tutiladi.
----	--	--------------------	---	---	---	--

11	O'zbekistonning global raqobatbardoshlik indeksida qatnashishini ta'minlash.	2019- yil 1- fevral	Vazirlar Mahkamasi, Moliya vazirligi, Loyiha boshqaruvi milliy agentligi, Adliya vazirligi, Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi, Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi, Markaziy bank, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi	—	—	Chora- tadbirlar dasturi. Dasturda global raqobatbardoshli k indeksida qatnashishni ta'minlash bo'yicha amaliy choralar nazarda tutiladi.
----	---	------------------------------	---	---	---	---

11	Erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari faoliyatini yanada takomillashtirish.	2019-yil 1-aprel	Vazirlar Mahkamasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, vazirlik va idoralar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasi, vazirlik va idoralar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	—	—	Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari. Loyihada kichik sanoat zonalarini tashkil etishni investitsiyaviy-iqtisodiy asoslantirish, ishtirokchilarni joylashtirish, imtiyoz va preferensiyalar berishni tartibga solish nazarda tutiladi. Loyiha bilan Erkin iqtisodiy zonalarni rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlanib, unda: erkin iqtisodiy zonalarda ixtisoslashuvni, investitsiya loyihalarini tanlash mezonlarini, taqdim etiladigan imtiyozlar va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning boshqa turlarini belgilash; erkin iqtisodiy zonalarda investorlarni jalb qilish bo‘yicha zarur shart-sharoitlarni yaratish, jumladan muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi, ijtimoiy va madaniy jamoat obyektlari bilan ta’minlash; erkin iqtisodiy zonalar boshqaruv tizimini
----	--	---------------------	--	---	---	--

12	Erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari faoliyatining huquqiy asoslarini takomillashtirish.	2019-yil 1-mart	Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Adliya vazirligi	—	—	O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi. Loyihada erkin iqtisodiy zonalar bo'yicha qabul qilingan qonun hujjatlarini xatlovdan o'tkazish asosida "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini ishlab chiqish nazarda tutiladi.
----	--	--------------------	--	---	---	---

12	Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish.	2019-yil 1-mart	Davlat-xususiy sheriklik agentligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi, Adliya vazirligi	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish belgilangan hujjatlarni xatlovdan o'tkazib, yondashuv, tartib va amalga oshirish mexanizmini unifikatsiyalash; loyihalar amalga oshiriladigan soha va korxonalar ro'yxatini shakllantirish hamda shartlarini belgilash; infratuzilma obyektlarini qurish va ulardan foydalanish, kommunal xizmat ko'rsatish sohalarida davlat-xususiy sheriklikni joriy qilish rejasini tasdiqlash nazarda tutiladi.
----	---	--------------------	--	---	---	---

12	O‘zbekiston Respublikasining “Konsessiyalar to‘g‘risida” gi Qonunini qayta ko‘rib chiqish.	2019-yil 1-mart	Davlat-xususiy sheriklik agentligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Adliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasi	—	—	O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi. Loyihada: konsessiya obyektlarini berish, shartnomani rasmiylashtirish, davlat va investorlarning o‘zaro munosabatlarini aniq tartibga soluvchi mexanizmlarni belgilash; “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi qonun loyihasini “Konsessiyalar to‘g‘risida”gi Qonun normalarini inobatga olgan holda qayta ko‘rib chiqish nazarda tutiladi.
3.9. Jahon bozorlariga integratsiya qilish va eksportni qo‘llab-quvvatlash						

12	Fermer va dehqon xo'jaliklari tomonidan yetishtirilgan mahsulotlar eksporti hajmini yanada ko'paytirish.	2019-yil 1-iyun	Tashqi savdo vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyal arini rivojlantirish vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: har bir hududda yirik hajmli muzlatkich va shok muzlatish uskunalari, gidrokulyerlarni o'rnatish va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlarni eksportga tayyorlashni tashkil etish; har bir hududda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, saqlash, ichki va tashqi bozorga sotishga ixtisoslashgan kooperativlar tashkil etish; milliy eksport-import portalini tashkil etish orqali dunyoning barcha nuqtalarida mahsulotlarga mavjud talab va taklif haqida ma'lumotlarni "onlayn" rejimida tezkor olish imkoniyatini yaratish; respublika va chet elda meva-sabzavotlarni realizatsiya qilish bo'yicha zamonaviy savdo-logistika majmualari — "xab" larni o'z ichiga olgan savdo
----	---	-----------------	---	---	---	--

12	Respublikada eksport hajmini oshirishga xizmat qiladigan chegaraoldi savdo markazlarini tashkil etish.	2019-yil 1-sentabr	Tashqi savdo vazirligi, TIV, Adliya vazirligi, Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: chegaraoldi hududlarda dilerlik markazlari, mehmonxonalar, umumiy ovqatlanish va boshqa turdagi maishiy xizmat ko'rsatish obyektlaridan tashkil topgan savdo majmualarini barpo etish; vizasiz tartib joriy qilinmagan chet el fuqarolariga ma'lum muddat davomida savdo majmuasi hududiga viza rasmiylashtirmas dan tashrif buyurishga ruxsat berish nazarda tutiladi.
----	---	--------------------	---	---	---	--

12	Bojxona tartibotlarini soddalashtirish hamda davlat-xususiy sheriklik asosida tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash.	2019-yil 1 fevral	Davlat bojxona qo‘mitasi, Tashqi savdo vazirligi, Davlat-xususiy sheriklik agentligi, vazirlik va idoralar	—	—	Chora-tadbirlar rejasi. Rejada: yangi zamonaviy chegaradan o‘tkazish terminallarini davlat-xususiy sheriklik asosida barpo etish uchun texnik va moliyaviy shartlarni tayyorlash; 2019 — 2021-yillarda davlat-xususiy sheriklik asosida kamida 8 ta, shundan 2019-2020-yillarda 4 ta o‘tkazish terminallarini barpo etish; chegara bojxona postlarida nazorat tartibotlarini bajarishda sanitariya-epidemiologiya, fitosanitariya va veterinariya nazorati organlari faoliyatini samarali va operativ muvofiqlashtirish; ; barcha chegara-bojxona postlari infratuzilmasini tegishli miqdorda zamonaviy inspeksiya ko‘rik majmualari (skanyerlar) va bojxona nazoratining boshqa texnika vositalari bilan jihozlash nazarda tutiladi.
----	---	-------------------	--	---	---	---

12	Eksport-import operatsiyalari amalga oshirishni yanada takomillashtirish, jumladan rasmiylashtirish muddatlarini, zarur hujjatlar sonini hamda xarajatlarni qisqartirish.	Yil davomi da	Davlat bojxona qo‘mitasi, Tashqi savdo vazirligi, Adliya vazirligi, vazirlik va idoralar	—	—	Amaliy chora-tadbirlar. Bunda “yagona darcha” unifikatsiya qilingan bojxona axborot tizimini takomillashtirish hamda sertifikatlar va ruxsat berish tusidagi hujjatlarning o‘z vaqtida tizimga kiritilishini ta’minlash choralari amalga oshiriladi.
----	--	---------------	--	---	---	---

12	Eksport qilinayotgan mahalliy mahsulotlarning xorijiy davlatlardagi rasmiylashtiruv vaqtini qisqartirish choralarini ko‘rish.	2019-yil 1-noyabr	Tashqi savdo vazirligi, Davlat bojxona qo‘mitasi, TIV, Adliya vazirligi, “O‘zstandart” agentligi	—	—	Chora-tadbirlar dasturi. Dasturda: eksport qilinayotgan mahsulotlar xorijiy mamlakatlar hududiga yetib borishidan oldin ruxsat etuvchi (muvofiqlik va veterinariya sertifikatlari, karantin ruxsatnomasi va boshqalar) hujjatlarni real vaqt rejimida almashish, uni vakolatli organlar o‘rtasida integratsiyalash bo‘yicha dasturiy ta’minotni ishlab chiqish; asosiy eksport qilinadigan, eksport salohiyati mavjud mamlakatlardagi vakolatli organlar bilan o‘simliklar karantini, sanitariya-epidemiologik nazorat, standartlar va veterinariya sohasida xalqaro shartnomalar tuzish, mavjudlarini qayta ko‘rib chiqish orqali nazoratni soddalashtirish nazarda tutiladi.
----	---	-------------------	---	---	---	---

12	Eksportga yo‘naltirilayotgan tovarlar uchun tariflarni arzonlashtirish va eksport logistikasi samaradorligini oshirish.	2019-yil 1-mart	Tashqi savdo vazirligi, Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi, Moliya vazirligi, Adliya vazirligi, “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ, “O‘zbekiston havo yo‘llari” MAK	—	—	Chora-tadbirlar dasturi. Dasturda: eksportga yo‘naltirilgan tovarlarni “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ temir yo‘llarida tashish xizmatlarini budjetdan qisman qoplash mexanizmini yaratish; Jahon bankining “logistika samaradorligi indeksi”dagi o‘rnimizni kamida 20 pozitsiyaga yaxshilash; xorijiy davlatlarning (Qozog‘iston, Rossiya, Turkmaniston, Eron, Ozarbayjon va boshqalar) temir yo‘llarida yuklarni tashish uchun preferensiyalar olish choralari ko‘rish nazarda tutiladi.
----	---	----------------------------	--	---	---	---

12	Eksportyorlarni tashqi bozor konyunkturasidagi o'zgarishlar to'g'risidagi axborotlar bilan ta'minlovchi yagona o'zaro integratsiyalashgan axborot tizimini shakllantirish.	2019-yil 1-sentabr	Tashqi savdo vazirligi, Savdo-sanoat palatasi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi	—	—	Amaliy chora-tadbirlar. Bunda: tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi asosida xorij mamlakatlarida joriy qilingan bojxona to'lovlari va soliq stavkalari to'g'risida ma'lumotlarni joylashtirish; tashqi bozorlarda ho'l va qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlariga bo'lgan talabni, bozorlarga kirish shart-sharoitlarini, mavjud cheklovlarni doimiy o'rganish; tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari uchun tashqi savdo operatsiyalarini kuzatish imkoniyatini beruvchi "shaxsiy kabinet" yaratish nazarda tutiladi.
----	--	--------------------	--	---	---	---

13	O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda import bojxona boji va qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadigan texnologik jihozlar va xomashyo ro'yxatini qayta ko'rib chiqish.	2019-yil 1-mart	Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Moliya vazirligi, Tashqi savdo vazirligi, Davlat bojxona qo'mitasi	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada ro'yxatga kiritilmagan uskunalarni kiritish, texnologik uskunalar hamda ularning butlovchi va ehtiyot qismlari hisoblanmagan tovarlarni ro'yxatdan chiqarish nazarda tutiladi.
13	Tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlarini tizimlashtirish.	2019-yil 1-iyul	Tashqi savdo vazirligi, Adliya vazirligi, vazirlik va idoralar	—	—	Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari. Loyihalarda tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlarini tizimlashtirish orqali mavjud qoidalar soddalashtiriladi va kodifikatsiya qilinadi.

13	Bojxona qonun hujjatlari buzilishi xavfi yuqori bo'lgan tovar va tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilarini aniqlash vositalaridan samarali foydalanish uchun xavfni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimi joriy etilishini jadallashtirish.	2019-yil 1-iyul	Davlat bojxona qo'mitasi	—	—	Chora-tadbirlar rejasi. Rejada bojxona qonun hujjatlari buzilishi xavfi yuqori bo'lgan tovar va tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari ro'yxatini "Xavfni boshqarish" avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali shakllantirish nazarda tutiladi.
----	---	-----------------	--------------------------	---	---	---

13	Avtomobil, temir yo‘l va havo transporti yo‘llarining o‘tkazuvchanlik holatini oshirish.	Yil davomida	Vazirlar Mahkamasi, Tashqi savdo vazirligi, Avtomobil yo‘llari davlat qo‘mitasi, “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ, “O‘zbekiston havo yo‘llari” MAK, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi	Hisob-kitoblar ga asosan	Davlat budjeti va loyihaga jalb qilingan tadbirkorlar mablag‘lari	Chora-tadbirlar dasturi. Dasturda: mamlakat hududi bo‘ylab o‘tgan xalqaro darajadagi avtomobil yo‘llarining, ayniqsa, davlat chegarasi orqali o‘tish punktlariga olib boradigan tirband yo‘llarning o‘tkazuvchanlik qobiliyatini oshirish maqsadida loyihaviy yechimlarni ishlab chiqish; respublikaning tranzit salohiyatidan keng foydalanish; davlat dasturlarini shakllantirishda mavjud temir yo‘l tarmoqlarining o‘tkazuvchanligini oshirishga e‘tibor qaratish; havo transporti orqali eksport hajmini oshirish va mazkur sohaga xorijiy havo kompaniyalarini keng jalb qilish nazarda tutiladi.
IV. IJTIMOIIY SOHANI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI						
4.1. Aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirish						

13	Eng kam oylik ish haqi miqdorini belgilash tartibini qayta ko'rib chiqish.	2019-yil 1-mart	Moliya vazirligi, Mehnat vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Markaziy bank	—	—	Chora-tadbirlar dasturi. Dasturda: soliq va boshqa to'lovlarning eng kam ish haqi miqdori bilan bog'liq bo'lishiga barham berish; xodimlarning ish haqi miqdorini yagona tarif setkasi bo'yicha tarif koeffitsiyentini oshirish hisobiga ko'paytirish; pensiya, stipendiya va nafaqalar miqdorini yagona tarif setkasi bo'yicha tarif koeffitsiyentlarini oshirish ko'rsatkichidan kelib chiqib ko'paytirish nazarda tutiladi.
----	--	--------------------	---	---	---	--

13	Mehnat munosabatlarini takomillashtirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining yangi tahririni ishlab chiqish.	2019-yil 20-dekabr	Mehnat vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Moliya vazirligi, Adliya vazirligi, Kasaba uyushmalari Federatsiyasi, Savdo-sanoat palatasi	—	—	O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi. Loyihada: bozor iqtisodiyoti talabidan kelib chiqib, norasmiy mehnatdan foydalanishning oldini olishga qaratilgan rag‘batlantiruvchi normalar; ishning o‘ziga xos xususiyatiga ko‘ra, mehnat shartnomasini tuzish va bekor qilishning soddalashtirilgan tartibi, xodim bilan bir vaqtda ish beruvchining ham manfaatlarini ifodalaydigan qoidalar; Xalqaro mehnat tashkilotining tavsiyalarini implementatsiya qilish va mehnat munosabatlarini to‘g‘ridan to‘g‘ri tartibga soluvchi normalar nazarda tutiladi.
----	--	--------------------	--	---	---	--

13	Ish o‘rinlarini tashkil etishni yanada rag‘batlantirish mexanizmlarini joriy etish.	2019-yil 30-yanvar	Mehnat vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Moliya vazirligi, Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasi, tijorat banklari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	—	—	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi. Loyiha bilan 2019-yil uchun Bandlikka ko‘maklashish davlat dasturi tasdiqlanadi. Davlat dasturida: davlat buyurtmasi mexanizmini joriy etish hisobiga iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik subyektlarida kamida 221,5 ming doimiy ish o‘rni yaratish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirish; fuqarolarni tashkillashtirilgan holda xorijiy davlatlarda ishga joylashtirish orqali 200,4 ming aholini ish bilan ta‘minlash; bandlikka ko‘maklashish markazlari orqali 338,7 ming fuqaroni ish bilan ta‘minlash; kasbga o‘qitish, huquqiy va boshqa turdagi maslahatlar berish kabi ijtimoiy yordamning nomoliyaviy usullaridan keng foydalanish; maqsadli dasturlarga muvofiq mikro kreditlash
----	--	--------------------	---	---	---	---

13	Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish istagida bo‘lgan ishsiz fuqarolarga, ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarni ishga qabul qilgan ish beruvchilarga Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya taqdim etish tizimini yaratish.	2019-yil 1-mart	Mehnat vazirligi, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Savdo-sanoat palatasi	6,3 mlrd so‘m	Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: aholi bandligiga ko‘maklashish markazida ro‘yxatdan o‘tgan, tadbirkorlik qilishni xohlovchi ishsiz shaxslarga ro‘yxatdan o‘tish, kichik korxonalar va mikrofirmalarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, tadbirkorlikka o‘qitish va kredit olishda sug‘urta polisi to‘lovi uchun xarajatlarni eng kam oylik ish haqi 10 baravari miqdorida to‘lash; ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam son dan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga — har bir xodim uchun har oyda eng kam oylik ish haqining 2 baravari miqdorida haq to‘lash. Bunda ishga qabul qilingan shaxslar bandligini eng kam son oshgan sanadan boshlab kamida 12 oy davomida
----	---	--------------------	--	---------------	--	--

13	Mehnatga layoqatli fuqarolarning bandligi va mehnat faoliyatining "shaxsiy tarixi"ni aks ettiruvchi "Yagona milliy mehnat tizimi" idoralararo dasturiy kompleksini yaratish.	2019-yil 1-oktabr	Mehnat vazirligi, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi, Davlat statistika qo'mitasi, Davlat personallashtirish markazi, Xalq banki, Kasaba uyushmalari Federatsiyasi	5,2 mln AQSh dollari	Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: ish bilan band har bir fuqaro va har bir ish o'rnining hisobini yuritish imkonini beradigan idoralararo dasturiy kompleksni yaratish, elektron mehnat daftarchasi va elektron mehnat shartnomalarini yuritishni nazarda tutuvchi 6 oylik o'tish davrini inobatga olgan holda maxsus axborot tizimini ishga tushirishga oid tashkiliy chora-tadbirlar; elektron bazaga ma'lumotlar o'z vaqtida va to'liq kiritilmaganligi uchun ma'muriy javobgarlik choralari nazarda tutiladi.
----	---	-------------------	---	----------------------	--	--

13	World Skills International (WSI) uyushmasi va sohaning boshqa xalqaro yetakchi tashkilotlari metodologiyasi bo'yicha ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va axborot texnologiyalari sohalarida ishchilarni o'qitish tizimini joriy etish.	2019-yil 1-sentabr	Mehnat vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi	—	—	Chora-tadbirlar rejasi. Rejada: “O'qish — World Skills imtihonini topshirish” kasbga o'qitish tamoyilini joriy etish; Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan moliyalashtirish orqali band bo'lmagan fuqarolarni kasbga o'qitish va malakasini oshirishni tashkil etish; boshqa xalqaro yetakchi tashkilotlar metodologiyalari asosida o'qitish va malaka oshirish tizimini joriy etish nazarda tutiladi.
----	--	--------------------	---	---	---	--

14	O'zbekistonda yoshlarni kasbiy o'qitishning zamonaviy tizimini joriy etish va rivojlantirish maqsadida xalqaro “World Skills International” uyushmasiga qo'shilish.	2019-yil 1-dekabr	Mehnat vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi	10 mlrd so'm	Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari	Amaliy chora-tadbirlar. Mehnat vazirligi va boshqa manfaatdor idoralar muassisligida “World Skills Uzbekistan” uyushmasini tashkil etish; “World Skills Uzbekistan” boshchiligida ishchi kasblar bo'yicha milliy chempionatni o'tkazish; O'zbekiston delegatsiyasining 2019-yilda Qozon shahri (Rossiya)da bo'lib o'tadigan “World Skills International” jahon chempionatida qatnashishini ta'minlash ishlari amalga oshiriladi.
----	--	-------------------	---	--------------	--	---

14	Xalqaro standartlarga muvofiq kasbiy malakani baholash tizimini joriy etish.	2019-yil 1-fevral	Mehnat vazirligi, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi	—	—	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi. Loyihada: Mehnat vazirligidan akkreditatsiyadan o'tgan nodavlat tashkilotlarga fuqarolar malakasini oshirish va kasbiy malakasini baholash huquqini berish; fuqarolar malakasini oshirish va kasbiy malakani baholash tashkilotlari tizimi yaratilishini, jumladan davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari asosida rag'batlantirish; nodavlat tashkilotlar tomonidan fuqarolarga belgilangan namunadagi kasbiy ko'nikmani tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etish; barcha ishchi va xizmatchilarga kasbiy malakasini inobatga olgan holda tabaqalashtirilgan haq to'lash tizimini joriy etish nazarda tutiladi.
----	---	-------------------	--	---	---	---

14	Mehnat guzarlari va kovorking markazlarida fuqarolarni tadbirkorlik loyihalari tayyorlash bo'yicha o'qitish amaliyotini joriy etish.	2019-yil 1-mart	O'zbekiston yoshlar ittifoqi, Mehnat vazirligi, Savdo-sanoat palatasi	Hisob-kitoblar ga asosan	Ijrochilar mablag'lari	Chora-tadbirlar rejasi. Rejada: O'zbekiston yoshlar ittifoqi, Savdo-sanoat palatasi tuzilmalari orqali fuqarolarni mehnat guzarlari va kovorking markazlarida tadbirkorlik loyihalarini tayyorlash bo'yicha o'qitish; tadbirkorlik faoliyatini boshlagan fuqarolarni birinchi yilda badaldan ozod etgan holda, Savdo-sanoat palatasiga a'zo qilish va ularda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish nazarda tutiladi.
----	--	--------------------	---	--------------------------	------------------------	---

14	O'zbekiston Respublikasi "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida" gi Qonunining yangi tahririni ishlab chiqish.	2019-yil 1-iyul	Mehnat vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Adliya vazirligi, Kasaba uyushmalari Federatsiyasi	—	—	O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi. Loyihada: ish b o ruvchining iqtisodiy mustaqilligi tamoyilini kuchaytirish; qonunosti hujjatlardagi normalarni bevosita qonunda belgilash; o'zini o'zi band qilishning zamonaviy va samarali shakllari, jumladan masofaviy mehnat, frilansing kabi faoliyat turlarini kengaytirish va uning maqomini belgilash nazarda tutiladi.
4.2. Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish						
14	Bolalikdan nogironligi bo'lgan farzandlarning onalarini yanada qo'llab-quvvatlash.	2019-yil 20-fevral	Moliya vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Mehnat vazirligi	3,6 mlrd so'm	Davlat budjeti mablag'lari	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada bolalikdan nogironligi bo'lgan farzandlarning onalariga ular pensiya tayinlash uchun zarur ish stajiga ega bo'lmagan taqdirda, ijtimoiy nafaqa tayinlash nazarda tutiladi.

14	Pensiya tayinlash uchun zarur hujjatlarni yig'ish jarayonini tubdan optimallashtirish.	2019-yil 1-iyul	Moliya vazirligi, "O'zarxiv" agentligi, Mehnat vazirligi, Adliya vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, vazirlik va idoralar	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: arxivlardagi ma'lumotlarning elektron bazasini yaratish; idoralararo axborot almashuvini joriy etish; davlat xizmatlari markazi orqali pensiya va Pensiya jamg'armasi tomonidan to'lanadigan ijtimoiy nafaqa tayinlash davlat xizmatini yo'lga qo'yish nazarda tutiladi.
----	---	-----------------	--	---	---	---

14	Bolaning oilada yashash va tarbiyalanish huquqini kafolatlash maqsadida patronatga (oila tarbiyasiga) berish amaliyotini kengaytirish.	2019-yil 1-may	Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, "Oila" ilmiy-amaliy markazi	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: patronat tizimini kengaytirish hisobiga to'liq davlat ta'minotidagi bolalar sonini kamaytirish; patronatga berilgan bolalar uchun nafaqa miqdorini eng kam oylik ish haqi uch baravaridan sakkiz baravariga oshirish, patronatga berilgan bolalar hayotini monitoring qilish tizimini joriy etish nazarda tutiladi.
----	--	-------------------	---	---	---	---

14	Tibbiyot muassasalarida qurilish-ta'mirlash va jihozlash ishlarini amalga oshirish.	Yil davomi da	Sog'liqni saqlash vazirligi, Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Qurilish vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	972,3 mlrd so'm	O'zbekiston Respublikasi davlat rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirish jamg'armasi mablag'lari	Amaliy chora-tadbirlar. Bunda 231 ta tibbiyot obyektida, jumladan 13 ta respublika, 44 ta viloyat tasarrufidagi muassasalar, 59 ta tuman va shahar tibbiyot birlashmalari, 99 ta qishloq, shahar oilaviy poliklinikalar va qishloq vrachlik punktlari, 16 ta boshqa tibbiyot muassasalarida 972,3 mlrd so'mlik qurilish-ta'mirlash va jihozlash ishlarini amalga oshirish nazarda tutiladi. Xususan, 27 ta yangi obyekt qurish, 176 ta obyektни rekonstruksiya qilish va 28 ta obyektни mukammal ta'mirlash ishlari olib boriladi.
----	---	---------------	--	-----------------	--	---

14	Tibbiy xizmat sifatini yaxshilash va ko'lamini kengaytirish maqsadida davolash-profilaktika muassasalarini jihozlash.	Yil davomida	Sog'liqni saqlash vazirligi, Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	109,6 mln AQSh dollari	Xalqaro moliya institutlari mablag'lari	Amaliy chora-tadbirlar. Bunda 2019-yilga mo'ljallangan Investitsiya dasturi doirasida loyihalarni amalga oshirish, tarmoq jadvallarini tasdiqlash va davolash-profilaktika muassasalarini zarur tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlash ishlari amalga oshiriladi.
----	---	--------------	--	------------------------	---	--

14	Tez tibbiy yordam xizmatini avtotransport vositalari bilan ta'minlash.	Yil davomi da	Sog'liqni saqlash vazirligi, Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi	Hisob-kitoblar ga asosan	Tez tibbiy yordamni rivojlan-tirish jamg'armasi mablag'lari	Amaliy chora-tadbirlar. Tez tibbiy yordam xizmati uchun jahon talablariga mos bo'lgan, harakatlanish davomida bemorga reanimatsion tibbiy yordam ko'rsatish imkonini beradigan 75 ta reanimobillar va harakatlanishi qiyin yo'llardan yura oladigan 50 ta maxsus tez tibbiy yordam avtomashinalari sotib olinadi. Shoshilinch yordam xizmatini yangi bosqichga ko'tarish maqsadida aviatsiya texnikasi bilan ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshiriladi.
15	Xususiy tibbiyot xizmati sohasini yanada rivojlantirish va sohaga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish.	Yil davomi da	Sog'liqni saqlash vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	Hisob-kitoblar ga asosan	Tashabbuskorlar mablag'lari	Amaliy chora-tadbirlar. Respublika bo'yicha 272 ta, jumladan 47 ta chet el investitsiyasi ishtirokidagi xususiy tibbiyot muassasalari tashkil etiladi.

15	Tibbiyot kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishda rivojlangan davlatlar oliy tibbiy ta'lim muassasalarining keng ishtirokini ta'minlash.	Yil davomi da	Sog'liqni saqlash vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, TIV	—	—	Amaliy chora-tadbirlar. O'zbekistonda gi tibbiyot ta'lim muassasalarida Koreya Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Germaniya va Italiya tibbiyot universitetlarining qo'shma dasturlari, qo'shma fakultet va filiallarini tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar ko'riladi.
----	--	---------------	--	---	---	---

15	Aholiga ko'rsatilayotgan onkologik tibbiy xizmat sifatini oshirish va profilaktik tadbirlar qamrovini kengaytirish.	2019-yil 1-may	Sog'liqni saqlash vazirligi, Innovatsion sog'liqni saqlash milliy palatasi, TIV, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Xotin-qizlar qo'mitasi	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: onkologik kasalliklarni erta aniqlash bo'yicha maxsus skrining dasturini qabul qilish va uni moliyalashtirish manbalarini aniqlash; ayollarda bachadon bo'yi va ko'krak bezi saratonini erta aniqlash uchun maxsus skrining dasturini tasdiqlash; bachadon bo'yi va ko'krak bezi saratoni "kanser registri"ni shakllantirish; tibbiyot muassasalarini saratonga qarshi dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan uzluksiz ta'minlash; xayriya mablag'larini jalb qilish uchun maxsus hisob raqamiga ega jamoat onkologiya harakatini shakllantirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar nazarda tutiladi.
----	---	-------------------	---	---	---	---

15	Sanitariya-epidemiologiya xizmatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha choralar ko'rish.	2019-yil 15-fevral	Sog'liqni saqlash vazirligi, Mehnat vazirligi, Moliya vazirligi, Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi	Hisob-kitoblar ga asosan	Davlat budjeti, xalqaro moliya institutlari mablag'lari	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: samarasiz sanitariya-gigiyena laboratoriyalarini optimallashtirib, ular negizida zamonaviy tumanlararo laboratoriyalar tashkil etish; DSENMlarini ng vaksina saqlash omborxonalarini ta'mirlash va rekonstruksiya qilish; kasalliklarni nazorat qilish markazlari bo'yicha xorijiy tajribani o'rgangan holda DSENMlari faoliyatini tubdan qayta ko'rib chiqish; shtatlar me'yorlarini tanqidiy qayta ko'rib chiqib, ish jarayoniga samarali metodlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish hisobiga samarasiz shtat birliklarini maqbullashtirish; DSENMlarini ng moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, jumladan vaksinalarni saqlashga mo'ljallangan 30 ta sovutgich, 230 ta muzlatgich, 15 ta avtorefrigerator
----	--	--------------------	--	--------------------------	---	--

15	Davlat budjeti hisobidan qoplanadigan kafolatlangan tibbiy yordam hajmini belgilash.	2019-yil 1-iyun	Sogʻliqni saqlash vazirligi, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Innovatsion sogʻliqni saqlash milliy palatasi, Adliya vazirligi	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada aholiga koʻrsatilayotgan tibbiy yordamning davlat tomonidan qoplanadigan kafolatlangan hajmi va turlarini aniq belgilash nazarda tutiladi.
15	Davlat tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish.	2019-yil 1-aprel	Sogʻliqni saqlash vazirligi, Moliya vazirligi	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: 16 ta tumandagi tibbiyot muassasalarini “har bir davolangan holat” uchun klinik-xarajat guruhlari boʻyicha va kishi boshiga moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish; “mablagʻ bino uchun emas, balki bemor uchun” tamoyili asosida ishni tashkil etish nazarda tutiladi.

15	Davlat tomonidan nogironligi bo'lgan shaxslarni protez-ortopediya buyumlari va texnik reabilitatsiya vositalari bilan bepul ta'minlashni yaxshilash.	Yil davomida	Sog'liqni saqlash vazirligi, Moliya vazirligi	16 mlrd so'm	Davlat budjeti mablag'lari	Amaliy chora-tadbirlar. Bunda davlat tomonidan nogironligi bo'lgan shaxslarga 13 mingta protez-ortopediya buyumlari, 10 mingta nogironlik aravachalari, 2 ming juft eshitish apparatlari, 3 mingta hassa, 2 ming juft qo'ltiq tayoq bilan bepul taqdim etiladi.
15	Uzoq qishloq va ovullarda o'zgalar parvarishiga muhtoj yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarga muntazam ravishda tibbiy ijtimoiy yordam ko'rsatuvchi "mobil ijtimoiy guruhlar" faoliyatini tashkil qilish.	2019-yil 1-oktabr	Sog'liqni saqlash vazirligi, Mehnat vazirligi, "Sog'lom avlod uchun" jamg'armasi, "Nuroni" jamg'armasi, Xotin-qizlar qo'mitasi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi	—	Davlat budjeti va homiyar mablag'lari	Chora-tadbirlar rejasi. Rejada uzoq qishloq va ovullarda o'zgalar parvarishiga muhtoj yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarga muntazam ravishda tibbiy ijtimoiy yordam ko'rsatuvchi tibbiy va ijtimoiy xodimlar, "Qizil yarim oy" jamiyati xodimlari, maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalari, Yoshlar ittifoqi vakillaridan iborat "mobil ijtimoiy guruhlar" faoliyatini tashkil etish nazarda tutiladi.

15	Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti va xalqaro moliya institutlari ko‘magida Farg‘ona va Qashqadaryo viloyatlarida yuqumli bo‘lmagan kasalliklarning (infarkt, insult, qandli diabet, surunkali nafas a‘zolari kasalliklari) oldini olish loyihasini amalga oshirish.	Yil davomi da	Sog‘liqni saqlash vazirligi, Farg‘ona va Qashqadaryo viloyatlari hokimliklari	—	Xalqaro moliya institutlari mablag‘lari	Amaliy chora-tadbirlar. Bunda: 40 yoshdan oshgan fuqarolarda maxsus tekshiruvlar va savolnoma asosida yuqumli bo‘lmagan kasalliklarni keltirib chiqaruvchi xavf omillarini erta aniqlash bo‘yicha skrining tadbirlarini o‘tkazish; birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarining umumiy amaliyot shifokorlari va patronaj hamshiralarini maxsus dastur asosida o‘qitish nazarda tutiladi.
----	---	---------------	---	---	---	--

15	Xalq genofondini saqlash uchun homilador ayollar va bolalarning ovqatlanish ratsionini yanada yaxshilash dasturini ishlab chiqish.	2019-yil 20-aprel	Sogʻliqni saqlash vazirligi, Innovatsion sogʻliqni saqlash milliy palatasi, vazirlik va idoralar	—	—	Chora-tadbirlar dasturi. Dasturda xalqimiz genofondini saqlash uchun homilador ayollar va bolalarning ovqatlanish ratsionini yaxshilash boʻyicha xalqaro tajribani oʻrganish, ilmiy asoslangan holda tahlil qilish va amaldagi meʼyorlarni qayta koʻrib chiqish nazarda tutiladi.
----	---	-------------------	--	---	---	--

16	Majburiy tibbiy sug'urta mexanizmlarini joriy etishning huquqiy asoslarini takomillashtirish.	2019-yil 1-iyul	Sog'liqni saqlash vazirligi, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Innovatsion sog'liqni saqlash milliy palatasi	—	—	O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi. Loyihada: 2021-yildan boshlab majburiy tibbiy sug'urta tizimini bosqichma-bosqich joriy etish; majburiy tibbiy sug'urta tizimiga bosqichma-bosqich o'tish bo'yicha normativ-huquqiy bazani shakllantirish; sog'liqni saqlash ehtiyoji uchun ajratilayotgan pul mablag'larini jamlash va taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish; “har bir to‘liq davolangan holat” hisobidan kelib chiqib moliyalashtirish mexanizmlarini joriy qilish; tibbiy sug'urta dasturlarini amalga oshirishga nodavlat tibbiyot tashkilotlarini keng jalb etish nazarda tutiladi.
----	--	-----------------	---	---	---	--

16	Neyrosensor kar yoki zaif eshitadigan bolalarda koxlear implantatlardan foydalangan holda operatsiyalar o'tkazish.	Yil davomi da	Sog'liqni saqlash vazirligi	26,5 mlrd so'm	Davlat budjeti mablag'lari	Amaliy chora-tadbirlar. Bunda neyrosensor kar yoki zaif eshitadigan nogironligi bo'lgan bolalarning eshitish qobiliyatini tiklash bo'yicha operatsiyalar o'tkaziladi.
16	O'zbekiston Respublikasida nuklear tibbiyot markazini tashkil etish konsepsiyasini ishlab chiqish.	2019-yil 1-iyul	Sog'liqni saqlash vazirligi, Innovatsion sog'liqni saqlash milliy palatasi, vazirlik va idoralar	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi: Loyihada: O'zbekiston Respublikasida nuklear tibbiyot markazini tashkil etish konsepsiyasini ishlab chiqish; nuklear tibbiyotni rivojlantirish orqali inson organizmidagi o'zgarishlarni barvaqt aniqlash, kasalliklarga ilk bosqichida tashxis qo'yish va onkologik kasalliklarni samarali davolash imkonini yaratish nazarda tutiladi.

16	Tibbiyot muassasalari tarkibida umidsiz og'ir bemorlar uchun xospis bo'limlarini tashkil qilish.	2019-yil 1-oktabr	Sog'liqni saqlash vazirligi, Innovatsion sog'liqni saqlash milliy palatasi, Moliya vazirligi, vazirlik va idoralar	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi: Loyihada tibbiyot muassasalaridagi bo'sh turgan hudud va mavjud o'rinlardan samarali foydalanish, ular tarkibida umidsiz og'ir bemorlar uchun xospis bo'limlarini tashkil qilish, zarur moddiy-texnik vositalar bilan jihozlash va faoliyatini tashkil etish masalalari nazarda tutiladi.
----	---	-------------------	--	---	---	--

16	Davlat tibbiyot muassasalari faoliyatini ularning natijadorligi ko'rsatkichlari asosida baholashning reyting tizimini joriy etish.	2019-yil 1-may	Sog'liqni saqlash vazirligi, Innovatsion sog'liqni saqlash milliy palatasi, vazirlik va idoralar	—	—	Idoraviy normativ-huquqiy hujjati loyihasi: Loyihada: Sog'liqni saqlash vazirligi tasarrufidagi tibbiyot muassasalar❖ faoliyatini baholashning reyting tizimini joriy etish; har yil yakuniga ko'ra, mazkur reytingni ommaviy axborot vositalari va vazirlik saytida e'lon qilish; baholashni muassasa faoliyatining yakuniy natijalari va o'lchanadigan ko'rsatkichlari asosida o'tkazish; birlamchi tibbiyot muassasalarida profilaktika bilan bog'liq ko'rsatkichlarga alohida e'tibor qaratish; reyting natijasiga ko'ra, eng yuqori baholangan muassasalar rahbarlari va xodimlarini Sog'liqni saqlash vazirligi mablag'lari hisobidan rag'batlantirish, past baho olganlarga mehnat shartnomasini bekor qilishgacha bo'lgan
----	---	-------------------	---	---	---	---

16	Keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar va aholining boshqa ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlash va ularga ijtimoiy xizmat ko'rsatish sohasida maxsus vakolatli davlat organini tashkil etish.	2019-yil 1-iyun	Vazirlar Mahkamasi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Moliya vazirligi, Mehnat vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi	—	—	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni loyihasi. Loyihada: aholining ehtiyojmand qatlamlari — keksalar, nogironligi bo'lgan bolalar va katta yoshdagi shaxslar, yolg'izlar, yetim va ota-ona qarovsiz qolgan bolalar, kam ta'minlangan oilalar, voyaga yetmagan ko'p bolali oilalar, 2 yoshgacha bola parvarish qilayotgan onalar, muqim yashash joyi bo'lmagan shaxslarni manzilli ijtimoiy himoya qilish, ularga samarali ijtimoiy xizmatlarni tashkil qilish, abilitatsiya, reabilitatsiya qilish vazifalarini bajarishga ixtisoslashgan maxsus vakolatli davlat organini tashkil etish nazarda tutiladi.
----	--	--------------------	--	---	---	--

16	Irsiy kasalliklarning oldini olish maqsadida yaqin qarindoshlar o'rtasida nikohni taqiqlashning huquqiy asoslarini takomillashtirish.	2019-yil 1-iyul	Sog'liqni saqlash vazirligi, Adliya vazirligi, vazirlik va idoralar	—	—	O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi. Loyihada irsiy kasalliklarning oldini olish maqsadida yaqin qarindoshlar o'rtasida nikohni taqiqlash masalasining huquqiy asoslarini takomillashtirish va bu borada targ'ibot ishlarini amalga oshirish nazarda tutiladi.
16	Og'ir turmush sharoitida yashayotgan xotin-qizlarni yanada qo'llab-quvvatlash.	2019-yil 20-fevral	Xotin-qizlar qo'mitasi, Mehnat vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	—	—	Amaliy chora-tadbirlar. Bunda og'ir turmush sharoitida yashayotgan xotin-qizlar korxonalardagi bo'sh va kvotalangan ish o'rinlariga joylashtiriladi, hunarmandchilik, oilaviy tadbirkorlik va boshqa yo'nalishlarda manzilli asosda ish bilan ta'minlanadi.

16	Og‘ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarni uy-joy narxining boshlang‘ich to‘lov miqdorini to‘lab berish orqali qo‘llab-quvvatlash.	Yil davomi da	Xotin-qizlar qo‘mitasi, “Oila” ilmiy-amaliy markazi, Xotin-qizlarni va oilani qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi, Moliya vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	60 mlrd so‘m	Xotin-qizlarni va oilani qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi mablag‘lari	Amaliy chora-tadbirlar. Tadbir doirasida 1 584 nafar og‘ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarga, nogironligi bo‘lgan, kam ta‘minlangan, farzandlarini to‘liqsiz oilada tarbiyalayotgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj onalarga imtiyozli ipoteka krediti asosida arzon uy-joylar beriladi.
16	Xotin-qizlar tadbirkorligini yanada rivojlantirish.	Yil davomi da	Xotin-qizlar qo‘mitasi, Xotin-qizlar va oilani qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi, tijorat banklari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	100 mlrd so‘m	Xotin-qizlar va oilani qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi mablag‘lari	Amaliy chora-tadbirlar. Tadbir doirasida Xotin-qizlar va oilani qo‘llab-quvvatlash fondi orqali xotin-qizlar tadbirkorligini yanada rivojlantirishga 100 mlrd so‘m imtiyozli kredit ajratiladi.

17	Xotin-qizlarga har tomonlama yordam ko'rsatish va oiladagi nizoli vaziyatlarning barvaqt oldini olish borasidagi ishlarni tizimli asosda tashkil etish.	Yil davomi da	Xotin-qizlar qo'mitasi, Ichki ishlar vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, "Mahalla" xayriya jamoat fondi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	Hisob-kitoblar ga asosan	Ijrochilar mablag'lari	Amaliy chora-tadbirlar. Tadbir doirasida 61 ta tumanda zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish hamda o'z joniga qasd qilishning oldini olish markazlari tashkil etiladi.
4.3. Arzon uy-joylar barpo etish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini ta'minlovchi yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish						

17	Arzon uy-joylar qurish dasturini izchil davom ettirish, namunaviy uylar loyihalarini takomillashtirish, energiya tejamkor texnologiyalarni qo'llash, zamonaviy va arzon qurilish materiallaridan foydalanish choralarini ko'rish.	Yil davomi da	Qurilish vazirligi, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Innovatsiya vazirligi, tijorat banklari, "Qishloqqurilish invest" MChJ, "O'zshaharqurilish invest" MChJ, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, vazirlik va idoralar	3 451,5 mlrd so'm 193,7 mln AQSh dollari 808,2 mlrd so'm	Davlat budjeti mablag'lari Xalqaro moliya institutlari mablag'lari Ijrochilar mablag'i	Amaliy chora-tadbirlar. Bunda: uy-joylarning ichki va tashqi konstruksiyalari, qurilish materiallarini maqbul, arzon va sifatli qurilish materiallariga o'zgartirish, ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash orqali qurilish materiallari tannarxini maqbullashtirish; 2 sotixli 2 va 3 xonali uy-joylarni massivning bosh rejasida joylashtirishda xo'jalik yo'lini qayta ko'rib chiqish orqali narxni maqbullashtirish; qishloq joylarda va fuqarolarning alohida toifalari uchun 15 010 ta arzon uy-joylar qurilishi; shaharlarda 355 ta ko'p qavatli uylar qurilishi nazarda tutiladi.
----	---	---------------	---	--	--	---

17	Respublika huddolaridagi aholi punktlarida ichimlik suvi ta'minoti va oqova suv tarmog'ini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish.	Yil davomida	Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi, Qurilish vazirligi, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	1 100,5 mlrd so'm 95,6 mln AQSh dollari	Davlat budjeti mablag'lari, Ichimlik va oqova suvi tizimini rivojlantirish jamg'armasi Xalqaro moliya institutlari mablag'lari	Amaliy chora-tadbirlar. Bunda: 200 ta ichimlik suv va 24 ta oqova suv tarmog'ini rivojlantirish loyihalari doirasida 879,4 km ichimlik suv va 57,6 km oqova suv tarmoqlarini hamda 134 ta ichimlik suv hamda 3 ta oqova inshootlarini rekonstruksiya qilish va qurish; xalqaro moliya institutlari ishtirokida 4 ta ichimlik suv va 3 ta oqova suv tarmog'ini rivojlantirish loyihalari doirasida 98 km magistral, 487 km ichimlik suv va 93 km oqova tarmoqlarini hamda 18 ta ichimlik suv va 6 ta oqova inshootlarini qurish hamda rekonstruksiya qilish ishlari amalga oshiriladi.
----	--	--------------	---	---	--	---

17	Ko'p qavatli uy-joy fondini to'liq inventarizatsiyadan o'tkazib, xorijiy tajriba asosida renovatsiya dasturini ishlab chiqish.	2019-yil 1-may 2019-yil 1-sentabr	Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi, Qurilish vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, vazirlik va idoralar	—	—	Amaliy chora-tadbirlar. Bunda ko'p qavatli uy-joy fondi to'liq xatlovdan o'tkaziladi. Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada favqulodda holatlarning oldini olish va ko'p kvartirali uylarda istiqomat qilayotgan fuqarolarning hayoti xavfsizligini ta'minlash maqsadida eskirib qolgan ko'p qavatli uylar o'rnida bosqichma-bosqich yangi uy-joylar qurish bo'yicha renovatsiya dasturlarini tasdiqlash nazarda tutiladi.
17	Respublika uy-joy fondining isitish tizimlarini yaxshilash.	Yil davomida	Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	42,9 mlrd so'm	Davlat budjeti mablag'lari	Amaliy chora-tadbirlar. Bunda respublika hududidagi 5 ta mahalliy qozonxonani rekonstruksiya qilinadi va 1,7 km issiqlik ta'minoti tarmoqlari ta'mirlanadi.

17	Uy-joy mulkdorlari shirkatlarida ma'muriy xarajatlarni kamaytirish uchun professional boshqaruv kompaniyalari faoliyatini qo'llab-quvvatlash.	2019-yil 20-aprel	Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihad ² uy- ² oy m ² ldorlari shirkatlarida ma'muriy xarajatlarni kamaytirish uchun ularni davlat-xususiy sheriklik bo'yicha investorlarga berish nazarda tutiladi.
17	Ichimlik suv ta'minoti korxonalari ma'lumotlar bazasi va geoaxborot markazlashgan tizimini yaratish.	2019-yil 1-dekabr	Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi, "Davyergeodezk adastr" qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	Hisob-kitoblar ga asosan	Ijrochilar va xalqaro moliya institutlari mablag'lari	Amaliy chora-tadbirlar. Bunda ichimlik suv ta'minoti korxonalarida billing va geoaxborot tizimlari joriy etiladi.

17	Aholi uchun qulaylik yaratish maqsadida transport-logistika infratuzilmasini yanada rivojlantirish, yangi temir yo'llar qurish va elektrlashtirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish choralarini ko'rish.	Yil davomida	“O'zbekiston temir yo'llari” AJ, Moliya vazirligi, Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi, O'zbekiston tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	572,8 mlrd so'm 630 mln AQSh dollari	Davlat budjeti mablag'lari Xalqaro moliya institutlari, O'zbekiston tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari, korxonalar o'z mablag'lari	2019-yilga mo'ljallangan Investitsiya dasturi doirasida amalga oshiriladigan loyihalarning tarmoq jadvallari. Bunda: 2 ta yangi “Boeing 787 Dreamliner” samolyotini xarid qilish, “Toshkent-Sharqiy” zamonaviy aeroportini qurish; “Andijon-Savay-Xonobod” temir yo'l uchastkasini modernizatsiya qilish, Toshkent metropolitenining Yunusobod, Sirg'ali va Toshkent shahrining aylanma yer usti qismining birinchi bosqichini qurish nazarda tutiladi.
----	---	--------------	---	--------------------------------------	---	---

17	Shahar ko'chalari va boshqa aholi punktlarining ichki yo'llarini kapital va joriy ta'mirlash.	Yil davomi da	Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	250 mlrd so'm	Davlat budjeti mablag'lari	Amaliy chora-tadbirlar. Bunda qishloq, shahar, shahar posyolkalari va ovul yo'llarini kapital va joriy ta'mirlash ishlari amalga oshiriladi.
----	--	---------------	--	---------------	----------------------------	---

17	Atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish konsepsiyasini ishlab chiqish.	2019-yil 1-iyun❖	Davlat ekologiya qo‘mitasi, Davlat geologiya qo‘mitasi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Moliya vazirligi, Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Suv xo‘jaligi vazirligi, Fanlar akademiyasi	—	—	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi. Loyiha bilan Atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish konsepsiyasi tasdiqlanadi. Konsepsiyada : aholi salomatligi uchun qulay sharo❖tlar yarat❖sh, ekologik muvozanatni saqlash va barqaror rivojlanishda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni tartibga solish; er, yer osti boyliklari, suv, o‘rmonlar, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar, hayvonot va o‘simlik dunyosi obyektlari sifatini ta’minlash va antropogen ta’sirdan muhofaza qilish nazarda tutiladi.
----	---	------------------	---	---	---	--

18	Biologik xilma-xillikni saqlash bo'yicha strategiyani ishlab chiqish.	2019-yil 1-may	Davlat ekologiya qo'mitasi, Davlat geologiya qo'mitasi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Moliya vazirligi, Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Suv xo'jaligi vazirligi	—	—	Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi. Loyihada: Biologik xilma-xillikni saqlash bo'yicha uzoq muddatga mo'ljallangan tashkiliy-iqtisodiy kompleks tadbirlarni o'z ichiga olgan dasturni tasdiqlash; flora va fauna turlarini saqlashni barqarorlashtirish nazarda tutiladi.
----	--	-------------------	--	---	---	--

18	O'zbekiston Respublikasining 2019-2028-yillarga mo'ljallangan qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish strategiyasini ishlab chiqish.	2019-yil 1-mart	Davlat ekologiya qo'mitasi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Moliya vazirligi, Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	—	—	Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi. Loyiha bilan maishiy chiqindilar boshqaruvi bo'yicha uzoq muddatli tashkiliy-iqtisodiy tadbirlarni o'z ichiga olgan dastur tasdiqlanadi. Dasturda: qattiq maishiy chiqindilar hosil bo'lishini kamaytirish, maishiy chiqindi hosil bo'lishining o'sish jarayoni va ularning xavfliligini kamaytirish; qattiq maishiy chiqindilar va ulardagi foydali tarkibiy qismlarni qayta ishlash orqali ulardan ikkilamchi xomashyo sifatida foydalanish; qattiq maishiy chiqindilardan energiya olish, maishiy chiqindilardan biogaz va sintez-gaz olish, ulardan muqobil energiya sifatida elektr hamda issiqlik energiyasi ishlab chiqarish yoki maishiy gaz sifatida foydalanish nazarda tutiladi.
----	--	--------------------	---	---	---	---

18	Sanitariya-tozalash xizmatlari faoliyatini yanada kengaytirish.	Yil davomi da	Davlat ekologiya qo‘mitasi, Moliya vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	163,4 mlrd so‘m	Davlat budjeti mablag‘lari	Amaliy chora-tadbirlar. Bunda maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni yanada takomillashtirish va “Toza hudud” DUK moddiy-texnika bazasini mustahkamlash maqsadida hududlarda 644 ta chiqindi yig‘ish maydonchasi quriladi, 3 623 ta konteyner o‘rnatiladi va 245 ta maxsus texnika xarid qilinadi.
18	Magistral telekommunikatsiya transport tarmoqlarini kengaytirish.	Yil davomi da	Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi	Hisob-kitoblarga asosan	Ijrochilar, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg‘armasi va xalqaro moliya institutlari mablag‘lari	Amaliy chora-tadbirlar. Bunda “O‘zbektelekom” AK magistral telekommunikatsiya tarmog‘i o‘tkazuvchanligini viloyat markazlarigacha 100 Gbit/s dan 400 Gbit/s gacha, tuman markazlarigacha 10 Gbit/s dan 100 Gbit/s gacha oshirish choralari ko‘riladi.
18	Mobil aloqa tarmog‘ini kengaytirish.	Yil davomi da	Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, “O‘zbektelekom” AK	Hisob-kitoblarga asosan	Ijrochilar mablag‘lari	Amaliy chora-tadbirlar. Bunda mobil aloqa tarmog‘ini kengaytirish maqsadida 1050 ta GSM baza stansiyalari o‘rnatiladi.

18	Keng polosali ma'lumotlar uzatish tarmoqlarini rivojlantirish.	Yil davomi da	Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyal arini rivojlantirish vazirligi, "O'zbektelekom" AK	458,2 mlrd so'm	Xorijiy banklar, uskuna yetkazib beruvchilar kreditlari	Amaliy chora-tadbirlar. Bunda: 620 000 portli ma'lumotlar uzatish qurilmalari o'rnatiladi; loyihani amalga oshirish natijasida aholiga (Triple play) Internet, IP va video telefoniya, IPTV, VPN va boshqa turdagi zamonaviy xizmatlarni taqdim etish imkoniyatlari kengaytiriladi.
18	Optik tolali aloqa liniyalarini qurish.	Yil davomi da	Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyal arini rivojlantirish vazirligi, telekommunikatsiya operatorlari	47,2 mlrd so'm	Telekommunikatsiya operatorlari o'z mablag'lari	Amaliy chora-tadbirlar. Bunda: 2 000 km optik tolali aloqa liniyalarini quriladi; loyihani amalga oshirish natijasida aholiga sifatli keng polosali telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatish imkoniyati kengaytiriladi.
4.4. Madaniyat, sport va turizmni yanada rivojlantirish						

18	Moddiy madaniy meros obyektlaridan foydalanish tartibini ishlab chiqish.	2019-yil 1-avgust	Madaniyat vazirligi, Adliya vazirligi, “Davyergeodezskadastr” qo‘mitasi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Moliya vazirligi	—	—	Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi. Loyihada moddiy madaniy meros obyektlarini qisqa va uzoq muddatli ijaraga hamda tekin foydalanishga berish tartibini belgilash, moddiy madaniy meros obyektlaridan oqilona va samarali foydalanish nazarda tutiladi.
18	Moddiy madaniy meros obyektlarining davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishini ta’minlash.	Yil davomida	Madaniyat vazirligi, “Davyergeodezskadastr” qo‘mitasi, Moliya vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	Hisob-kitoblar ga asosan	Respublika va mahalliy budget mablag‘lari	Amaliy chora-tadbirlar. Bunda moddiy madaniy meros obyektlarini texnik xatlovdan o‘tkazish, ularning kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, ularning muhofaza belgilarini o‘rnatish ta’minlanadi.

18	Yurtimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish hamda ularni kelajak avlodga yetkazish choralari ko'rish.	2019-yil 1-fevral	Madaniyat vazirligi, Fanlar akademiyasi, Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	Hisob-kitoblar ga asosan	Ijrochilar va mahalliy budget mablag'lari	Chora-tadbirlar rejasi. Rejada: Fanlar akademiyasining Arxeologiya va San'atshunoslik institutlari tomonidan olib borilayotgan hamda oliy o'quv yurtlari va muzeylardagi arxeologik izlanishlarni chet ellik hamkorlar bilan birga tashkil etish; respublika muzeylarida saqlanayotgan tarixiy eksponatlarni to'liq xatlovdan o'tkazish, uning yakuni bo'yicha har bir muzeyning katalogini yaratish nazarda tutiladi.
----	---	-------------------	--	--------------------------	---	--

19	O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi tarkibida “O'zbekiston tarixi” kanalini tashkil etish.	2019-yil 1-fevral	O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, Madaniyat vazirligi, Fanlar akademiyasi, Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Moliya vazirligi	—	—	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi. Loyihada: buyuk alloma va adiblar, aziz-avliyolarning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratish maqsadida maxsus kanal tashkil etish; ilmiy jamoatchilik, ijodkor ziyolilar bilan birgalikda kanal dasturlarini puxta shakllantirish nazarda tutiladi.
----	---	-------------------	--	---	---	--

19	Tarixiy shaxslar, allomalar haqida badiiy, badiiy-publitsistik, hujjatli filmlar va seriallar yaratish.	Yil davomida	“O‘zbekkino” agentligi, O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, Madaniyat vazirligi, Din ishlari bo‘yicha qo‘mita, Respublika ma‘naviyat va ma‘rifat markazi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi	Hisob-kitoblar ga asosan	Ajratilgan budget mablag‘lari doirasida, ishlab chiqaruvchilarning mablag‘lari	Amaliy chora-tadbirlar. Bunda: buyuk ajdodlarimiz Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi kabi davlat arboblari, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ulug‘ shoir va adiblar, Imom Buxoriy, Abu Rayhon Beruniy kabi allomalar haqida badiiy, badiiy-publitsistik, hujjatli filmlar va seriallar yaratish; jahondagi eng yirik kino studiyalari, prodyusyerlar va aktyorlarni jalb qilish, kino sanoati vakillarining kasb mahoratini rivojlantirish, xalqimiz va uning buyuk tarixini xalqaro hamjamiyat e‘tiboriga yetkazish nazarda tutiladi.
----	--	--------------	--	--------------------------	--	--

19	Tarixiy shaxslar va milliy obrazlar aks etgan animatsion filmlar yaratish.	Yil davomida	“O‘zbekkino” agentligi, O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi	Hisob-kitoblariga asosan	Ajratilgan budget mablag‘lari doirasida, ishlab chiqaruvchilarning mablag‘lari	Amaliy chora-tadbirlar. Bunda: milliy qahramonlar va obrazlar (Alpomish, Shiroq, To‘maris, Xo‘ja Nasriddin va boshqalar), shuningdek, zamonaviy mavzudagi animatsion filmlar yaratish; dunyo bolalari sevib tomosha qiladigan mashhur multfilmlar darajasidagi o‘zbek multfilmini dunyoga tanitadigan milliy qahramonlar obrazini yaratish nazarda tutiladi.
19	Teatr san’ati sohasida xalqaro festival va konferensiya o‘tkazish.	2019-yil 1-iyul	Madaniyat vazirligi, Moliya vazirligi	Hisob-kitoblariga asosan	Davlat budjeti, madaniyat va san’atni rivojlan-tirish jamg‘armasi hamda xayriya mablag‘lari	Amaliy chora-tadbirlar. Bunda o‘zbek teatr san’atini jahon miqyosida targ‘ib qilish va rivojlangan davlatlarning teatrlari bilan hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yish choralari ko‘riladi.

19	O'zbekistonda yozgi Osiyo o'yinlaridan birini o'tkazish dasturini ishlab chiqish.	2019-yil 1-aprel	Jismoniy tarbiya va sport vazirligi, Milliy olimpiya qo'mitasi, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Qurilish vazirligi, TIV	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada yozgi Osiyo o'yinlaridan birini O'zbekistonda o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar nazarda tutiladi.
19	2020-yil Tokio shahri (Yaponiya)da o'tkaziladigan Olimpiya o'yinlariga munosib tayyorgarlik ko'rish.	Yil davomi da	Jismoniy tarbiya va sport vazirligi, Milliy olimpiya qo'mitasi	Hisob-kitoblar ga asosan	Davlat budjeti va homiylar mablag'lari	Amaliy chora-tadbirlar. Bunda: 2020-yil Tokio shahri (Yaponiya)da o'tkaziladigan Olimpiya o'yinlariga munosib tayyorgarlik ko'rish; Olimpiya o'yinlari uchun yo'llanmalar qo'lga kiritiladigan musobaqalarda sportchilar ishtirokini to'liq ta'minlash bo'yicha budjet va homiylar mablag'lari miqdorini oshirish nazarda tutiladi.

19	Sport bo'yicha malakali trenyerlar, hakamlar va boshqa mutaxassislarni, jumladan professor-o'qituvchilarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish.	Yil davomi da	Jismoniy tarbiya va sport vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Innovatsiya vazirligi, Milliy olimpiya qo'mitasi	—	—	Amaliy chora-tadbirlar. Bunda: xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda sport bo'yicha malakali mutaxassislar tayyorlash, professor-o'qituvchilarning malakasini oshirish bo'yicha aloqalarni yo'lga qo'yish; O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzurida Sankt-Peterburg shahridagi P.F.Lesgaft nomidagi Jismoniy tarbiya, sport va salomatlik milliy universitetining fakultetini, Rossiya Jismoniy tarbiya, sport, turizm va yoshlar universitetining filialini tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshiriladi.
----	--	---------------	--	---	---	---

19	Respublikada bolalar va o'smirlar sport maktablarini tashkil etish, umumta'lim maktablari sport inshootlarini qurish, rekonstruksiya qilish va doimiy jihozlash bo'yicha davlat dasturini ishlab chiqish.	2019-yil 1-iyul	Jismoniy tarbiya va sport vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Moliya vazirligi, Qurilish vazirligi, Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi	Hisob-kitoblar ga asosan	Davlat budjeti va homiyar mablag'lari	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: respublika bo'yicha, jumladan chekka hududlarda bolalar va o'smirlar sport maktablarini tashkil etish; xalq ta'limi tizimidagi sport inshootlarini to'liq xatlovdan o'tkazish; xatlov natijalariga ko'ra, joriy ta'mirlash, rekonstruksiya qilish va yangi sport inshootlarini qurish bo'yicha 5 yillik dasturni qabul qilish; foydalanilayotgan sport inshootlarini sport inventarlari bilan doimiy jihozlash choralarini ko'rish nazarda tutiladi.
----	---	--------------------	--	--------------------------------	--	---

19	Turizmning yangi turlarini rivojlantirish va mavsumiylik omili ta'sirini kamaytirish maqsadida ishbilarmonlik turizmini ("MICE") rivojlantirish.	2019-yil 30-mart	Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi, Madaniyat vazirligi, Jismoniy tarbiya va sport vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi, vazirlik va idoralar	—	—	Chora-tadbirlar rejasi. Rejada: xalqaro va mahalliy ahamiyatdagi tadbirlarni o'tkazish dasturini tuzish hamda mavsumiylik omilini inobatga olgan holda tadbirlar sanasini belgilash; ish-bilarmonlik tadbirlarini o'tkazish nuqtai nazaridan bino va mehmonxonalarning ro'yxatini shakllantirish nazarda tutiladi.
----	---	------------------	--	---	---	--

19	Uzoq va yaqin xorijiy mamlakatlardan turistlar sonini yanada oshirish, ularning mamlakat ichida erkin harakatlanishini ta'minlash maqsadida avitransport tizimini yanada takomillashtirish.	Yil davomida	Vazirlar Mahkamasi, Parvozlar xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Tashqi savdo vazirligi	—	—	Amaliy chora-tadbirlar. Bunda: mamlakat aviatahshishlar bozorida kam budjetli aviakompaniyalar (loulkostyerlar) va tijorat aviatsiya xizmati ko'rsatuvchi kompaniyalar uchun qulay shart-sharoit yaratish; aeroportlar infratuzilmasini va aeronavigatsiya xizmati ko'rsatishni rivojlantirish; aeroportlar xizmatlarini ko'rsatishda xususiy sektor ishtiroki va raqobat muhitini ta'minlash, "ochiq osmon" rejimini joriy etish; asosiy turizm bozori bo'lgan davlatlardan respublika hududlariga to'g'ridan to'g'ri aviaqatnovni yo'lga qo'yish ishlari amalga oshiriladi.
----	---	--------------	---	---	---	--

20	Mintaqaviy transport aloqalarini rivojlantirish.	2019-yil 1-noyabr	Tashqi savdo vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi, Moliya vazirligi, Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi, "O'zavtotrans" agentligi, "O'zbekiston havo yo'llari" MAK, "O'zbekiston temir yo'llari" AJ	—	—	Normativ-huquqiy hujjatlar va xalqaro shartnomalar loyihalari. Bunda: loukostyerlarni jalb etish, aviareyslar va temir yo'l reyslari sonini oshirish; mamlakat hududlari va mintaqa mamlakatlari orasida muntazam avtobus, temir yo'l va aviaqatnovlarni joriy etish; turli transport reyslari o'rtasida qulay muvofiqlikni tashkil etish nazarda tutiladi.
----	---	-------------------	--	---	---	--

20	Respublikaga turistlar oqimini yanada kengaytirish maqsadida mashhur xalqaro brendlar asosida faoliyat yurituvchi yetakchi kompaniyalar filiallarini O‘zbekistonda ochish choralarini ko‘rish.	Yil davomi da	Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasi, Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi, Tashqi savdo vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimligi	Hisob-kitoblar ga asosan	Xorijiy va mahalliy investorlar mablag‘lari	Amaliy chora-tadbirlar. Bunda: xalqaro brendlar asosida oziq-ovqat, sport, savdo xizmatlari, sog‘liqni saqlash va boshqa sohalarida faoliyat yurituvchi yirik kompaniyalar bilan muzokaralar o‘tkazish; Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari tomonidan tegishli loyihalarni amalga oshirish choralari ko‘riladi.
4.5. Ta’lim va fan sohasini rivojlantirish						

20	Maktabgacha ta'limning qamrovini kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish.	Yil davomida	Maktabgacha ta'lim vazirligi, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Qurilish vazirligi, Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	1 654 mlrd so'm	O'zbekiston Respublikasi davlat rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirish jamg'armasi mablag'lari	Amaliy chora-tadbirlar. Bunda: 2019-yilda 447 ta maktabgacha ta'lim muassasasida qurilish va rekonstruksiya qilish ishlari; 6 yoshdagi bolalarni hafta davomida kamida 15 soatli maktabgacha tayyorlov guruhlariga jalb etish; shaharlarda yangi uy-joy komplekslari qurilishiga ruxsat berishda yangi maktabgacha ta'lim muassasalari qurilishini ta'minlash; yangi maktabgacha ta'lim muassasalari loyihalarini yaratish ishlari amalga oshiriladi.
----	--	--------------	---	-----------------	--	--

20	Davlat maktabgacha ta'lim muassasalari tomonidan qo'shimcha pulli xizmatlar ko'rsatish ni joriy etish.	2019-yil 1-mart	Maktabgacha ta'lim vazirligi, Moliya vazirligi, Adliya vazirligi, Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: davlat maktabgacha ta'lim muassasalari tomonidan dam olish kunlari va ish kuni yakunlangandan keyin bolani parvarishlash, unga qarab turish va o'qitish; belgilangan dasturdan tashqari sport-sog'lomlashtirish (karate, taekvondo, suzish, shaxmat, shashka, gimnastika, massaj va boshqalar) to'garaklari, badiiy-estetik, fan to'garaklari tashkil etib, qo'shimcha xizmatlar ko'rsatish nazarda tutiladi.
----	---	--------------------	--	---	---	--

20	Barcha hududlarda Prezident maktablarini tashkil etish.	Yil davomi da	Xalq ta’limi vazirligi, Moliya vazirligi, Qurilish vazirligi, Investitsiyalar bo’yicha davlat qo’mitasi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Qoraqalpog’iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	Hisob- kitoblar ga asosan	O‘zbekiston Respublikasi davlat rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirish jamg’armasi, Xalq ta’limini rivojlantirish jamg’armasi va homiyilar mablag’lari	Amaliy chora- tadbirlar. Dastlab Nukus shahrida, keyinchalik boshqa hududlarda bosqichma- bosqich yangi turdagi maktablar — Prezident maktablari tashkil etiladi.
20	O‘quvchilar uchun barcha qulayliklarga ega bo‘lgan zamonaviy ta’lim muassasalarini barpo etish bo’yicha “Zamonaviy maktab” dasturini qabul qilish.	2019- yil 1-iyul	Xalq ta’limi vazirligi, Qurilish vazirligi, Investitsiyalar bo’yicha davlat qo’mitasi, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi	—	—	Normativ- huquqiy hujjat loyihasi. Loyiha bilan 2020-2024- yillarga mo‘ljallangan “Zamonaviy maktab” dasturi tasdiqlanadi. Dasturda yillar va hududlar kesimida “Zamonaviy maktab”lar qurish bo’yicha manzilli dastur va ularni moliyalashtirish manbalari nazarda tutiladi.

20	Umumta'lim maktablarini jihozlash tartibi va ularga qo'yilgan talablarni takomillashtirish.	2019-yil 1-avgust	Xalq ta'limi vazirligi, Moliya vazirligi, Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi, Sog'liqni saqlash vazirligi, "O'zstandart" agentligi	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: jihozlarga qo'yilgan texnik talablar (dizayni)ni qayta ko'rib chiqish; ilg'or xorijiy tajribani o'rgangan holda jihozlarga qo'yilgan talablarni takomillashtirish nazarda tutiladi.
20	Xalq ta'limi muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish maqsadida bir nafar o'quvchiga xarajatlarning bazaviy normativlaridan kelib chiqqan holda "mablag' o'quvchi ortidan" tamoyili asosida bosqichma-bosqich moliyalashtirish tizimiga o'tish.	Yil davomida	Xalq ta'limi vazirligi, Moliya vazirligi, vazirlik va idoralar	—	—	Amaliy chora-tadbirlar. Bunda xalq ta'limi muassasalari uchun ajratilayotgan mablag'larni taqsimlash jarayonida shaffof mexanizmni yaratish maqsadida 2019-yil 1-martdan boshlab eksperiment tariqasida bir na?ar o'quvchiga xarajatlarning bazaviy no?mativlaridan kelib chiqqan holda "mablag' o'quvchi ortidan" tamoyili asosida moliyalashtirish tizimi joriy etiladi.

20	Davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat umumiy oʻrta taʼlim muassasalari faoliyatini yoʻlga qoʻyish.	2019-yil 1-iyul	Xalq taʼlimi vazirligi, Taʼlim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, vazirlik va idoralar	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada davlat-xususiy sheriklik asosida nodavlat umumiy oʻrta taʼlim muassasalarini tashkil etish va ularda taʼlim sifatini taʼminlash nazarda tutiladi.
----	--	-----------------	--	---	---	--

20	Respublika oliy ta'lim muassasalarining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash sifatini ta'minlashda hamkorlik aloqalarini rivojlantirish.	2019-yil 1-sentabr	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Tashqi ishlar vazirligi, Moliya vazirligi, Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi	Hisob-kitoblar ga asosan	Oliy ta'lim muassasalari ning budgetdan tashqari mablag'lari	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: oliy ta'lim muassasalarini QS, TNE kabi xalqaro reyting agentliklarining ro'yxatiga kiritish bo'yicha "yo'l xaritasi"ni tasdiqlash; xorijiy hamkor oliy ta'lim muassasalari bilan birgalikda mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan ta'lim dasturlari (yo'nalishlari, mutaxassisliklari) bo'yicha kadrlar tayyorlashni rivojlantirish; respublika oliy ta'lim muassasalarining ta'lim dasturlari va imkoniyatlari haqida xorijda taqdimotlar va axborotlarni namoyish etish orqali xorijiy talabalar uchun respublikada ta'lim berish imkoniyatlarini kengaytirish; kadrlar buyurtmachilari, jumladan xususiy tadbirkorlik subyektlari bilan davlat-xususiy sheriklik asosida nodavlat oliy ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish chora-tadbirlari nazarda tutiladi.
----	---	--------------------	---	--------------------------	--	---

21	Istiqbolda respublika oliy ta'lim tizimini rivojlangan davlatlar oliy ta'lim tizimiga integratsiya qilish, modul tizimi asosida ta'lim jarayonini tashkil etish hamda talabalar va professor-o'qituvchilarning mobilligini yo'lga qo'yish maqsadida "Bolonya jarayoni"ga qo'shilish yuzasidan amaliy choralar ko'rish.	2019-yil 1-may	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, tasarrufida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirlik va idoralar	—	—	Chora-tadbirlar rejasi. Rejada: xorijiy davlatlarning "Bolonya jarayoni"ga o'tgan va samarali faoliyat olib borayotgan oliy ta'lim tizimlari tajribasini o'rganish; O'zbekiston oliy ta'lim tizimining "Bolonya jarayoni"ga qo'shilishi uchun tashkiliy chora-tadbirlarni ko'rish; respublika oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini modul tizimi asosida tashkil etish uchun mavjud normativ-huquqiy bazani qayta ko'rib chiqish, yangi tartib va qoidalarni joriy etish; "Bolonya jarayoni" talablariga muvofiq tegishli xorijiy oliy ta'lim muassasalari tomonidan oliy ma'lumot to'g'risida berilgan diplomlarni O'zbekiston Respublikasida tan olish tartibining maqbul tizimini yaratish nazarda tutiladi.
----	--	-------------------	--	---	---	--

21	Kasblar va mutaxassisliklarning murakkablik darajasidan kelib chiqqan holda, ta'lim dasturlari muddatini tabaqalashtirgan holda kasbiy ta'limni tashkil etish va maqsadli kadrlar tayyorlash tizimini kengaytirish.	2019-yil 1-mart	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Kasb-hunar ta'limi markazi, Moliya vazirligi, Mehnat vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, tasarrufida ta'lim muassasalari bo'lgan vazirlik va idoralar	Hisob-kitoblar asosida	Tasarrufida ta'lim muassasalari bo'lgan vazirlik va idoralarning mablag'lari, boshqa manbalar	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: toifalangan kasb-hunar ta'lim muassasalarini tashkil etish xususiyatlari, moliyalashtirish manbalari; bakalavriat dasturi bilan integratsiyalashgan "Boshlang'ich oliy maktablar"; vazirlik va idoralar tasarrufida faoliyat yuritadigan "idoraviy" ta'lim muassasalari; har bir tumanda kamida 2 tadan "ko'p tarmoqli kasb-hunar ta'lim muassasalari"; kasb-hunar ta'lim muassasalarida yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish; umumta'lim maktablariga faoliyati tugatilayotgan kasb-hunar kollejlari binolarini berish nazarda tutiladi.
----	---	--------------------	--	------------------------	---	---

21	Rivojlangan xalqaro ta'lim standartlarini inobatga olib, kasb-hunar ta'limi tizimining davlat ta'lim standartlari, ta'lim muassasalarining toifalari va o'qitish muddatlari bo'yicha kasblar va mutaxassisliklar ro'yxati va kasb-hunar ta'limining yo'nalishlari, mutaxassisliklari va kasblari klassifikatorini ishlab chiqish.	2019-yil 1-may	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Kasb-hunar ta'limi markazi, Mehnat vazirligi, tasarrufida ta'lim muassasalari bo'lgan vazirlik va idoralar	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: kasbiy ta'lim bo'yicha ilg'or xorijiy davlatlar tajribasini tahlil qilgan holda davlat ta'lim standartlarini; barcha toifadagi ta'lim muassasalarining, o'qitish muddatidan kelib chiqqan holda kasblar va mutaxassisliklarning ro'yxatini; kasb-hunar ta'limining yo'nalishlari, mutaxassisliklari va kasblari klassifikatorini tasdiqlash nazarda tutiladi.
21	O'zbekistonning xalqaro tadqiqotlarda (PISA, TIMSS, PIRLS va b.) ishtirokini ta'minlash maqsadida Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish.	2019-yil 1-mart	Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Xalq ta'limi vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi	—	—	Amaliy chora-tadbirlar. Bunda Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi va Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) o'rtasida kelishuv imzolash bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

21	Ta'lim muassasalarini akkreditatsiyalash tizimini takomillashtirish.	2019- yil 1-mart	Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Maktabgacha ta'lim vazirligi	—	—	Normativ- huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: akkreditatsiya lash jarayonini yanada soddalashtirish; xalqaro tajribalarga asoslangan holda ikki turdagi (ta'lim muassasasi akkreditatsiyasi va ta'lim dasturlari akkreditatsiyasi) akkreditatsiya tizimini joriy etish; ta'lim muassasalarida ichki baholash tizimini takomillashtirish, , ichki baholash natijalarining mavjudligi, xolisligi va shaffofligini akkreditatsiyalas hning asosiy mezonlari sifatida e'tirof etish; akkreditatsiya lash natijalari bo'yicha ta'lim muassasalari rahbarlari faoliyatiga baho berish nazarda tutiladi.
----	--	------------------------	---	---	---	--

21	Uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim muassasalari faoliyati samaradorligiga baho berish va ularning reytingini bosqichma-bosqich e'lon qilib borish.	2019-yil 1-avgust	Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Kasb-hunar ta'limi markazi	—	—	Idoraviy normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: ta'lim muassasalari reytingini aniqlash; reyting natijalari asosida ta'lim muassasalari faoliyatiga baho berish nazarda tutiladi.
21	Yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish mexanizmlarini takomillashtirish.	2019-yil 1-may	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Innovatsiya vazirligi, Oliy attestatsiya komissiyasi	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: doktoranturaga qabul kvotasini magistratura qabul kvotasining kamida 30 foizi miqdorida belgilash; doktorantlarga ilmiy rahbarlik qilish soni chegarasini qayta ko'rib chiqish; doktoranturaga talabgorlarni to'lov-kontrakt asosida qabul qilishga ruxsat berish nazarda tutiladi.

21	Respublika ilmiy jurnallarini Scopus, Web of Science, Science direct, Thomson reuters kabi xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasiga bosqichma-bosqich kiritish bo'yicha dastur ishlab chiqish.	2019- yil 1-iyul	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Moliya vazirligi, vazirlik va idoralar	100 mlrd so'm	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi	Normativ- huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: respublika ilmiy jurnallarining maxsus jamg'armasini tashkil etish; jamg'arma mablag'larini xalqaro reytingga kirish salohiyati mavjud ilmiy va oliy ta'lim muassasalari faoliyatini qo'llab- quvvatlashga yo'naltirish; respublika ilmiy jurnallarini Scopus, Web of Science, Science direct, Thomson reuters kabi xalqaro ilmiy- texnik ma'lumotlar bazasiga bosqichma- bosqich kiritish; yuqori nufuzli xalqaro jurnallarda maqola chop etgan mualliflarni rag'batlantirish tizimini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar nazarda tutiladi.
----	---	------------------------	---	---------------------	---	--

21	Ta'lim muassasalarida uni bitirib, yuksak yutuqlarga erishgan nomdor shaxslarning homiylik xayriya mablag'lari hisobiga shakllantiriladigan bitiruvchilar jamg'armasini tashkil etish.	2019-yil 1-mart	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: jamg'armani tashkil etish va uning faoliyat yuritishi tartibi; jamg'arma mablag'laridan iqtidorli o'quvchi va talabalar, faol o'qituvchilarni moddiy qo'llab-quvvatlash, bitiruvchilar va ta'lim muassasalari o'rtasida amaliy va foydali aloqani ta'minlash uchun foydalanish tartibi nazarda tutiladi.
----	--	--------------------	--	---	---	---

21	Yirik xalqaro kompaniyalarda ishlagan yetuk olim va mutaxassislarni oliy ta'lim muassasalariga rahbarlik va professor-o'qituvchi lavozimlariga taklif qilish.	Yil davomi da	“El-yurt umidi” jamg'armasi, TIV, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi	—	—	Amaliy chora-tadbirlar. Bunda: chet eldan taklif etilgan mutaxassislar uchun mehnatga haq to'lash tizimidan tortib o'quv-uslubiy ishlarni tashkil etishgacha barcha zarur sharoitlar yaratiladi; O'zbekistonda yetishib chiqib, hozirgi kunda nufuzli xorijiy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan yurtdoshlarni Vatanga qaytarish amaliyoti keng joriy etiladi.
----	---	---------------	--	---	---	--

22	Xorijiy mamlakatlarning oliy ta'lim muassasalari filiallari va qo'shma ta'lim dasturlarini tashkil etish.	Yil davomi da	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, TIV, Madaniyat vazirligi, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, vazirlik va idoralar	—	—	Amaliy chora-tadbirlar. Bunda O'zbekistonda Moskva energetika instituti, Moskva davlat xalqaro munosabatlar instituti, shuningdek Toshkent kimyo-texnologiya institutida D.Mendeleyev nomidagi Rossiya davlat kimyo-texnologiya universiteti, Toshkent davlat agrar universitetida Astraxan davlat texnika universiteti bilan qo'shma ta'lim dasturlari (qo'shma fakultetlar) tashkil qilinadi.
----	---	---------------	---	---	---	--

22	2019/2020 o'quv yilidan boshlab davlat buyurtmasi va tabaqalashtirilgan to'lov-kontrakt tizimini bosqichma-bosqich joriy etish orqali oliy ta'lim muassasalarini o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazish, ularga moliyaviy masalalarda mustaqillik berish.	2019-yil 1-iyul	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Davlat test markazi, tasarrufida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirlik va idoralar	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: bosqichma-bosqich davlat buyurtmasi va tabaqalashtirilgan to'lov-kontrakt tizimini joriy etish orqali o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazish; oliy ta'lim muassasalarini moliyaviy tartibga soluvchi hujjatlarni qayta ko'rib chiqish orqali oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligini ta'minlash nazarda tutiladi.
----	---	-----------------	--	---	---	---

22	2019/2020 o'quv yilidan boshlab abituriyentlarga bir vaqtning o'zida bir nechta oliy ta'lim muassasasiga hujjat topshirish imkoniyatini berish.	2019-yil 1-aprel	Davlat test markazi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, tasarrufida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirlik va idoralar	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: abituriyentlar ni bir vaqtning o'zida bir nechta oliy ta'lim muassasasiga hujjat topshirish imkoniyatini beruvchi mexanizmnin ishlab chiqish; abituriyentning sinov natijasi bo'yicha olgan bali tavsiya etishga yetarli bo'lgan oliy ta'lim muassasasi (ta'lim yo'nalishi)da o'qish imkoniyatini berish; kirish sinovlari yakunlangandan keyin abituriyentlarni oliy ta'lim muassasasi (ta'lim yo'nalishi)ni tanlashning aniq muddatini belgilash; abituriyentlar tomonidan oliy ta'lim muassasalarini tanlashda imtihon fanlari bloki va ketma-ketligining mosligi nazarda tutiladi.
----	---	------------------	---	---	---	--

22	Iqtidorli yoshlar uchun bakalavr bosqichini jahonning nufuzli oliy ta'lim muassasalarida davom ettirish imkoniyatini yaratish.	2019-yil 1-mart	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, "El-yurt umidi" jamg'armasi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, TIV	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada bakalavr bosqichi talabalarining xorijda ta'lim olishini tashkil etish tartibi nazarda tutiladi.
22	2019/2020 o'quv yili qabulidan boshlab bosqichma-bosqich davlat xizmatlari markazlari orqali oliy ta'lim muassasalariga hujjat qabul qilish tizimini yo'lga qo'yish.	2019-yil 1-may	Adliya vazirligi, Davlat test markazi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada davlat xizmatlari markazlari orqali hujjat qabul qilish tizimini yaratish va o'qishga kirish uchun hujjat topshirishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash nazarda tutiladi.

22	Harbiy xizmatni o'tagan abituriyentlarga alohida kvotalar ajratish va shu kvota doirasida test sinovlarini o'tkazish.	2019-yil 1-may	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Davlat test markazi, Mudofaa vazirligi, DXX, Milliy gvardiya	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: harbiy xizmatni o'tagan abituriyentlarga tegishli o'quv yili uchun tasdiqlanadigan oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalari doirasida alohida kvotalar ajratish va test sinovlarini o'tkazish; harbiy qism komandirining tavsiyanomasi faqat harbiy oliygohlar uchun imtiyozga ega bo'lishi nazarda tutiladi.
22	Umumiy ta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ilmiy-o'quv jarayoni sifatini tubdan yaxshilash.	Yil davomida	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Moliya vazirligi, Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi, Qurilish vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	1,8 trln so'm 25,1 mln AQSh dollari	Davlat budjeti mablag'lari Xalqaro moliya institutlari mablag'lari	2019-yilga mo'ljallangan Investitsiya dasturi doirasida amalga oshiriladigan loyihalarning tarmoq jadvallari. Bunda Investitsiya dasturlariga kiritilgan ta'lim muassasalari obyektlari bo'yicha loyihasmeta hujjatlarini ishlab chiqish, ekspertizadan o'tkazish, qurilish-montaj ishlari amalga oshirish choralari nazarda tutiladi.

22	Ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, amaliy natijadorligi va samaradorligini oshirish maqsadida “buyurtmachi-tadqiqotchi-investor” uzluksiz zanjiridan iborat maxsus portal tashkil etish.	2019-yil 1-iyun	Innovatsiya vazirligi, Intellektual mulk agentligi, Fanlar akademiyasi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi	—	—	Chora-tadbirlar rejasi. Rejada portalda korxonalarning buyurtmalari, mavjud va istiqboldagi ilmiy ishlar ro'yxati, loyihalar bo'yicha potensial investorlar to'g'risidagi ma'lumotlarni joylashtirish hamda portal o'zaro hamkorlik uchun qulay maydon bo'lishi nazarda tutiladi.
----	---	--------------------	---	---	---	---

22	Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini moliyalashtirish hajmini bosqichma-bosqich oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish.	2019-yil 1-iyun	Innovatsiya vazirligi, Moliya vazirligi, Fanlar akademiyasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: ilm-fan va innovatsiya sohasiga moliyaviy mablag'lar va investitsiyalarni jalb etish asosida O'zbekistonning global innovatsion indeksdagi o'rini yaxshilash; ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning yangi mexanizmlarini joriy etish; ilmiy-tadqiqot muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va zarur innovatsion infratuzilmani barpo etishga qaratilgan chora-tadbirlar nazarda tutiladi.
----	---	--------------------	--	---	---	---

22	Ilmiy-tadqiqot tashkilotlari faoliyatini tubdan isloh qilish va ilmiy ishlanmalar bo'yicha amaliy natijadorlikni oshirish.	2019-yil 1-mart	Innovatsiya vazirligi, Fanlar akademiyasi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: mavjud ilmiy-tadqiqot muassasalarining ilmiy salohiyati va moddiy-texnika bazasini xatlovdan o'tkazish; ishlab chiqarish sohasida tarmoq ilmiy-tadqiqot muassasalari, konstruktorlik byurolari, tajriba-ishlab chiqarish va innovatsion markazlar tashkil etish; ilmiy-tadqiqot muassasalarining reyting tizimini joriy etishga qaratilgan chora-tadbirlar nazarda tutiladi.
23	Texnoparklarni tashkil etish va ularning faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik bazasini takomillashtirish.	2019-yil 1-mart	Innovatsiya vazirligi, Fanlar akademiyasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi	—	—	Chora-tadbirlar rejasi. Rejada: texnoparklarni tashkil etish va ularning faoliyatini tartibga soluvchi amaldagi qonun hujjatlarini tahlil qilish; texnoparklar faoliyatini rivojlantirish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribani o'rganish nazarda tutiladi
4.6. Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish						

23	“Yoshlar — kelajagimiz” davlat dasturi doirasida yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish va bandligini ta’minlash.	Yil davomi da	O‘zbekiston yoshlar ittifoqi, Mehnat vazirligi, Moliya vazirligi, Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	2 trln so‘m, shunda n 500 mlrd so‘m budget mablag‘lari	“Yoshlar — kelajagimiz” jamg‘armasi va boshqa manbalar mablag‘lari	Amaliy chora-tadbirlar. Bunda “Yoshlar — kelajagimiz” jamg‘armasi mablag‘laridan 2 trln so‘mdan ortiq mablag‘ ajratish orqali 50 mingdan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratiladi.
23	“O‘zbekiston yoshlari umumjahon assotsiatsiyasi” faoliyatiga e’tiborni kuchaytirish, uning vakillari va vakolatxonalarini tashkil etish.	2019-yil 1-mart	O‘zbekiston yoshlar ittifoqi, Adliya vazirligi, vazirlik va idoralar	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada “O‘zbekiston yoshlari umumjahon assotsiatsiyasi” faoliyatiga har tomonlama ko‘maklashish yuzasidan aniq chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash nazarda tutiladi.

23	Yoshlar bilan olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samaradorligini oshirish choralari ko'rish.	2019-yil 1-fevral	Madaniyat vazirligi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi, vazirlik va idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	Hisob-kitoblar ga asosan	Ijrochilar mablag'lari	Chora-tadbirlar dasturi. Dasturda davlat-xususiy sheriklik asosida yangi madaniyat va istirohat bog'larini tashkil etish, ularni zamonaviy yoshlar maskanlariga aylantirish choralari ko'rish, ushbu bog'larda, birinchi navbatda, sport maydonchalari, amfiteatr va kichik sahnalar, kutubxona, "Book cafe", shuningdek bepul "wi-fi" hududlarni tashkil etish nazarda tutiladi.
V. XAVFSIZLIK, MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG'RIKENGLIKNI TA'MINLASH HAMDA CHUQUR O'YLANGAN, O'ZARO MANFAATLI VA AMALIY TASHQI SIYOSATNI AMALGA OSHIRISH SOHASIDAGI USTUVOR YO'NALISHLAR						
5.1. Xavfsizlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash sohasidagi ustuvor yo'nalishlar						

23	Mamlakatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, Qurolli Kuchlarning jangovar qudratini oshirish.	2019-yil 10-aprel	Mudofaa vazirligi, DXX, Mudofaa sanoati davlat qo‘mitasi, FVV, Milliy gvardiya, Davlat bojxona qo‘mitasi, vazirlik va idoralar	—	—	Kompleks chora-tadbirlar dasturi. Dasturda: davlat harbiy xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha yangi qonun hujjatlarini hisobga olib, Qurolli Kuchlarni qo‘llashni rejalashtirishning huquqiy asoslarini yangilash; Qurolli Kuchlar jangovar tarkibi va tuzilishi sifat ko‘rsatkichlarini takomillashtirish; harbiy kadrlarni o‘qitish va qayta tayyorlash, harbiy xizmatchilarning professional tayyorgarligini tashkil etishning innovatsion yondashuvlarini ishlab chiqish; Qurolli Kuchlar milliy ruhini yuksaltirish, askar, serjant va ofitsyerlarni barkamol etib tarbiyalash tizimini takomillashtirish; mamlakat mudofaasini boshqarish milliy markazini yaratish va faoliyatini ta‘minlash; ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida
----	---	-------------------	--	---	---	---

23	O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa sanoati kompleksini rivojlantirish bo‘yicha dasturlarni ishlab chiqish.	2019-yil 1-iyul	Mudofaa sanoati davlat qo‘mitasi, Mudofaa vazirligi, DXX, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Fanlar akademiyasi, vazirlik va idoralar	—	—	Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari. Loyihalarda: harbiy va ikki xil maqsadlarda foydalanish mumkin bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarish, mahalliy korxonalarning manfaatini oshirish va investitsiyalarni rag‘batlantirishni nazarda tutuvchi mudofaa sanoati korxonalarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yaratish; mudofaa sanoati va boshqa sanoat tarmoqlari bilan tuzilmaviy diversifikatsiya va integratsiyalashu vni ta‘minlash; Davlat mudofaa sanoati kompleksining “Innovatsiya texnologiyalari markazi” negizida harbiy va ikki xil maqsadda foydalanish mumkin bo‘lgan mahsulotlar, ehtiyot qismlar, eng yangi material va xomashyolarning yangi turlarini loyihalashtirish va ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan iqtisodiyot sohasidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va
----	---	------------------------	--	---	---	---

23	Davlat chegarasidan o'tkazish punktlarida chegara nazorati sifatini oshirish yuzasidan kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish.	2019-yil 1-iyun	DXX, Mudofaa vazirligi, IIV, TIV, Davlat bojxona qo'mitasi, Moliya vazirligi, Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Davlat personallashtirish markazi	Hisob-kitoblar ga asosan	Ajratilgan budget mablag'lari doirasida	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi. Loyihada: DXX Chegara qo'shinlari nazoratchilar tarkibini mobil videokameralar bilan bosqichma-bosqich ta'minlash; zamonaviy talablarga javob beruvchi "shaxsni aniqlashtirish" tizimini joriy etish; chegara nazoratidan o'tish jarayoni muddatini qisqartirishga qaratilgan pasport va chegara nazorati mexanizmini avtomatlashtirish, "elektron darvozalar"ni (E-GATE) bosqichma-bosqich joriy etish nazarda tutiladi.
----	--	--------------------	---	--------------------------------	--	---

23	Mamlakatning axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ishlarning samaradorligini oshirish.	2019- yil 1- avgust	“O‘zaloqanazorat ” inspeksiyasi, DX❖, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyal arini rivojlantirish vazirligi, Bosh prokuratura, IIV, Matbuot va axborot agentligi, Din ishlari bo'yicha qo'mita, Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi	Hisob- kitoblar ga asosan	Axborot- kommunikatsi ya texnologiyala rini rivojlantirish jamg'armasi	Chora- tadbirlar rejasi. Rejada: “raqamli kriminalistika” ixtisoslashtirilga n laboratoriyasini yaratish; milliy kibermakonda axborot xavfsizligi hodisalariga tezkor chora ko'rish bo'yicha “UZCERT” xizmatini takomillashtirish; axborot xavfsizligi talablariga muvofiq davlat organlarida qo'llaniluvchi dasturiy ta'minotni sertifikatsiyalash mexanizmini tatbiq etish; kiberjinoyatla rdan saqlanish va ularning oldini olish, shuningdek mazkur sohada yetuk mutaxassislarni tayyorlash tizimini takomillashtirish nazarda tutiladi.
----	---	------------------------------	---	------------------------------------	--	---

23	Milliy-madaniy markazlar , doʻstlik jamiyatlari rolini yanada oshirish va ularning aholi hayotidagi ishtirokini kuchaytirish.	2019-yil 10-mart	Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan doʻstlik aloqalari qoʻmitasi, TIV, Adliya vazirligi, vazirlik va idoralar, milliy madaniy markazlar	—	—	Chora-tadbirlar dasturi. Dasturda: madaniy-gumanitar almashinuv va doʻstona aloqalarni kuchaytirishga qaratilgan tadbirlarda aholining keng qatlamlari va jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish; milliy-madaniy markazlar va doʻstlik jamiyatlarining xorijiy davlatlar bilan hamkorligini faollashtirish; vazirlik va idoralarning milliy-madaniy markazlar va doʻstlik jamiyatlari bilan hamkorligini mustahkamlash nazarda tutiladi.
----	---	------------------	--	---	---	--

23	“Ma’rifiy islom” mazmun-mohiyatini faol targ’ib qilish ishlarini jadallashtirish.	2019-yil 1-mart	Din ishlari bo’yicha qo’mita, O‘zbekiston musulmonlari idorasi, Islom sivilizatsiyasi markazi, TIV, Adliya vazirligi, IIV, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	—	—	Chora-tadbirlar rejasi. Rejada: ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo’yicha takliflarni ishlab chiqishga qaratilgan xalqaro konferensiyalar, simpoziumlar va davra suhbatlari o‘tkazish; diniy va madaniy merosni tiklash, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarni jahon hamjamiyatiga yetkazish maqsadida xorijiy mamlakatlarda tadbirlar o‘tkazish; ekstremizm, fundamentalizm va terrorizm g‘oyalarining an’anaviy islom diniga zid ekanligini izohlovchi ilmiy va hujjatli filmlarni, jumladan xorijiy tillarda yaratish nazarda tutiladi.
----	--	--------------------	---	---	---	--

24	Barcha aholi qatlamlarinifavqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlashtartibinitako millashtirish va optimallashtirish.	2019-yil 1-avgust	FVV, IIV, DXX, Mudofaa vazirligi, Milliy gvardiya, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	—	—	Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari. Loyihalarda: aholini favqulodda vaziyatlarga tayyorlash tizimini takomillashtirish; favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo‘yicha tadbirlarda aholining ishtirokini faollashtirish; favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish tizimini takomillashtirish nazarda tutiladi.
----	---	-------------------	--	---	---	---

24	Xorijiy sheriklar bilan harbiy va harbiy-texnik hamkorlikni faollashtirish tizimini takomillashtirish.	2019-yil 30-aprel	Mudofaa vazirligi, DXX, Milliy gvardiya, TIV, Davlat bojxona qo‘mitasi	—	—	Xorijiy sheriklar bilan harbiy va harbiy-texnik hamkorlikni faollashtirish bo‘yicha amaliy harakatlar rejasi (“yo‘l xaritasi”). Rejada: xorijiy sherik davlatlar bilan birgalikda xalqaro harbiy va harbiy-texnik hamkorlikning miqyosi va geografiyasini kengaytirish; yetakchi xorijiy davlatlarning qo‘shinlari, shuningdek oliy harbiy ta’lim muassasalari va tadqiqot markazlari bilan birgalikda harbiy xizmatchilarni o‘qitish va malakasini oshirishni tashkil etish; Qurolli Kuchlar jangovar-xizmat faoliyatida xorijiy mamlakat qo‘shinlarining ilg‘or tajribasini chuqur o‘rganish va keng tatbiq etish nazarda tutiladi.
----	--	-------------------	--	---	---	---

24	O'zbekistonning chegara oldi tumanlarida xavfsizlikni ta'minlash hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat chegarasida qonun buzilishini bartaraf etish, aniqlash va oldini olish tizimini takomillashtirish.	2019-yil 20-avgust	DXX, IIV, Mudofaa sanoati Bosh prokuratura, vazirlik va idoralar	—	—	O'zbekistonning chegara oldi tumanlarida xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar rejasi. Rejada: chegara oldi hududlarining aholisi bilan ishlashda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, Musulmonlar idorasi vakillari va boshqa jamoat tashkilotlarining DXX Chegara qo'shinlari bilan hamkorligini kuchaytirish; jamoat tashkilotlari xodimlarini chegara oldi tumanlarda huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi ko'nikmalarini oshirish bo'yicha tizimli o'qitish; O'zbekistonning chegara oldi tumanlari aholisini terrorchilik va diniy ekstremistik tashkilotlarning g'oyalari ta'siridan saqlash, qonun buzilishi va jinoyatchilik holatlarini kamaytirish choralari amalga oshirish nazarda tutiladi.
----	--	--------------------	--	---	---	--

24	Markaziy Osiyo davlatlari bilan chegara o'tkazish punktlarini takomillashtirish ishlarida o'zaro hamkorlikni yanada rivojlantirish.	2019-yil 20-oktabr	Davlat bojxona qo'mitasi, DXX, IIV, Bosh prokuratura, TIV, vazirlik va idoralar	—	—	Kompleks chora-tadbirlar dasturi. Dasturda: fuqarolar va transport kompaniyalariga chegara oldi o'tkazish punktlarini kesib o'tishda qulay sharoitlar yaratish; chegara oldi o'tkazish punktlarining o'tkazish qobiliyatini kengaytirish; bojxona nazorati samaradorligini oshirish; Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida tashqi savdo aylanmasi va o'zaro munosabatlarni yangi bosqichga ko'tarish nazarda tutiladi.
----	---	--------------------	---	---	---	--

24	Milliy axborot makonini himoya qilish bo'yicha Internet tarmog'ida milliy kontentni rivojlantirish.	2019-yil 1-avgust	Matbuot va axborot agentligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyal arini rivojlantirish vazirligi, Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi	Hisob-kitoblar ga asosan	Ajratilgan budget mablag'lari doirasida, xalqaro moliya institutlari mablag'lari	Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi. Loyiha bilan O'zbekiston axborot makonini himoya qilish bo'yicha 2019 — 2021-yillarda xalqaro Internet axborot tarmog'ida milliy kontentni rivojlantirish kompleks dasturi tasdiqlanadi. Dasturda: milliy kontent va IT-startaplar rivojlanishini qo'llab-quvvatlash davlat fondini tashkil qilish; bloggerlik faoliyatini tartibga solish va boshqaruv mexanizmini takomillashtirish; milliy blogyerlar klubini yaratish, zarur va dolzarb axborotni tayyorlash bo'yicha tizimli ishni tashkil qilish; "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonunni yangi tahrirda qabul qilish nazarda tutiladi.
----	---	-------------------	--	--------------------------	--	--

24	Ommaviy tadbirlarni o'tkazishda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash.	2019-yil 25-may	IIV, Milliy gvardiya, DXX, FVV, Bosh prokuratura, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, vazirlik va idoralar	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada jamoat tartibini saqlash tadbirlariga jalb qilinayotgan kuch va vositalar maqsadsiz sarflanishining oldini olish maqsadida IIV, Milliy gvardiya, DXX, FVV, prokuratura, hokimliklarning vazifa hamda majburiyatlarini aniq taqsimlash va belgilab berish nazarda tutiladi.
24	Sanoat korxonalarining atrof muhitga real tahdidlarini o'rganish va baholash, mamlakatdagi ekologik vaziyatni sog'lomlashtirish, atrof muhit ifloslanishini sezilarli tarzda kamaytirishni ta'minlash tizimini takomillashtirish.	2019-yil 1-iyun	Davlat ekologiya qo'mitasi, FVV, Sog'liqni saqlash vazirligi, "O'zbekimyo sanoat" AJ, "O'zbekneftgaz" AJ, vazirlik va idoralar	Hisob-kitoblar ga asosan	Ajratilgan budjet mablag'lari doirasida, xalqaro moliya institutlari mablag'lari	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: sanoat korxonalariga zamonaviy samarali tozalovchi uskunalarni, chiqindi manbalarini kuzatib boruvchi va nazorat qiluvchi avtomatlashtirilgan tizimlarni o'rnatish; chang, gaz va suv tozalovchi uskunalarni ishlab chiqarish; mazkur sohadagi huquqiy bazani qayta ko'rib chiqish nazarda tutiladi.

24	Oziq-ovqat sanoatida steroidlar, kuchli ta'sir qiluvchi antibiotiklar va boshqa organik va kimyoviy qo'shimchalarning qo'llanishi me'yorlarini tartibga soluvchi huquqiy mexanizmni takomillashtirish.	2019-yil 15-iyun	Sog'liqni saqlash vazirligi, Davlat veterinariya qo'mitasi, "O'zstandart" agentligi, Adliya vazirligi, vazirlik va idoralar	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va ularni aholiga yetkazib berish jarayonida steroidlar, kuchli ta'sir qiluvchi antibiotiklar va boshqa organik va kimyoviy qo'shimchalarning me'yordan ortiq ishlatilishini nazorat qilish mexanizmlari nazarda tutiladi.
24	Radiatsiyaviy avariylarni prognoz qilish, barvaqt aniqlash va tezkor harakat qilish bo'yicha yagona davlat tizimini takomillashtirish.	2019-yil 1-sentabr	FVV, Sog'liqni saqlash vazirligi, IIV, Davlat bojxona qo'mitasi, Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi, Fanlar akademiyasi, "O'zatom" agentligi, vazirlik va idoralar	—	—	Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi. Loyihada avtomatlashtirilgan radiatsiyaviy vaziyatni nazorat qilish, yagona davlat tizimini tashkil etish va radiatsiyaviy avariylarni prognoz qilish va bartaraf etishda yagona davlat tizimi imkoniyatlarini oshirish nazarda tutiladi.

24	Afg‘oniston bo‘yicha 8-mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik konferensiyasini (RECCA VIII) Toshkentda o‘tkazish.	2019-yil 25-may	TIV, Tashqi savdo vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Savdo-sanoat palatasi, Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti, Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi	Hisob-kitoblar ga asosan	Davlat budjeti mablag‘lari, ijrochilar mablag‘lari	Vazirlar Mahkamasi farmoyishi loyihasi. Loyihada Afg‘oniston bo‘yicha 8-mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik konferensiyasini o‘tkazish bilan bog‘liq tashkiliy masalalar nazarda tutiladi.
5.2. Tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar						
25	O‘zbekistonning Parij bitimiga qo‘shilishi munosabati bilan “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish bo‘yicha davlat strategiyasini ishlab chiqish.	2019-yil 1-iyul	Vazirlar Mahkamasi, “O‘zgidromet” markazi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Davlat ekologiya qo‘mitasi, Innovatsiya vazirligi, TIV, Oliy Majlis palatalari (kelishuv asosida), Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: iqlim o‘zgarishiga qarshi tizimli kurashishning ilg‘or mexanizmlarini joriy qilish; yashil iqlim jamg‘armasining resurslariga yo‘l ochish; iqtisodiyotning barcha sohalariga, jumladan ishlab chiqarishga “yashil texnologiyalarni” joriy qilish nazarda tutiladi.

25	Markaziy Osiyoda suv resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha mintaqaviy dastur konsepsiyasini ishlab chiqish.	2019-yil 10-noyabr	Vazirlar Mahkamasi, TIV, DXX, Suv xo'jaligi vazirligi, Davlat ekologiya qo'mitasi, Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti, Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti, vazirlik va idoralar	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyiha bilan mintaqaviy dastur konsepsiyasi tasdiqlanadi. Konsepsiyada : Markaziy Osiyoda suvdan tejamkor foydalanish, suv manbalarini boshqarish va oqilona foydalanish masalalarida mintaqaviy hamkorlikni yangi bosqichga ko'tarish; suv manbalarini boshqarish va oqilona foydalanish masalalarida tejamkor texnologiyalarni, ilg'or xorijiy tajribani tatbiq etish uchun donor-davlatlar, xalqaro institutlar moliyaviy mablag'larini jalb qilishni jadallashtirish; Amudaryo va Sirdaryo bo'yicha BMT tomonidan ishlab chiqilgan konvensiyalarni ilgari surish; suv va ekologik muammolarni hal qilish uchun mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishda Orolni qutqarish xalqaro fondi
----	--	---------------------------	---	---	---	--

25	Orolbo‘yi mintaqasida yangi muhofaza etiladigan, jumladan transchegaraviy tabiiy hududlarni tashkil etish.	2019-yil 1-iyun	Davlat ekologiya qo‘mitasi, Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasi, TIV, Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Xorazm viloyati hokimligi, vazirlik va idoralar	Hisob-kitoblar ga asosan	Ajratilgan budget mablag‘lari doirasida, xalqaro moliya institutlari mablag‘lari	Kompleks chora-tadbirlar rejasi. Rejada: Orolbo‘yi mintaqasida yangi muhofaza etiladigan, jumladan transchegaraviy tabiiy hududlarni tashkil etish; Qozog‘iston va Turkmaniston bilan hamkorlikda qo‘riqlanuvchi tabiiy hududlarni yaratish; muhofaza etiladigan va transchegaraviy yangi tabiiy hududlarni tashkil etish hamda bioxilma-xillikni asrab-avaylashni yaxshilash bo‘yicha normativ-huquqiy bazani takomillashtirish nazarda tutiladi.
----	--	--------------------	--	--------------------------	--	--

25	“Diplomatik xizmat to‘g‘risida” gi qonun loyihasini ishlab chiqish.	2019-yil 1-aprel	TIV, Oliy Majlis palatalari (kelishuv asosida), Bosh prokuratura, Adliya vazirligi, Mehnat vazirligi, vazirlik va idoralar	—	—	O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi. Loyihada: diplomatik xizmat tushunchasi va turlari, diplomatik xizmat organlari, uning vazifasi va funksiyalari, xodimlarning huquq va majburiyatlari; diplomatik xizmat turlari va ularni amalga oshirish tartibi; diplomatik xizmatga qabul qilish, rotatsiya tartibi va diplomatik xizmat xodimlarining uzoq muddatli safarda bo‘lish muddatlari; diplomatik xizmat xodimlarini kasbiy tayyorlash va ularning malakasini oshirish tartibi, xodimlar faoliyatining samaradorligini baholash mexanizmlari; diplomatik xizmat ko‘rsatuvchi shaxslar maqomi, xorijiy hamkorlar bilan ishlash mexanizmi; diplomatik xizmat organlarini moliyaviy va moddiy-texnik ta‘minlash mexanizmlari, xodimlarni moddiy
----	--	---------------------	--	---	---	---

25	Xalqaro maydonda mamlakatimiz siyosiy-iqtisodiy manfaatlarini ilgari surish, davlatimizning tashqi iqtisodiy va siyosiy faoliyati takomillashtirishga yo‘naltirilgan O‘zbekiston Respublikasi Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi qonunni qabul qilish	2019-yil 1-aprel	TIV, Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti, vazirlik va idoralar	—	—	O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi. Loyiha bilan O‘zbekiston Respublikasi Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi yangi tahrirda tasdiqlanadi. Konsepsiyada : O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini aniq belgilash; mamlakatning milliy xavfsizligi, suvereniteti va hududiy yaxlitligini mustahkamlash; zamonaviy sharoitlardagi tashqi siyosiy, tashqi iqtisodiy sohalarda O‘zbekistonning milliy manfaatlarini ilgari surish; barcha davlatlar va nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan strategik hamkorlik va do‘stlik munosabatlarining barqaror tizimini barpo etish, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro maydondagi imiji, o‘rni va ta‘sirini mustahkamlash; xalqaro huquq normalarini implementatsiya
----	--	---------------------	---	---	---	--

25	O'zbekiston Respublikasining xorijdagi muassasalari, diplomatik vakolatxonalari faoliyatini kuchaytirish, shu jumladan yangi diplomatik vakolatxonalar va konsullik muassasalarini ochish.	Yil davomi da	TIV, Moliya vazirligi, Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi, Tashqi savdo vazirligi, Adliya vazirligi, Mehnat vazirligi	Hisob - kitoblar ga asosan	Ajratilgan budget mablag'lari doirasida, xalqaro moliya institutlari mablag'lari	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi. Loyihada: O'zbekistonning siyosiy va iqtisodiy sohadagi xalqaro hamkorlik geografiyasini kengaytirish; xorijsda yashovchi fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida yangi diplomatik va konsullik muassasalarini ochish hamda amaldagilarining xodimlari sonini oshirish; diplomatik va konsullik muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish, bunda xodimlar uchun qulay sharoitlar yaratish va moddiy qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish nazarda tutiladi.
----	--	---------------	---	-----------------------------------	---	---

25	Tashqi transport, logistika va yo‘l infratuzilmasi tizimini rivojlantirish.	Yil davomi da	Tashqi savdo vazirligi, TIV, Davlat bojxona qo‘mitasi, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, “O‘zavtotrans” agentligi, “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ, vazirlik va idoralar	—	—	Amaliy chora-tadbirlar. Bunda: o‘zaro tarif preferensiyalarini taqdim etishda hamkor-davlatlar bilan kelishuv, bojxona va ma‘muriy tartib-taomillarni takomillashtirish; logistika markazlarini rivojlantirish, imtiyozli ketma-ket tariflarni shakllantirish orqali xalqaro va mintaqaviy transport koridorlaridan samarali foydalanish; hamkorlar bilan birgalikda Markaziy Osiyo transport tizimini rivojlantirish bo‘yicha mintaqaviy dasturni qabul qilish nazarda tutiladi.
----	--	---------------	---	---	---	---

25	Markaziy Osiyo davlatlarining xavfsizlikni ta'minlash va mintaqaviy muammolarni bartaraf etishdagi o'zaro munosabatlaridagi ishonch darajasini oshirish.	2019-yil 20-iyul	TIV, DXX, Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyihada: Markaziy Osiyo davlatlarining mintaqaviy hamkorlikning dolzarb masalalari bo'yicha qarashlarini yaqinlashtirish, mintaqada xavfsizlik, barqarorlik, yaxshi qo'shnichilik va hamkorlikni shakllantirishga qaratilgan O'zbekiston tashqi siyosatini faollashtirish; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha maxsus vakili lavozimini ta'sis etish nazarda tutiladi.
----	---	---------------------	--	---	---	---

25	Xorijdagi O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga konsullik muassasalari tomonidan davlat xizmatlari va huquqiy yordam berish tizimini takomillashtirish.	2019- yil 1- sentabr	TIV, Mehnat vazirligi, Adliya vazirligi, IIV	—	—	Amaliy chora- tadbirlar. Bunda mehnat faoliyati uchun xorijda vaqtinchalik yashayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun elektron xizmatlar ko‘rsatish imkoniyati kengaytiriladi va takomillashtirilad i.
25	Samarqandda Vatandoshlar xalqaro forumini tashkil etish va o‘tkazish.	2019- yil 20-may	TIV, Tashqi savdo vazirligi, Yoshlar ittifoqi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Madaniyat vazirligi, Savdo- sanoat palatasi, Respublika ma‘naviyat va ma‘rifat markazi, Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi, “El-yurt umidi” jang‘armasi	Hisob- kitoblar ga asosan	Davlat budjeti mablag‘lari, ijrochilar mablag‘lari	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoyishi loyihasi. Loyihada Samarqand shahrida 2019-yilda Vatandoshlar xalqaro forumini tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq tashkiliy masalalar nazarda tutiladi.

26	O‘zbekistonning xalqaro maydondagi ijobiy imijini mustahkamlash konsepsiyasini ishlab chiqish.	2019-yil 20-avgust	TIV, Tashqi savdo vazirligi, Oliy Majlis palatalari (kelishuv asosida), Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Madaniyat vazirligi, Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi, Savdo-sanoat palatasi, Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti, Respublika ma‘naviyat va ma‘rifat markazi, vazirlik va idoralar	Hisob-kitoblar ga asosan	Ajratilgan budget mablag‘lari doirasida, xalqaro moliya institutlari mablag‘lari	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyiha bilan O‘zbekistonning xalqaro maydondagi ijobiy imijini mustahkamlash konsepsiyasi tasdiqlanadi. Konsepsiyada : O‘zbekistonning nufuzini xalqaro maydonda oshirish maqsadida samarali va keng ko‘lamli targ‘ibot va tashviqot ishlarini yo‘lga qo‘yish, milliy turistik brendni yaratish, xorijiy ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro manfaatli kelishuvlarga erishish; xalqaro tashkilotlar vakillarini O‘zbekistonga taklif qilish va ularni respublikada yuz berayotgan o‘zgarishlar bilan bevosita tanishtirish; xalqaro tashkilotlar va reyting agentliklari (“Fitch”, “Standard & Pours”, “Moody’s”) bilan O‘zbekiston Respublikasi vazirlik va idoralari
----	---	--------------------	---	--------------------------	---	--

26	Markaziy Osiyoda millatlararo ziddiyatlar tahdidlariga qarshi birgalikda kurashish va millatlararo totuvlik tamoyillarini tasdiqlash ishlarida mintaq davlatlari bilan tizimli hamkorlikni yo'lga qo'yish. Ushbu yo'nalishda Toshkent shahrida "Markaziy Osiyo — umumiy uyimiz" mavzusida xalqaro konferensiya o'tkazish.	2019-yil 20-sentabr 2019-yil 18-noyabr	Vazirlar Mahkamasi, Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi, TIV, Toshkent shahar hokimligi, vazirlik va idoralar	Hisob-kitoblar ga asosan	Davlat budjeti mablag'lari, ijrochilar mablag'lari	Chora-tadbirlar dasturi. Dasturda: Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi hamda Markaziy Osiyo mamlakatlarining sohaga oid tashkilotlari o'rtasida hamkorlik memorandumini ishlab chiqish va tegishli tashkilotlar bilan kelishish; yuz berishi mumkin bo'lgan millatlararo ziddiyatlar tahdidlarining oldini olish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish hamda hujjat loyihasining Markaziy Osiyo mamlakatlarining sohaga oid tashkilotlari tomonidan ko'rib chiqilishini tashkil etish; "Markaziy Osiyo — umumiy uyimiz" tamoyilini amalda tatbiq etish hamda mintaq davlatlari yetakchi olim va ekspertlari ishtirokida xalqaro konferensiyani yuqori saviyada o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlarni
----	---	--	--	---------------------------------	---	--

26	Xorijiy investorlar bilan ishlashni yagona tizimga keltirish va uning samaradorligini orttirish.	2019-yil 20-iyul	Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi, Tashqi savdo vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Savdo-sanoat palatasi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Innovatsiya vazirligi, Moliya vazirligi, Markaziy bank, Mehnat vazirligi	Hisob-kitoblar ga asosan	Ajratilgan budget mablag'lari doirasida, xalqaro moliya institutlari mablag'lari	Chora-tadbirlar rejasi. Rejada xorijiy investorlar bilan ishlashni yagona tizimga keltirish va uning samaradorligini oshirish uchun O'zbekiston Investitsiya portali asosida "Invest in Uzbekistan" yagona portalini ishlab chiqish nazarda tutiladi. Yagona portalda: O'zbekistonning xorijdagi diplomatik vakolatxonalari, tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatga aloqador idoralarning o'zaro aloqasi va hamkorligini ta'minlash; xorijiy tadbirkorlar uchun O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyoti bo'yicha ma'lumotlarni yetkazish va ularni doimiy ravishda yangilab turish; O'zbekistonning tadbirkorlik va investitsiya sohasidagi qonunchiligi, biznes yuritish uchun yaratilayotgan qulayliklar to'g'risidagi qisqa, lo'nda va mazmunli axborotlarni muntazam
----	--	---------------------	---	--------------------------	--	---

26	Mamlakat tashqi siyosatiga oid muhim vazifalarni hal qilishda parlament diplomatiyasi rolini kuchaytirish.	Yil davomida	Oliy Majlis palatalari, TIV, vazirlik va idoralar	Hisob-kitoblar ga asosan	Ajratilgan budget mablagʻlari doirasida, xalqaro moliya institutlari mablagʻlari	Amaliy chora-tadbirlar. Bunda: Oʻzbekistonning milliy manfaatlarini xalqaro doirada, jumladan parlamentlararo maydonda va ikki tomonlama munosabatlarda ilgari surishga qaratilgan Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining xalqaro faoliyatini kuchaytirish; xorijiy mamlakatlar parlament vakillari bilan toʻgʻridan toʻgʻri muloqotni yoʻlga qoʻyish boʻyicha aniq chora-tadbirlarni, yaqin va uzoq xorijga ishchi tashriflarni amalga oshirish, hamkorlikni kengaytirish va dolzarb masalalar yechimini izlash maqsadida hamkor mamlakatlarning hukumat va fuqarolik jamiyati institutlari vakillari bilan uchrashuvlar oʻtkazish nazarda tutiladi.
----	---	--------------	---	--------------------------	--	---

26	Orolbo‘yi hududida ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasini yaratish bo‘yicha xalqaro anjuman tashkil etish va o‘tkazish.	2019-yil 25-oktabr	Davlat ekologiya qo‘mitasi, Innovatsiyavazirligi, TIV, vazirlik va idoralar	Hisob-kitoblar ga asosan	Ajratilgan budget mablag‘lari doirasida, xalqaro moliya institutlari mablag‘lari	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoyishi loyihasi. Loyihada: anjuman konsepsiyasini ishlab chiqish; tadbirning kun tartibi, aniq muddati va joyini belgilash; xorijiy mutaxassislar, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar vakillarini tadbirga taklif etish va ularning ishtirokini tashkil qilish; anjumanning yakuniy hujjati loyihasini ishlab chiqish va kelishish nazarda tutiladi.
26	Toshkent shahrida Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishga bag‘ishlangan xalqaro konferensiya o‘tkazish.	2019-yil 19-20-fevral	TIV, Xalqaro aloqalar axborot-tahlil markazi, Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti	Hisob-kitoblar ga asosan	Ajratilgan budget mablag‘lari doirasida, ijrochilar mablag‘lari	Vazirlar Mahkamasi farmoyishi loyihasi. Loyihada Markaziy Osiyo davlatlari yetakchi olimlari va ekspertlarining forumini o‘tkazishga oid tashkiliy chora-tadbirlar nazarda tutiladi.

26	Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahatlashuv uchrashuvini o'tkazish.	2019-yil 12-aprel	TIV, Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti, Xalqaro aloqalar axborot-tahlil markazi	Hisob-kitoblar ga asosan	Ajratilgan budget mablag'lari doirasida, ijrochilar mablag'lari	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoyishi loyihasi. Loyihada 2019-yilda Toshkent shahrida mintaqa davlatlari rahbarlarining maslahatlashuv uchrashuvini o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlar nazarda tutiladi. Tadbirlarda: Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash sohasida samarali mintaqaviy hamkorlikning yangi rezervlarini va uni kengaytirishning ta'sirchan mexanizmlarini topish; savdo-iqtisodiy, innovatsion, investitsiyaviy, transport-kommunikatsiya, bank-moliya, suv-energetika va madaniy-gumanitar hamda ekologik barqarorlikni saqlash sohalarida aniq dasturlarni ishlab chiqish; xalqaro va mintaqaviy dolzarb masalalar yuzasidan keng fikr almashish, ular bo'yicha
----	--	-------------------	--	--------------------------	---	--

26	BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashiga 2021 — 2023-yillarga saylanishi uchun O'zbekiston nomzodini ilgari surish.	Yil davomi da	TIV, Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz, Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti, vazirlik va idoralar	—	—	Kompleks chora-tadbirlar rejasi. Rejada: BMTga a'zo davlatlarning O'zbekistonning Inson huquqlari bo'yicha kengashiga nomzodini qo'llab-quvvatlashga erishish maqsadida ular bilan muzokaralar olib borish; O'zbekistonda inson huquqlarini ta'minlash sohasida olib borilayotgan islohotlar to'g'risida materiallarni tayyorlash va BMTga a'zo davlatlar o'rtasida tarqatish bilan bog'liq chora-tadbirlar amalga oshiriladi.
----	---	---------------	---	---	---	--

26	BMTning “Yoshlar huquqlari to‘g‘risida”gi konvensiyasi qabul qilinishini ilgari surish.	Yil davomi da	Inson huquqlari bo‘yicha milliy markaz, TIV, Oliy Majlis Senati, Inson huquqlari bo‘yicha milliy markaz, Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti, Yoshlar ittifoqi, Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, Xalq ta‘limi vazirligi, Respublika ma‘naviyat va ma‘rifat markazi	—	—	Amaliy chora-tadbirlar. Bunda: Konvensiya loyihasini keng miqyosda xalqaro ko‘mak olish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining BMTdagi doimiy vakolatxonalari va boshqa diplomatik vakolatxonalarda taqdimot va davra suhbatlari, brifinglar o‘tkazish orqali maqsadli tushuntirish ishlarini amalga oshirish nazarda tutiladi.
26	O‘zbekiston va boshqa mamlakatlar shaharlari va hududlari o‘rtasida hamkorlikni (“birodarlik aloqalari”) mustahkamlash.	Yil davomi da	TIV, Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	—	—	Amaliy chora-tadbirlar. Bunda O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlar shaharlari o‘rtasida aloqalar o‘rnatish mexanizmini faol ishga tushirish nazarda tutiladi.

27	BMTning “Inson huquqlari sohasida ta’lim va tarbiya deklaratsiyasi” to’g’risidagi nizomini amalga oshirish bo’yicha milliy harakatlar dasturini qabul qilish.	2019-yil 30-may	Inson huquqlari bo’yicha milliy markaz, TIV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi (kelishuv asosida)	—	—	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi. Loyiha bilan milliy harakatlar dasturi tasdiqlanadi. Dasturda barcha darajada inson huquqlari va erkinliklari haqidagi bilim va ko’nikmalar darajasini yanada oshirib borish nazarda tutiladi.
27	Sharqiy va Shimoliy Yevropa, Sharqiy Osiyo mamlakatlari, Afrika va Janubiy Amerikaning ayrim davlatlari bilan hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish.	Yil davomida	TIV, Investitsiyalar bo’yicha davlat qo’mitasi, Tashqi savdo vazirligi	—	—	Amaliy chora-tadbirlar Bunda: O‘zbekiston Respublikasining siyosat, investitsiya, savdo, madaniyat va turizm, yuqori texnologiya sohalarida hamkorlik qilishi uchun ushbu mintaqalarning salohiyatga ega mamlakatlari bilan hamkorlikni yo’lga qo’yish hamda faollashtirish; mazkur hududlarga milliy tovar va xizmatlar eksportini oshirish maqsadida tizimli marketing tadqiqotlarini o’tkazish nazarda tutiladi.

27	Markaziy Osiyo davlatlarining hududlar rahbarlari o'rtasida aloqalarini yangi sifat bosqichiga ko'tarish.	Yil davomi da	TIV, Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi, Tashqi savdo vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	—	—	Amaliy chora-tadbirlar. Bunda: Markaziy Osiyo davlatlarining hududlar rahbarlari biznes hamjamiyatining assotsiatsiyasini ta'sis etish; Markaziy Osiyo davlatlarining hududlar rahbarlari biznes hamjamiyatining assotsiatsiyasini ta'sis etish konsepsiyasi loyihasini qo'shni davlatlar bilan hamkorlikda ishlab chiqish va amalga oshirish nazarda tutiladi.
----	--	---------------	---	---	---	--

27	Markaziy Osiyo hududini turistik yo‘nalish, birinchi navbatda, Buyuk Ipak yo‘lining asosiy bo‘g‘ini sifatida ilgari surisha mintaqa davlatlari harakatlarini muvoqlashtirish.	2019- yil 30-may	IIV, TIV, DXX, Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi, Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasi, Tashqi savdo vazirligi	—	—	Amaliy chora- tadbirlar. Bunda: Markaziy Osiyo mamlakatlariga keladigan sayyohlar uchun yagona vizani kiritish tashabbusining maqsadga muvoqligini hamkorlar bilan birgalikda o‘rganish (“Silk Visa”); xorijdagi vatandoshlar uchun O‘zbekistonga kelib-ketish, mamlakatda qolish, mehnat faoliyatini olib borish, sarmoya kiritish uchun qulay shart- sharoitlar yaratish (“Vatandosh” vizasi/pasporti); O‘zbekiston iqtisodiyotiga sarmoya kiritish istagida bo‘lgan xorijiy davlatlar fuqarolari uchun maxsus viza (investitsion viza) joriy etishni o‘rganish nazarda tutiladi.
----	--	------------------------	---	---	---	---

27	Tashqi aloqalarni yo'lga qo'yishda “raqamli diplomatiya” vositalarini rivojlantirish.	2019-yil 20-iyul	TIV, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti, vazirlik va idoralar	—	—	Kompleks chora-tadbirlar dasturi. Dasturda: “raqamli diplomatiya” reytingida O'zbekistonning o'rnini oshirish, ushbu yo'nalishda faoliyat yuritayotgan tahlil markazlari bilan hamkorlik o'rnatish; O'zbekistonning xorijdagi barcha diplomatik vakolatxonalari veb-saytlari auditini o'tkazish, ularni yagona dizayn va tuzilmaga keltirish; TIV xodimlari uchun yangi axborot texnologiyalari, “raqamli diplomatiya” instrumentlaridan foydalanish bo'yicha malaka oshirish dasturi tashkil etish; TIV huzurida ijtimoiy tarmoqlar (“Social Media Marketing”) va “raqamli diplomatiya” bo'yicha mutaxassislar guruhini shakllantirish nazarda tutiladi.
----	--	------------------	---	---	---	--

Izohlar:

Dasturda nazarda tutilgan tadbirlarning amalga oshirilishi jarayonida ularning moliyalashtirish manbalariga aniqlik kiritilishi mumkin.

Davlat budjeti mablagʻlari deganda markazlashgan investitsiyalar, vazirlik, idora va tashkilotlarning xarajatlar smetasida nazarda tutilgan budjet mablagʻlari tushuniladi.

Tegishli komissiya bilan kelishilgan holda, Dasturda nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish uchun qabul qilinadigan hujjatlar shakli zaruratga qarab oʻzgartirilishi, boshqa bandlardagi hujjatlar bilan birlashtirilishi yoki bir necha turdagi hujjatlarga boʻlinishi mumkin.

Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish jarayonida mutasaddi vazirlik va idoralarning takliflari asosida Dasturda belgilangan tadbirlarning mazmuniga mos keladigan boshqa masalalar ham nazarda tutiladi.

2019-yilda Davlat dasturi tadbirlarini amalga oshirishning jami xarajatlari:

16 998,6 mlrd soʻm va 8 106,5 mln AQSh dollari, shundan:

	soʻmda	AQSh dollarida
Davlat budjeti va Davlat maqsadli jamgʻarmalari mablagʻlari	14 025,0 mlrd	5,2 mln
Ijrochilar va xayriya tashkilotlari mablagʻlari	2 515,4 mlrd	4 120 mln
Xalqaro tashkilotlar, moliya institutlari mablagʻlari va begʻaraz yordam	458,2 mlrd	3 981,3 mln

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi PF-5635-son Farmoniga
2-ILOVA

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi mansabdor shaxslari, vazirlik va idoralar rahbarlari hamda Oʻzbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalarini mamlakat hududlariga

BIRIKTIRISH

T/r	Mamlakat hududi	Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi, vazirlik va idoralarning mansabdor shaxslari	Biriktirilgan diplomatik vakolatxonalar
1.	Andijon viloyati	J.A. Qoʻchqorov — Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vazirining oʻrinbosari — moliya vaziri	1. Oʻzbekiston Respublikasining Germaniya Federativ Respublikasidagi Elchixonasi
			2. Oʻzbekiston Respublikasining Hindiston Respublikasidagi Elchixonasi
			3. Oʻzbekiston Respublikasining Qirgʻiziston Respublikasidagi Elchixonasi
2.	Buxoro viloyati	G.K. Saidova — Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisining oʻrinbosari	1. Oʻzbekiston Respublikasining Xitoy Xalq Respublikasidagi Elchixonasi
			2. Oʻzbekiston Respublikasining Isroil Davlatidagi Elchixonasi
			3. Oʻzbekiston Respublikasining Indoneziya Respublikasidagi Elchixonasi
3.	Jizzax viloyati	D.R. Li — Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi direktori	1. Oʻzbekiston Respublikasining Rossiya Federatsiyasidagi Elchixonasi
			2. Oʻzbekiston Respublikasining Fransiya Respublikasidagi Elchixonasi

			3. O'zbekiston Respublikasining Belarus Respublikasidagi Elchixonasi
4.	Qashqadaryo viloyati	B.M. Mavlonov — O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisining birinchi o'rinbosari	1. O'zbekiston Respublikasining Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligidagi Elchixonasi 2. O'zbekiston Respublikasining Polsha Respublikasidagi Elchixonasi 3. O'zbekiston Respublikasining Eron Islom Respublikasidagi Elchixonasi
5.	Navoiy viloyati	M.B. Azimov — O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi raisi	1. O'zbekiston Respublikasining Amerika Qo'shma Shtatlaridagi Elchixonasi 2. O'zbekiston Respublikasining Birlashgan Arab Amirliklaridagi Elchixonasi 3. O'zbekiston Respublikasining Ukrainadagi Elchixonasi
6.	Namangan viloyati	A.A. Abduxakimov — O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining O'rinbosari	1. O'zbekiston Respublikasining Belgiya Qirolligidagi Elchixonasi 2. O'zbekiston Respublikasining Misr Arab Respublikasidagi Elchixonasi 3. O'zbekiston Respublikasining Ozarbayjon Respublikasidagi Elchixonasi
7.	Samarqand viloyati	S.R. Xolmurodov — O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari	1. O'zbekiston Respublikasining Turkiya Respublikasidagi Elchixonasi 2. O'zbekiston Respublikasining Xitoy Xalq Respublikasidagi Elchixonasi 3. O'zbekiston Respublikasining Ispaniya Qirolligidagi Elchixonasi 4. O'zbekiston Respublikasining Gretsiya Respublikasidagi bosh konsulligi
8.	Surxondaryo viloyati	M.M. Ikramov — O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi raisi	1. O'zbekiston Respublikasining Yaponiyadagi Elchixonasi 2. O'zbekiston Respublikasining Avstriya Respublikasidagi Elchixonasi 3. O'zbekiston Respublikasining Afg'oniston Islom Respublikasidagi Elchixonasi 4. O'zbekiston Respublikasining Tojikiston Respublikasidagi Elchixonasi

9.	Sirdaryo viloyati	R.K. Davletov — O‘zbekiston Respublikasi adliya vaziri	1. O‘zbekiston Respublikasining Xitoy Xalq Respublikasidagi Elchixonasi
			2. O‘zbekiston Respublikasining Italiya Respublikasidagi Elchixonasi
			3. O‘zbekiston Respublikasining Qozog‘iston Respublikasidagi Elchixonasi
10.	Farg‘ona viloyati	E.M. Ganiyev — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisining o‘rinbosari	1. O‘zbekiston Respublikasining Janubiy Koreyadagi elchixonasi
			2. O‘zbekiston Respublikasining Latviya Respublikasidagi Elchixonasi
			3. O‘zbekiston Respublikasining Ummon Sultonligidagi Elchixonasi
11.	Xorazm viloyati	A.J. Ramatov — O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o‘rinbosari	1. O‘zbekiston Respublikasining Malayziyadagi Elchixonasi
			2. O‘zbekiston Respublikasining Saudiya Arabistoni Qirolligidagi Elchixonasi
			3. O‘zbekiston Respublikasining Turkmanistondagi Elchixonasi
12.	Toshkent viloyati	O.B. Murodov — O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori	1. O‘zbekiston Respublikasining Turkiya Respublikasidagi Elchixonasi
			2. O‘zbekiston Respublikasining Rossiya Federatsiyasidagi Elchixonasi
			3. O‘zbekiston Respublikasining Pokiston Islom Respublikasidagi Elchixonasi
			4. O‘zbekiston Respublikasining Qozog‘iston Respublikasidagi Elchixonasi
13.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	N.S. Otajonov — O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari, A.I. Ikramov — O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi raisi	1. O‘zbekiston Respublikasining Yaponiyadagi Elchixonasi
			2. O‘zbekiston Respublikasining Germaniya Federativ Respublikasidagi Elchixonasi
			3. O‘zbekiston Respublikasining Quvayt Davlatidagi Elchixonasi
14.	Toshkent shahri	A.N. Aripov — O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri, J.A. Xodjayev — O‘zbekiston Respublikasi tashqi savdo vaziri	1. O‘zbekiston Respublikasining Amerika Qo‘shma Shtatlaridagi Elchixonasi
			2. O‘zbekiston Respublikasining Janubiy Koreyadagi Elchixonasi
			3. O‘zbekiston Respublikasining Singapurdagi Elchixonasi

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglardagi va alohida tarkibiy indikatorlardagi o‘rnini yaxshilash uchun mas’ul vazirlik va idoralar

RO‘YXATI

Oldingi tahrirga qarang.

T/r	Toifalar nomlanishi	Tarkibiy indikatorlar nomlanishi	Mas’ul vazirlik va idoralar
1.	Iqtisodiy erkinlik indeksi		Iqtisodiyot va sanoat vazirligi (B. Xodjayev)
1.1	Qonun ustuvorligi	Mulkchilik huquqi	Adliya vazirligi (R. Davletov), Intellectual mulk agentligi (A. Fayzullayev), Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasi (S. Bekenov), “Davyergeodezkadastr” davlat qo‘mitasi (A. Abdullayev)
		Sud faoliyati samaradorligi	Oliy sud (K. Kamilov), Adliya vazirligi (R. Davletov)
		Davlatning yaxlitligi	Adliya vazirligi (R. Davletov), Oliy sud (K. Kamilov), Bosh prokuratura (O. Murodov)
1.2	Davlat aralashuvi darajasi	Soliq yuki	DSQ (B. Musayev), Moliya vazirligi (A. Xaydarov), Iqtisodiyot va sanoat vazirligi (B. Xodjayev)
		Davlat xarajatlari	Moliya vazirligi (A. Xaydarov), Iqtisodiyot va sanoat vazirligi (B. Xodjayev)
		Fiskal salomatlik	Moliya vazirligi (A. Xaydarov), Markaziy bank (M. Nurmuratov), Iqtisodiyot va sanoat vazirligi (B. Xodjayev)
1.3	Tartibga solish samaradorligi	Biznes erkinligi	Bosh prokuratura (O. Murodov), Iqtisodiyot va sanoat vazirligi (B. Xodjayev), SSP (A. Ikromov)
		Mehnat bozori erkinligi	Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (Sh. Kudbiyev), Adliya vazirligi (R. Davletov).
		Monetar erkinlik	Markaziy bank (M. Nurmuratov), Moliya vazirligi (A. Xaydarov)
1.4	Bozorlarning ochiqqligi	Savdo erkinligi	Tashqi savdo vazirligi (J. Xodjayev), DBQ (M. Azimov)

		Investitsiyalar erkinligi	Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi (S. Bekenov), Iqtisodiyot va sanoat vazirligi (B. Xodjayev)
		Moliyaviy erkinlik	Markaziy bank (M. Nurmuratov), Moliya vazirligi (A. Xaydarov), Iqtisodiyot va sanoat vazirligi (B. Xodjayev), Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi (S. Bekenov)
2.	Global raqobatbardoshlik indeksi		Moliya vazirligi (J. Qo'chqorov)
2.1	Institutlar sifati	Davlat institutlari	Adliya vazirligi (R. Davletov)
		Xususiy institutlar	Iqtisodiyot va sanoat vazirligi (B. Xodjayev), Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi (S. Bekenov)
2.2	Infratuzilma	Transport infratuzilmasi	Transport vazirligi, "Uzbekistan airways" AJ, "Uzbekistan airports" AJ, "O'zbekiston temir yo'llari" AJ
		Elektr va telefon infratuzilmasi	"O'zbekenergo" AJ (U. Mustafoyev), Axborot texnologiyalari vazirligi (Sh. Sadikov)
2.3	Makroiqtisodiy muhit	Davlat budjeti balansi	Moliya vazirligi (A. Xaydarov), Markaziy bank (M. Nurmuratov), Iqtisodiyot va sanoat vazirligi (B. Xodjayev), Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi (S. Bekenov)
		Yalpi milliy omonatlar	
		Inflatsiya	
		Davlat qarzi	
		Mamlakat kredit reytingi	
2.4	Sog'liqni saqlash va boshlang'ich ta'lim	Sog'liqni saqlash	Sog'liqni saqlash vazirligi (A. Shodmonov)
		Boshlang'ich ta'lim	Xalq ta'limi vazirligi (Sh. Shermatov), Maktabgacha ta'lim vazirligi (A. Shin)
2.5	Oliy ta'lim va o'qitish	Ta'lim darajasi	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (I. Madjidov), Xalq ta'limi vazirligi (Sh. Shermatov)
		Ta'lim sifati	
		Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda o'qish	
2.6	Tovar bozori samaradorligi	Ichki raqobat	Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi (B. Xodjayev), DSQ (B. Musayev),
		Tashqi raqobat	Tashqi savdo vazirligi (J. Xodjayev), Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi (S. Bekenov), DBQ (M. Azimov)
		Talab shartlari sifati	Iqtisodiyot va sanoat vazirligi (B. Xodjayev)
2.7	Mehnat bozorining samaradorligi	Moslashuvchanlik	Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (Sh. Kudbiyev), DSQ (B. Musayev)
		Iste'doddan samarali foydalanish	

2.8	Moliya bozorini rivojlantirish	Samaradorlik	Moliya vazirligi (A. Xaydarov), Markaziy bank (M. Nurmuratov)
		To'g'rilik va ishonchlilik	
2.9	Texnologik tayyorgarlik	Texnologik moslashish	Axborot texnologiyalari vazirligi (Sh. Sadikov), Loyiha boshqaruvi milliy agentligi (D. Li), Innovatsion rivojlanish vazirligi (I. Abduraxmanov), Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi (S. Bekenov)
		AKTdan foydalanish	
2.10	Bozor hajmi	Ichki bozor ko'lami	Iqtisodiyot va sanoat vazirligi (B. Xodjayev)
		Tashqi bozor ko'lami	Tashqi savdo vazirligi (J. Xodjayev)
2.11	Biznesning rivojlanganlik darajasi	Mahalliy yetkazib beruvchilar soni	Iqtisodiyot va sanoat vazirligi (B. Xodjayev), Moliya vazirligi (A. Xaydarov), SSP (A. Ikromov)
		Mahalliy yetkazib beruvchilar sifati	
		Klaster rivojlanish holati	
		Raqobatbardosh ustunlik xususiyati	
		Qiymatlar zanjiri kengligi	
		Xalqaro taqsimotlar nazorati	
		Ishlab chiqarish jarayonini takomillashtirish	
		Marketing hajmi	
		Vakolatlarni o'tkazishga tayyorgarlik	
		Professional boshqaruvga tayanish	
2.12	Innovatsiyalar	Innovatsiyalar uchun imkoniyatlar	Innovatsion rivojlanish vazirligi (I. Abduraxmanov), Fanlar akademiyasi (B. Yuldashev), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (I. Madjidov), Intellectual mulk agentligi (A. Fayzullayev), Moliya vazirligi (A. Xaydarov), Loyiha boshqaruvi milliy agentligi (D. Li)
		Ilmiy-tadqiqot institutlari sifati	
		Kompaniyaning ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga xarajatlari	
		Tadqiqot va ishlanmalarda universitetlar va sanoatning hamkorligi	
		Davlat xaridlari va ilg'or texnologik mahsulotlar	
		Olimlar va muhandislar mavjudligi	
		PCT xalqaro patent tizimi patenti uchun talabnomalar	
		Intellectual mulk himoyasi	
3.	"Doing business" indeksi		Iqtisodiyot va sanoat vazirligi (B. Xodjayev)

3.1	Korxonalarni ro'yxatdan o'tkazish	Adliya vazirligi (R. Davletov)
3.2	Qurilish uchun ruxsatnomalar olish	Qurilish vazirligi (A. To'xtayev)
3.3	Elektr ta'minoti tizimiga ulanish	"O'zbekenergo" AJ (U. Mustafoyev), "O'zdavenergonazorat" DI (D. Isaqulov)
3.4	Mulkni ro'yxatdan o'tkazish	"Davyergeodezkadastr" davlat qo'mitasi (A. Abdullayev), Adliya vazirligi (R. Davletov)
3.5	Kredit olish	Markaziy bank (M. Nurmuratov)
3.6	Minoritar investorlarni himoya qilish	Kapital bozorini rivojlantirish agentligi
3.7	Soliqlar to'lovi	Moliya vazirligi (A. Xaydarov), DSQ (B. Musayev)
3.8	Xalqaro savdo	Tashqi savdo vazirligi (J. Xodjayev), DBQ (M. Azimov)
3.9	Kontraktlar ijrosini ta'minlash	Oliy sud (K. Kamilov), Bosh prokuratura huzuridagi Byuro (B. Qudratxo'jayev)
3.10	To'lovga qobiliyatsizlikni hal qilish	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi (N. Jurayev)
3.11	Davlat xaridlari	Moliya vazirligi (D. Kuchkarov)
3.12	Mehnat bozorini tartibga solish	Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (Sh. Kudbiyev)
4	Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) kredit reytingi	Moliya vazirligi (J. Qo'chqorov)
5	Huquq ustuvorligi indeksi	Adliya vazirligi (R. Davletov)
5.1	Hokimiyat institutlari vakolatlarini cheklash	Adliya vazirligi (R. Davletov)
5.2	Korrupsiyaning yo'qligi	Bosh prokuratura (O. Murodov)
5.3	Tartib va xavfsizlik	IIV (P. Bobojonov)
5.4	Asosiy huquqlarni himoya qilish	Bosh prokuratura (O. Murodov)
5.5	Hokimiyat institutlarining shaffofligi	Bosh prokuratura (O. Murodov), Adliya vazirligi (R. Davletov)
5.6	Qonunlarga rioya etish	Bosh prokuratura (O. Murodov)
5.7	Fuqarolik odil sudlovi	Oliy sud (K. Kamilov)
5.8	Jinoiy odil sudlov	Oliy sud (K. Kamilov)
5.9	Norasmiy odil sudlov	Adliya vazirligi (R. Davletov), Oliy sud (K. Kamilov), Bosh prokuratura (O. Murodov)
6.	Korrupsiyani qabul qilish indeksi	Bosh prokuratura (O. Murodov)

7.	Inson kamoloti indeksi	Iqtisodiyot va sanoat vazirligi (B. Xodjayev)
7.1	Kutilayotgan umr ko‘rish indeksi	Sog‘liqni saqlash vazirligi (A. Shodmonov)
7.2	Ta’lim indeksi	Xalq ta’limi vazirligi (Sh. Shermatov), Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (I. Madjidov), Maktabgacha ta’lim vazirligi (A.Shin)
7.3	Daromad indeksi	Iqtisodiyot va sanoat vazirligi (B. Xodjayev), Davlat statistika qo‘mitasi (B. Begalov)
8.	Jahon mamlakatlari demokratiyasi indeksi	Adliya vazirligi (R. Davletov)
8.1	Saylov jarayoni va plyuralizm	Markaziy saylov komissiyasi (M. Abdusalomov)
8.2	Hukumat faoliyati	Oliy Majlis palatalari (N. Yuldashev, N. Ismoilov) Adliya vazirligi (R. Davletov)
8.3	Siyosiy ishtirok	Markaziy saylov komissiyasi (M. Abdusalomov), Adliya vazirligi (R. Davletov)
8.4	Siyosiy madaniyat	Adliya vazirligi (R. Davletov)
8.5	Fuqarolar erkinligi	Oliy sud (K. Kamilov), Bosh prokuratura (O. Murodov)
9.	Erkin matbuot indeksi	Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (K. Allamjonov)
10.	Logistika samaradorligi indeksi	Iqtisodiyot va sanoat vazirligi (B. Xodjayev)
11.	Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi	Loyiha boshqaruvi milliy agentligi (D. Li), Axborot texnologiyalari vazirligi (Sh. Sadikov)
12.	Statistik salohiyat indeksi	Davlat statistika qo‘mitasi (B. Begalov)
13.	Sanoat raqobatbardoshligi indeksi	Iqtisodiyot va sanoat vazirligi (B. Xodjayev), Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasi (S. Bekenov)
14.	Investitsiyalarni tartibga solishning cheklanganligi indeksi	Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasi (S. Bekenov)
15.	Innovatsiyalar global indeksi	Innovatsion rivojlanish vazirligi (I. Abduraxmanov)
16.	Davlat siyosati va institutsional baholash indeksi	Vazirlar Mahkamasining Investitsiyalar va tashqi iqtisodiy aloqalar masalalari kotibiyati (E. Ganiyev)

(3-ilova O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-martdagi PF-5971-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.03.2020-y., 06/20/5971/0348-son)

(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 18.01.2019-y., 06/19/5635/2502-son, 08.03.2019-y., 06/19/5687/2723-son, 21.05.2019-y., 06/19/5722/3154-son, 11.12.2019-y., 06/19/5892/4134-son; 20.03.2020-y., 06/20/5971/0348-son)